

N. X. ABDURASHIDOVA

VETNAM ADABIYOTI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

N. X. ABDURASHIDOVA

**VETNAM
ADABIYOTI**

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent 2024

Mazkur o‘quv qo‘llanma Filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, “O‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti (vietnam)” fani o‘quv dasturi asosida tuzilgan. O‘quv qo‘llanmada vietnam an‘anaviy adabiyotining rivojlanish tarixi, ilk yozma yodgorliklardan to XX asrgacha bo‘lgan nazm va nasrning turli yo‘nalishlari, shoir va yozuvchilar ijodi hamda Vietnamdagi ijtimoiy vaziyatning adabiyotga ta’siri bo‘yicha umumiy ma’lumot taqdim etiladi.

O‘quv qo‘llanmani tayyorlashda muallif vietnam va rus sharqshunoslarining ilmiy izlanishlari va maqolalariga tayangan.

Ushbu qo‘llanma Vietnam adabiyoti shakllanishi va rivojlanishi haqidagi tasavvurlarni boyitadi.

Mas’ul muharrir:

U. Muxibova – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasи professori, f.f.d.

Taqrizchilar:

D. Muxiddinova – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasи mudiri, f.f.d., dotsent

G. Xalliyeva – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, f.f.d.

Mazkur qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil 4-maydagi 8-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya qilingan.

Mundarija

Vietnam mifologiyasi (afsonalari). Dunyo yaratilishi haqida vietnam miflari.....	4
Qadimgi Vietnam adabiyoti. Qadimgi Vietnam folklori.....	8
Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari adabiyotining vietnam adabiyotiga ta'siri. XVII asrda Vietnam adabiyotida syujetsiz vaznli nasr	21
XVIII asr Vietnamda ijtimoiy vaziyat va adabiy jarayonning xususiyatlari. Xanvan tilidagi kichik shakllar she'riyati. Vietnam tilidagi kichik shakllar she'riyati	35
Vietnam adabiyotida lirik poema	42
Vietnam adabiyotida nasriy poema. Nguyen Din Teu	49
Yangi davrdagi adabiyot. Vietnamda zamonaviy nasr va dramaturgiyaning shakllanish bosqichlari	61
1930-1945-yillar adabiyoti. Vietnam adabiyotida revolyutsion she'riyat rivoji Vietnam Demokratik Respublikasining adabiyoti. G'alaba qozongan inqilob adabiyoti	72
Qarshilik urushi yillaridagi adabiyot. Sotsialistik qurilish va AQSH boqinchiliklariga qarshi kurashish davrdagi she'riyat va proza	104
Vietnam adabiyotida yangi she'riyatining rivojlanish bosqichlari. Ngo Suan Zieu	127
XX asr boshlaridagi vietnam novellasidagi ma'rifatparvarlik g'oyalari (tendentsiyalar). Fam Zyui Ton	149
Mavzular yuzasidan testlar	164
Glossariy	176
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	181

Vietnam mifologiyasi (afsonalari)

Darsning maqsadi: Talabalar tasavvurida vietnam adabiyoti dastlabki namunalari, miflarning adabiyot rivojiga ta'siri haqida amaliy tushuncha hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: Mif, vyet, vanlang, Dongshon madaniyati, Bronza davri.

Vietnam Janubiy Osiyoning Shimolidan Janubiga qadar cho‘zilgan hududga ega bo‘lib, yarim orolning sharqiy qismi majoziy ma’noda “Tinch okeaniga qaragan balkon” iborasi bilan yuritiladi. Ayrim hollarda Vietnam dengiz mamlakati deb yurilib, vietnamliklar hayotida dengiz muhim rol o‘ynaydi. Bu yerda esayotgan mussonlar quruq va yomg‘irli, issiq va salqin fasllar almashinuvini aniqlaydi. Odatda vietnam aholisiga doimiy ravishda ikkita ofat tahdid soladi: qurg‘oqchilik va daryo toshqini.

Vietnam atrofida turli xalqlarni jiplashtirgan, markazi vyetlar bo‘lgan ko‘p xalqli mamlakat.

Vietnam davlatchiligining boshlanishi va birinchi hukmdorlari bog‘liq ko‘plab afsonalar mavjud. Afsonalarga ko‘ra, vietnamliklarning birinchi ajdodi Lak Long Kuan -hukmdor Dragon Lak hisoblanadi.

Mif, afsona - bu xalq og‘zaki ijodiyotining namunasi. Mif (afsona) lar yordamida butun dunyo xalqlarining qadim zamonlarda bunyod bo‘lgan an’analari, urf-odatlari bilan tanishish mumkin. Vietnamga oid ma’lumotlarga ko‘ra “mif” iborasi qahramon shaxslar haqidagi xalq ijodiyoti hamda qadimgi odamlarning dunyo va insonlarning yaratilishi haqidagi tasavvurlarini anglatadi. Vietnamda miflarning paydo bo‘lishi bo‘yicha 2 hil tushuncha mavjud: birinchidan, mifning negizida quruq yolg‘on emas, balki haqiqiy hayot

yotadi; ikkinchidan mif o‘ziga noan’anaviy g‘alati tushunchani qamrab oladi, shuning uchun miflar bilan borliq hech qanday aloqasi bo‘lмаган insonlarning tasavvuri deb qaraladi. Bunday ziddiyat mifning kelib chiqish sabablarini o‘рганишни qiyinlashtiradi. Ammo jamiyat taraqqiyotiga, tarixiga nazar tashlasak, mifning paydo bo‘lishi tabiat haqidagi aniq tushunchaga ega bo‘lмаган, lekin asta-sekin tevarak-atrof haqida g‘ayritabiyy mavjudodlar bilan to‘la bo‘лган atrof muhit haqida soddagina tushunchalarga ega bo‘lib borgan ajdodlarning dunyoqarashi bilan bog‘liq bo‘лганligini ayta olamiz. Mif haqidagi bunday tushunchalar XIX asr boshlarida tashkil topgan mifologiya maktabiga tegishlidir¹. Ushbu maktabning tashkiliy qismlardan biri odatlar hisoblanadi. Keyinchalik esa XX asr boshlarida asta tabiat dunyosiga aylanuvchi tasavvurni anglatuvchi mahsulot sifatida miflar tasvirlagan etnografik maktab vujudga keldi. Fransiya ilmiy jamiyat maktabi nazariyatchilarining fikricha miflar qurbonlik keltirish odatlarini tushuntirish uchun yaratilgan². Shu jumladan ular miflarga hissiyotlardan ozod bo‘lish, insonlarning qalb-qo‘rida joylashgan hissiyotlarni g‘arq qilishning usuli sifatida qarashgan.

Vietnam madaniyatida ona nasliy tizimining negizlari sezilib turadi. Masalan: hukmdor Dragon Lak ajdarning qizi bo‘lib, onasidan suvli mohiyatni meros qilib olgan birinchi vyet hisoblanadi. Quyidagi mifda ham Hung hukmdorining ismi qayerdan olinganligi haqida hikoya qilinadi:

Ota imperator qazo qilishidan so‘ng taht katta o‘g‘liga o‘tadi. Katta o‘g‘il tahtga chiqqach o‘zini Xung, davlatini esa Vanlang deb e’lon qiladi. Imperatorning Xung ismi boshqa o‘zgarmadi. Vanlanglar hozirgi vaqtida zamonaviy Vietnamning kichik millatlari ichiga kiruvchi qo‘shti xalqlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ldilar. Bu uzoq

¹ Мифология Ветнама. (сравнительный анализ).- ТашГИВ,2007. - С.12.

² Мифология Ветнама. (сравнительный анализ).- ТашГИВ,2007. - С.13.

munosabat mif qahraminlarinig umumlashuvi hamda Vietnam asarlari bilan boshqa xalqlar asarlari orasida chegara qolmasligiga olib kelishi tabiiy hol edi. Janubi Sharqiy Osiyo xalqlari madaniyatining yaqinlashuvi butun dunyo olimlari tomonidan ta'kidlangan. Shunday qilib Fransuz olimi P.Myus bu regionni umumiyligida madaniy qadimgi musson zonasi deb ataydi. U bu regionga hos hususiyat yerning barcha hosildorligini jamlovchi ilohiy madaniyati deb ta'rif beradi. Tosh mohiyati bilan tog‘ mohiyati o‘zaro bog‘liq. Qadimgi vyetlar mamlakatni 2 ta Tanvin va Tam Dao tog‘lari qo‘riqlaydi deb hisoblashgan. Tanvin tog‘ida tog‘lar ilohi, Tam Dao tog‘ida esa ayollar hudosi yashagan. Bular Vanlanga ota-tog‘, ona-tog‘ biri G‘arbda, ikkinchisi Sharqda bo‘lgan tog‘lar edi. Vyetlar ko‘p asrli yozma madaniyat ga ega bo‘lgan qadimiy xalq. Bronza davri tasviri san’atni asli haykali bo‘lishi Dongshon madaniyatida ham mifologiya uslublari saqlanib qolgan. Bronza barobanlari va boshqa narsalarda nur sochib turgan quyosh aylanasining tasviri quyosh atrofida joylashgan turli antiqa hayvonlar tasviri patdan qilingan ustki va besh kiyimdagiligi odamlar tasvirlangan. Bu narsa qadimgi Vietnamda mifning va naslning naqadar rivojlanganligini isbotlaydi. Yerning hosildorligini oshirishga qaratilgan urf-odatlar haqida topilgan baqalarning bronza haykalchalari guvohlik beradi. Bu esa baqalar yomg‘ir so‘rovchi mavjudod sifatida ulug‘langanligini bildiradi. Vietnamda hozirgi paytgacha topilgan mifologik matnlar XIV-XX asrlarga tegishli. Feodal tuzum paytida vietnam miflari ilohlarning hayoti va tarihiy merosi asosida tuzilgan. XX asr o‘rtalarigacha Vietnamdagi ko‘pgina miflar xalq og‘zaki ijodi namunalari sifatida saqlanib qolgan. Ba’zi bir adabiy asarlar avloddan-avlodga o‘tib kelgan urf-odatlar bilan hamon uzbek bog‘liq. Vietnam miflari faqatgina og‘izdan-og‘izga o‘tganligi bois keyinchalik ular ancha aralashgan. Shuning uchun ham miflarni afsonalardan farqlash qiyin. Xalq hikoyalaridan ajratib olish uchun ham vietnam miflariga hos

bo‘lgan quyidagi xossalarga oid qonun-qoidalarga amal qilish kerak. Miflar tabiat dunyosida sodir bo‘ladigan jarayonlar, dunyoqarashlarni tushuntiruvchi hikoyalardan tashkil topgan. Shunday qilib osmon hudosi, oy hudosi, quyosh hudosi, dengiz hudosi va hokazolar albatta miflarda ishtirok etgan.

Dunyo yaratilishi haqida vietnam miflari

Miflar xalqlar negizi haqida xalqlar tarihining ufqlarida mamlakatning yaratilishi va saqlanib qilishi haqida turli janglarda albatta ishtirok etgan qahramonlar haqidagi hikoyalarda tashkil topgan. Shu bilan birga miflar – bu so‘zlovchi o‘z hoxishi bo‘yicha joylashtirishi mumkin bo‘lgan, hikoyalarning bir qismigina bo‘lgan, mavzusi chiroyli bir asar emas. Ammo haqiqat bilan qorishib ketgan miflar ham mavjud. Masalan: Tog‘ va suv ruhlari haqidagi miflar. Ularning mohiyati shundaki, hukmdor Xung Hiong tog‘ ruhining o‘g‘illarini o‘z qizlariga kuyovlikka tanlaganlari bois tog‘ va suv ruhlari qattiq ziddiyatga borishadi. O‘ch olish niyatida suv ruhlari suv yordamida tog‘ ruhlari maskanini yuvib tashlashga harakat qilishadi. Ruhlarning buyuk jangi shunday bo‘lgan. Lekin bu mavzuni imperator Xung Hiong hukmronlik qilgan qadimgi Vietnam hududdida yuz bergen haqiqiy toshqin bilan ham bog‘lash mumkin. Vietnam miflari juda ko‘p o‘zgartirishlardan o‘tdiki, bu uni madaniy-tarihiy mavzui nuqtai nazardan yanada murakkab qildi. Yagona mifologik tizim vyetlardan saqlanib qolgan matnlar asosida tashkil topgan emas. XV asrdan buyon tarihiy miflar maxsus yilnomalarga, mifologik mavzular esa XIX-XX asrlarning boshlang‘ich to‘plamlariga kiritilgan. Vyetlarning mifologik qarashlarining qadimiy tuzilishini kosmogonik miflari tashkil qiladi. Shunday qilib bunday miflardan biri yer bilan osmon o‘rtasida tosh ustun o‘rnatgan Txen Chu Chey atrofida jamlangan. Dunyoni boshqarish bo‘yicha vazifalarni bo‘lishib olgan

ilohlar haqida yana boshqa miflar ham mavjud. Birlari osmonga ko‘tarilsa, boshqalari yerda qoladi, hamda barchasi ishga kirishdi: biri yulduzlarni yaratadi, ikkinchisi daryo o‘zanini ochadi, uchinchisi daraxt ekadi. Vietnam adabiyotida yer yuzini tekislagan tog‘larni, daryolarni yaratgan afsonaviy bahaybat qahramonlar haqida ham hikoyalar uchraydi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Mifologiya maktablari haqida nimalarni bilasiz?
2. Vietnam miflariga hos bo‘lgan qonun-qoidalar nimalardan iborat?
3. Nima sababdan vietnam xalqi o‘zlarini ajdar tuxumidan yaralgan deb hisoblaydi?
4. Kosmogenik miflar deb qanday miflar aytildi?

Qadimgi Vietnam adabiyoti

Darsning maqsadi: Talabalar tasavvurida vietnam adabiyoti dastlabki namunalari, adabiyot rivojiga ta’sir ko‘rsatgan omillar haqida amaliy tushuncha hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: Bronza asri, Dongshon madaniyati, Txien, laktiongov, lakxeu, ziyaotau, Linnam, xuong-viong, epik.

Vietnam hududida bronza asri madaniyati keng rivojlangan bo‘lib, eramizdan avvalgi V-II asrlarda yuksaldi va Dongshon madaniyati nomi bilan mashhur bo‘ldi. Ushbu madaniyatga xos yodgorliklar mamlakatning o‘sha davrdagi qadimgi afsonalari xususiyatlarini tiklashga yordam berdi³. Katta bronza idishlari qayiqlardagi

³ Литература и фольклор народов Востока. – М.: Наука, 1967. – С. 267

sayohatchilar, uzun tumshuqli qushlar, timsohlar (ehtimol, ular totemik hayvonlar) ifodalagan naqshlar va rasmlar bilan bezalganini uchratishimiz mumkin. Idishlarning birida ajoyib uslubda chizilgan quyoshning rasmi Vietnamning qadimgi aholisida afsonalar mavjud bo‘lganiga, bronzadan yasalgan ayollar va erkaklar kichkina haykalchalari esa yer hosildorligi bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlarga ishora qiladi. Bronzadan yasalgan ulkan nog‘ora (baraban)larda o‘lim marosimlarini va o‘limdan keyingi hayot haqidagi tasavvurlarni ifodalaydigan rasmlarni uchratish mumkin.

Dongshon madaniyatini yaratgan xalq sinfiy jamiyatga kirib borayotganligini tahmin qilishimiz mumkin, uning asosiy faoliyati sug‘oriladigan dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan. Dongshon madaniyatini o‘rganuvchi tadqiqotchilar Vietnamning tog‘li xalqlari, xususan, o‘z xususiyatlariga ega epik rivoyatlarni yaratgan Ede xalqi bilan taqqoslab borishadi. Edelik “Dam Shan haqida doston” (“Klei Khan Y Dam San”) qahramoni matriarxat urf-odatlariga va ilohiyot irodasiga qarshilik ko‘rsatadi. Shu bilan birga Dam Shan – odamlarga guruch topib beruvchi va ularni turli hunarlarga o‘rgatuvchi ustoz sifatida namoyon bo‘ladi.

U xotinlikka Ayol-Quyoshni olishga harakat qilayotgan paytda “qora qatronli o‘rmonda” (narigi dunyoning timsoli) halok bo‘ladi.

Vietnam hududida bir necha ming yillar avval “Vanlang” qabilaviy ittifoqi tashkil topgan. Sinfiy jamiyat va davlat eramizdan avvalgi III asrda vujudga kelgan deb tahmin qilinadi. Eramizning III asrida G‘arbiy Xan Xitoy imperiyasi bu davlatni o‘ziga biriktirib oladi, biroq hokimiyat uzoq muddat ichida mahalliy zodagonlar (laktiong va lakxeu) qo‘lida qolib ketadi. Vietnamni Xitoy bosib olishidan oldin yozuv borligi haqida masala hal etilmagan degan farazlar mavjud. Chunki bronza asrining yodgorliklarida yozuv izlari

topilmagan, biroq afsonalarni ifodalaydigan naqshlar kriptogrammalar bo‘lishi ham mumkin⁴.

Tarixchilarning fikriga ko‘ra, Ziaotyau (Xitoy hukmronligi davrida Vietnam nomi) yo‘llar chorrahasida joylashgan bo‘lib, Hindiston va Xitoy sivilizatsiyalari o‘rtasida vositachi rolini o‘ynagan; bu yerda eramizning I asri o‘rtalarida vznyane va sanskrit tilida o‘qishgan. Ziaotyauda VI asr oxirida Txien (hind - dxyapa) buddalik maktabi o‘z ta’siri kuchaytirdi, bu maktabning g‘oyalarini tarqatishda Janubiy Osiyolik dinni targ‘ib qiluvchi Vinitaruchining hissasi katta edi. Mahalliy sig‘inishlarning unsurlarini o‘z ichiga olgan va mamlakat sharoitlariga mos kelgan buddizm asta-sekin mustahkam mavqega ega bo‘ldi. Vietnam (venyapya qadimgi xitoy tilining vietnamlashgan xanvan variantida) dagi yozuvning ilk yodgorliklari X asrga, ya’ni Vietnam ko‘p asrlik Xitoy zulmidan qutilgan davrga taalluqlidir. Xanvan bu yerga buddizm va xitoy ta’limi bilan birga kirib kelib, Vietnam feodal davlatining rasmiy yozma tiliga aylandi. Vietnam voqeligini aks ettirgan shoirlar ancha rivojlangan xitoy adabiyotiga, uning tajribasiga murojaat qilishadi, asosan Tan (VII-IX aslar) davridagi she’riyatdan obrazlar, tashbihlarni olishadi va she’r vaznlarini o‘zlashtirishadi⁵.

Shu bilan bir qatorda Hindxitoy yarim orolining janubiy sharqida joylashgan Tyamia davlati orqali hamda buddizm ta’sirida vietnamliklar hind madaniyati bilan tanishdi⁶. Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyonidagi aylanib chiqqan “Ramayana” o‘rta asrlarda Vietnamga ham kirib kelgan: XV asr yozuvida uning qisqa bayoni mashhur bo‘lgan. Ehtimol, ushbu afsonalar vietnam novellasiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan bo‘lishi mumkin degan farazlar mavjud⁷.

⁴ Литература и фольклор народов Востока. – М.: Наука, 1967. – С.267.

⁵ История всемирной литературы.. М.,Наука, 1989

⁶ Văn học dân gian các dân tộc – Ha noi, 1959. – T.320.

⁷ O’sha manba – B.325.

Qadimgi Vietnam folklori

Vietnamliklarning qadimgi folkloriga kelsak, keyingi davrlarda undan yozib olingen parchalarga asoslanib ma'lum bir tasavvurga ega bo'lamiz. “Vyet yurtining ajoyibotu-g'aroibotlari to‘plami” (“*Việt điện u linh tập*”, XIV asr) va “Linnam yurtining ajoyib rivoyatlari” (“*Lĩnh Nam chích quái*”, XV asr / Linnam – Vietnamning qadimgi nomlaridan biri) ancha oldinroq bo‘lgan davrga taalluqli folklor yozuvlarini o‘z ichiga olgan. “Linnam yurtining ajoyib rivoyatlari” folklor to‘plamining tuzuvchisi Vu Kuin (XV asr) muqaddimasida aytadiki, ushbu kitobda keltirilganlar “Li va Chan sulolalari davrida yuqori ilmga va keng bilimga ega odamlar tomonidan ilk bora yozib olingen” (Li sulolasи 1010-1225 - yillarda, Chan sulolasи 1225-1400 - yillarda hukmronlik qilgan). O‘scha davrlardagi to‘plam tuzuvchilar kabi Vu Kuin ham afsona va rivoyatlarni haqiqiy voqealar va vietnamliklarning tarixiy o‘tmishini to‘ldirib beruvchi dalillar sifatida qabul qilgan. U folkloarning tarqalganligi haqida shunday aytadi: “barcha, qora boshli bolalardan oq sochli qariyalargacha bu rivoyatlarni aytib yurishadi va ularni yaxshi ko‘rishadi”⁸. Shubhasizki, Vu Kuinning qo‘liga tushgan material bir necha bor qayta yozilgan va undan oldin va u tomonidan ham qayta ishlangan bo‘lgan, bu haqda u o‘zi ochiqdan-ochiq aytib o‘tadi.

“Linnam yurtining ajoyib rivoyatlari” kitobiga afsonaviy rivoyatlar, ertaklar, shuningdek, Xitoy zulmidan ozod bo‘lish davrigacha (ya’ni 939 - yilgacha) va undan keyingi davrda paydo bo‘lgan rivoyatlar kirgan.

Ko‘pgina rivoyatlar, afsonalar va ertaklar vaqtি qaysidir uzoq davr (“epik vaqt”) – Xung-viong yarim afsonaviy sulolasи hukmronlik qilgan davr bilan bog‘liq; hozirgi zamon tarixchilarи Xung hukmdorlari davrini eramizdan avvalgi II-I asr bilan belgilashadi.

⁸ Văn học dân gian các dân tộc – Ha noi, 1959. – Tr.320.

Xung hukmdorlari hukmronlik qilgan davri ilk Vietnam davlati vujudga kelishi davri bo‘lib hisoblanar edi⁹.

Xuong-vionglar davriga tegishli asarlar mazmun va unda tasvirlangan zamon jihatidan turli xildir. Asar Xung - vionglar asos solgan va hukmronlik qilgan qadimgi Vietnam davlati haqidagi rivoyat bilan boshlanadi. Rivoyatda qadimgi vietnamliklarning afsonaviy tasavvurlari va chet el bosqinchilari bilan kurashi to‘g‘risidagi xotiralari bilan o‘ralishib ketgan.

Lak Long Kuan – Hukmdor Ajdaho Lak (Lak – eng qadimgi Vietnamliklarning qabilasi lakvyetlar nomiga borib taqaladi) – afsonafiy personaj bo‘lib, “madaniy qahramon”, odamlarning ustozি rolini o‘tab kelgan. Hukmdor Ajdaho Lak guruchni o‘sirish va ipak qurtlarini boqishga xalqni o‘rgatib boradi (bu borada u boshqa xalqlarning “madaniy qahramoni” bilan o‘xshashdir), bundan tashqari, u keyingi davrlarda sinfiy qoidalarni o‘rnatgan degan ma’lumotlar ham mavjud. Xitoy bosqinchilariga qarshi kurash ham afsonaviy talqinda beriladi: “Shimol odamlari tomonidan siquvga olingan Janubiy o‘lkalar odamlari ilgaridagidek tinch-osoyishta yasholmas edilar” va Hukmdor Ajdarho Lakdan yordam so‘rab iltijo qila boshlaydilar. Ajnabiy bosqinchilar bilan kurash Hukmdor Ajdarho Lakning Au Ko ismli go‘zali uchun urush deb tasvirlanadi. Shunday qilib, rivoyatda ilk qahramonona epos yodgorliklariga xos bo‘lgan xotin uchun kurash motivi joy oladi. Biroq Hukmdor Ajdaho Lak dushmanlar bilan ajoyib tarzda kurashadi: u “yuz, o‘n minglab mahluqlar, vahshiy ruhlar, ajdaholar, ilonlar, yo‘lbarslar va fillarga” aylanib, bosqinchilarni qo‘rquvga soladi. Bu sahnada vietnamliklarning buddizmgacha bo‘lgan sig‘inishlarining alomatlari sezilib turar edi: “mahluqlar” va “vahshiy ruhlar” vetlarning

⁹ Никиulin Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.161.

himoyachilari sifatida namoyon bo‘la boshladilar¹⁰. Vietnamda X-XIII asrlarda va undan keyingi davrlarda ham “butparastlik” marosimlari saqlanib kelgan va ba’zan ta’qib qilingan.

Go‘zal Au Ko Hukmdor Ajdaho Lak bilan nikohidan “qop tug‘di”, olti-yetti kundan keyin “qop yorildi va u yerda yuzta tuxum bor edi, har bir tuxumdan bittadan o‘g‘il chiqdi”. Bu lakvyetlarning totemik tasavvurlari bilan bog‘liq va, ehtimol, bu totemlarning biri qush bo‘lgan. Yuzta o‘g‘il bo‘linib, tarqalishadi: birlari otasi bilan dengiz tomonga yo‘l olib, qolganlari onasi bilan qoladilar. Bu rivoyat Vietnamning tog‘li hududlarida yashaydigan Miong xalqi hikoyasi bilan o‘xshash va vietnamliklarning tili va madaniyatiga juda yaqindir¹¹.

Badiiy umumlashtirishning boshqa turini biz Fu Dong (Zyaunge) botiri haqidagi poetik hikoyada topishimiz mumkin. Fu Dong – epos qahramoni bo‘lib, rus dostoni Ilya Muromes botiri bilan taqqoslanishi mumkin. Fu Dong uch yoshida “gapishtishni bilmas edi, doim yotib, hech ko‘tarilmas edi” degan hikoyasi Ilya Muromesning “doim o‘tiraverardi” joyiga yaqindir. Bu ertakda demokratik xususiyatlar ham mavjud: hech narsaga yaramaydigan bolakay Fu Dong mamlakat boshiga tushgan xavf-xatar vaqtida botirlardek gapira boshlaydi. Fu Dong – qudrat va jasoratni gavdalantirgan yig‘ma obrazdir. Imperator tomonidan “samoviy shahzoda” unvonini olgan Fu Dong sharafiga X asrda yodgorlik sifatida ibodatxona (den) qurilgan bo‘lib, unga bag‘ishlab har yili sahnalashtirilgan teatr va qo‘shiqlar bilan bayram tantanalari o‘tkazilar edi¹².

Akaning xotini tufayli tortishib qolgan ikki aka-uka haqidagi hikoya ham Xung-vionglar davriga tegishlidir; nizo natijasida akasi toshga, ukasi esa palmaga aylanib qoladi. Palmani atrofini akaning

¹⁰ Литература и фольклор народов Востока. – М.: Наука, 1967. - С. 267.

¹¹ Мифология Вьетнама. (сравнительный анализ).- ТашГИВ,2007. - С. 25.

¹² Văn học dân gian các dân tộc – Ha noi, 1959. - Tr. 320.

xotini lianaga aylantirib, chirmab oladi. Bunday yakun hikoyani ibodatxona afsonasiga aylantiradi degan tahminlar mavjud. Madaniy qahramon xususiyatlariga ega hukmdor Xung obrazi bundan dalolat berib turadi: u birinchi bo‘lib betel o‘simpligini kashf etadi va uning amri bilan buyurilgan betelni chaynash odati kiritiladi.

Oltin toshbaqa yordamida qurilgan Koloa qasr-chig‘anoq, hukmdor qizi Mi Tyauning garovga olingan yigit Chaung Txyuiga bo‘lgan muhabbat haqidagi rivoyatlar Xuonglar davridan ancha keyin vujudga kelgan. Rivoyatdagi hukmdor-qaynota va hukmdor kuyovi o‘rtasidagi tortishuv haqida qadimgi ertak motivi, shuningdek, qirolichaning ikkiyoqlama holati hukmdor An Zionganing mag‘lubiyatini va davlatning halok bo‘lishini izohlab berish uchun ishlatiladi. Hikoyadagi mojarolar dramatizmga to‘la, chunki garovga olingan yigit barcha baxtsizliklarga sababchidir: u Mi Tyauni sevadi.

Vietnam folklorining ilk yozuvlarida eramizning I asrida Xitoy feodallariga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan Ching jangchi opa-singil to‘g‘risida rivoyat bor. O‘sha davrda Janubiy Sharqiy Osiyodagi ijtimoiy hayotida ayolning faol rolini yoritib berayotgan bu rivoyat tarixiy voqealarga asoslangan.

Vietnam folklori yozuvlarida o‘z aksini topgan qadimgi xalq rivoyatlari keyingi davr yozuvchilari uchun syujet va mavzularning bitmas-tuganmas manbasiga aylandi.

Vietnamning X-XII asrlar adabiyoti mamlakat o‘z istiqloliga erishgan va markazlashgan feodal davlatini ko‘rib bo‘layotgan sharoitlarda rivojlanadi.

Shu vaqtda Vietnamda buddalik dindorlarga tayangan zodagonlardan kelib chiqqan feodallar hukmronlik qilgan. XI asrda mahalliy ma‘budalar va hudo darajasigacha olib chiqilgan qahramonlar sharafiga qurilgan ibodatxonalar poytaxtga ko‘chirila boshlangan. Yangi ijtimoiy kuch – konfutsiy ta’limoti olimlari paydo

bo‘la boshlagan¹³. Poytaxtda konfutsialik ibodatxonasi tashkil topib (1070), konfutsialik bilim yurti ta’sis etilgan va unda taxt merosxo‘ri ta’lim olgan. XI-XII asrlarda ilmiy darajani olish uchun imtihonlar tizimi joriy etilib (1075), unda “buddalik ibodati, qadimgilarning she’rlarini qog‘ozda yozish va arifmeik masalalarni yechish” bilimlari tekshirilar edi. Shuningdek, farmoyishlarni tayyorlaydigan Akademiya (Xanlyam) ochilgan va u yerga imtihondan o‘tgan mansabdar shaxslarlar tayinlanar edi.

Konfutsialik va buddizm har doim ham tinch munosabatda bo‘lmas edi. Ko‘pincha konfutsialiklar buddalik monaxlarga hujum qilishgan. Chai sulolasi davrida buddalik ruhoniylar hokimiyatdan konfutsialik olimlar tomonidan chetlashtirilib borilgan.

X-XII asrlarda nafaqat adabiy asarlarni balki boshqa turdagи yozma (ular hammasi xanvanda yozilgan) yodgorliklarni topish mumkin: xronikalar va tarixiy yozuvlar, buddalik ruhoniylarning o‘quvchilarga yo‘naltirilgan nasihatlari, sarkardalarning murojaatnomalari, farmoyish va maktublari, buddalik ibodatxonalarning qo‘ng‘iroq (zang)lari va tosh ustunlari ustida yozilgan epigrafikalar. Bularning ba’zilari she’r shaklida bo‘lib, ularni yod olish oson bo‘lgan.

XII asr boshiga tegishli xanvan yozuvidagi epigrafika Vietnamdagи yozma yodgorliklar milliy negizlariga ega ekanligi, vietnam afsonalari va folklorining obraz va syujetlari hamda xalq madaniyati bilan bog‘liqligidan dalolat beradi. May Kong Ba tomonidan yaratilgan Doy pagodasining ustunidagi yozuv (1121) vyetlarning an’anaviy tantanalari va teatr sahnalarini o‘z ichiga oladi; bayram davomida vietnam afsonalari va folklorining qahramonlari

¹³ Литература и фольклор народов Востока. – М.: Наука, 1967. - С.267.

ishtirokidagi sahnalar qo‘yilar edi. Yozuvda qadimgi ma’buda – oltin toshbaqa, shuningdek, qushlar va kiyiklar eslatib o‘tiladi¹⁴.

XII asr boshidagi epigrafik yodgorliklar murakkab, sintetik shakl bo‘lib, o‘z ichida tarixiy, hayotiy nasr, diniy-falsafiy asarlar, badiiy parallel nasr, she’r va qo‘shiqqlarni qamrab olgan. Ustunlardagi yozuvlar ideal hukmdor, sarkarda va buddalik arborlarning obrazini rasmiy holatlarda va buyuk harakatlarda tasvirlangan. Odatda hayot haqidagi tasvirlarda buddalik diniy-falsafiy kirish qismi (“O‘n ming qismlar yagonaning erib bitishidir”) va biografiya va tarixga qiziqishga tayangan holda tarixiy shaxslarning u yoki bu faoliyati va qahramonligi haqidagi tasviriy qismi mavjud. Sarkarda Li Txiong Kietning (1019-1105) safdoshi Fan Bao xabar berishicha, mashhur sarkarda “o‘tkinchi dunyoning tashvishlariga tanasi bilan kirib ketgan, qalbi bilan esa Buddanining ta’limotiga intilgan” hamda uning rahnamoligida “askarlar uch uezdni va o‘n ikki qal’ani go‘yo daraxtlarning qurib ketgan shohlarini uzgandek qo‘lga kiritdilar”¹⁵.

Vietnam davlatchilagini mustahkamlaydigan va o‘z kuchlariga ishonchni ifodalaydigan pafosni Li Txay To hukmdori tomonidan 1010-yilda yozilgan “Poytaxtni ko‘chirib o‘tkazish haqidagi Farmoyish” (“Txien do teu”)¹⁶da uchratish mumkin.

Buyuk davlat g‘oyasi sarkarda Li Txiong Kietning she’rida ham ta’kidlab o‘tilgan. Rivoyatga ko‘ra, 1076-yilda Xitoy qo‘shinlari bilan jang oldidan u Dayvyet (Vietnam) qo‘shiniga to‘rt satrlik she’r orqali murojaat qilgan (“Poytaxtni ko‘chirib o‘tkazish haqidagi Farmoyish” stiliga yaqindir):

*Saltanat tog ‘lari va daryolari
Janub hukmdorining mulkidir.*

¹⁴ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.132.

¹⁵ O’sha manba. - B.144.

¹⁶ Hozirgi vaqtdagi Hanoy o‘rniga

*Samoviy kitobda chegara, podsholikning
har qanday makoni belgilangan.
Ey, dushmanlar, bizning hududga
bostirib kirishga qanday jur'at etdingiz?
Sizlarni mag 'lubiyat kutmoqda,
Chaqirilmaganlarning ahvoli voy bo 'ladi.
(rus tiliga A.Revich tarjimasi)*

She'rning ritmi orqali qat'iy sarkarda vatanparvarlikni, osmon irodasini buzgan keyin esa jazoga uchraydigan dushmanga nisbatan nafratini ifodalagan. Konfutsialik "osmon amri" she'rda daoslik obraziga xos "osmon kitobi" bilan almashtirilgan.

Boshqa falsafiy-hayajonli, o'ziga xos majoziy stilga ega buddalik ruhoniylarning she'rlarini keltirish mumkin: ularda tabiatni go'zalligi va inson borlig'inining o'tkinchi dunyosi haqidagi fikrlar tasvirlangan. Xitoy zulmidan qutilgandan keyingi birinchi asrlarda Vietnam hukmdorlari buddalik cherkovining obro'siga tayanib kelganlar, chunki qarshilik ko'rsatmaslik va nirvanaga erishish yo'lida barcha narsadan voz kechish (asketizm)ga da'vat qilish feodallar uchun juda qulay bo'lgan. Hukmdor Li Nyan Tong (1066 – 1128) ruhoni Van Xan haqida shunday yozadi: "U poytaxtda o'z hassasini qo'yganda, davlatning mustahkamligi yer yuzida yanada sobit bo'ldi".

Dunyoning o'tkinchi ekanligini va'z qilib, buddalik ruhoniylar o'z she'r-nasihatlari (nasihatlarning o'ziga xos she'riy rezyumesi)da falsafiy tushunchalarning tasviriy-tasavvuriy aniqlovchilarini qo'llar edilar, chunki aynan shu aniqlashlar orqali haqiqatga erishish mumkin edi. Shoir-monax o'z maqsadini o'rgatishda, nasihat qilishda ko'rар edi. Monax Van Xanning (XI asr) she'ri "Itoatlilarga nasihat" ("Txi de ti") deb nomlanadi.

*Chaqmoq kabi foniy jism,
Bir lahza-yu – va undan iz ham qolmaydi.*

*Bahorda yashnagan o‘tlar shu’lasi,
 Kuzda yana so ‘lib borar.
 Taqdir bizga parvoz va qulashni yuborar,
 Ularni dadil bo ‘lib qabul ayla.
 O‘tlardagi shabnam kabi
 Har bir gullah va so ‘nish.*
(rus tiliga Ark.Shteynberg tarjimasi) ¹⁷

Borliqning hayoliy bo‘lganligiga ishora qiluvchi o‘tdagi shudring tasviri Hindistondan kirib kelganini aytish mumkin, biroq, boshqa vositachilar orqali ham kelish ehtimoli bor. Bu tasvirni biz ko‘plab Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining she’riyatida uchratamiz.

O‘sha vaqtarda nirvana, foydasiz va behuda ishlar haqida ko‘plab she’r-nasihatlar yaratilgan edi. Hozirgi zamon adabiyotshunos Din Za Kxanning hisoblariga ko‘ra, Li sulolasи davri yaratilgan asarlarning eng mashhur mualliflari buddalik ruhoniylar bo‘lgan¹⁸. Asarlardagi do‘zah, g‘arbiy jannat haqidagi tantra g‘oyalariga ishonmaslik va boshqa “vulgar” buddizm bilan bog‘liq narsalarning yo‘qligi o‘sha davrda Vietnamda buddalik falsafa juda keng tarqalganligidan dalolat beradi. X va XI asrlar o‘rtasida yaratilgan ilk vietnam she’rlarining birida buddalik monax Ngo Tyan Liu (959 – 1011) qadimgi Xitoy ta’limoti haqida shunday deydi:

*Daraxt o ‘z ichida olovni mahfiy saqlaydi,
 Ko ‘p martda ichidan paydo bo ‘ladi.
 Daraxtda olov yo ‘qligi qanday tasdiqlansin?
 Daraxtni bir biriga ishqala, darrov olov alanga oladi.*
(rus tiliga Ark.Shteynberg tarjimasi)¹⁹

¹⁷ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.150.

¹⁸ История всемирной литературы.. М., Hayka, 1989

¹⁹ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX

Diniy dunyoqarash bilan yaqin munosabatda bo‘lib, buddaliklarning she’riyatida barcha narsani “dunyoviy lashtirish”ga intilish seziladi, shoir-monax bo‘lishiga qaramasdan, targ‘ibotchi o‘rniga muallif obrazi paydo bo‘ladi. Uning ma’naviy dunyosi she’rlarda o‘z aksini topadi va hissiyotlar, lirk manzaralar bilan birgalikda buddalik g‘oyalarni ifodalaydi. XI asrning ikkinchi yarmida ibodatxonalarda nafaqat o‘tkinchi dunyo haqida she’rlar yaratilgan edi. Ruhoniy Man Znakning (1051 – 1096) “Dardga chalingan barchaga murojaat qilaman” (“Kao tat kxi tyung”) she’rida hayotga bo‘lgan muhabbatni, nozik lirizmni uchratamiz:

*Bahorlar o‘tar, yuzlab gullar to‘kilar,
Yuzlab gullar yangi bahor bilan ochilar.
Dunyo ishlari ko‘z o‘ngidan o‘tib borar,
O‘tmishning izi oq sochga aylanar.
Bahor qaytmas bo‘lib ketdi deb, ta‘kidlama,
May shohchasi yana gullar oldimda.*

(rus tiliga A.Revich tarjimasi)²⁰

XI asr oxiri – XII asr boshida tabiat tasvirlari diniy mazmun bilan bog‘liq bo‘lgan ramzlar va tropalardan tashqari inson hayotidagi kundalik tasvirlarni ifodalay boshlaydi. Ruhoniy Kxong Lo yaratgan satrlarda shunday deyiladi:

*Baliqchi uyquga ketdi – uni hech kim chaqirmaydi,
Peshindan keyin uyg‘ondi – qayig‘i qorga to‘lib bo‘libdi.*

Uning “Tuyg‘ularni ifodalayman” (“Ngon xoay”) deb nomlangan she’rining oxirgi satrida insonning kuchiga paydo bo‘layotgan ishonchni, hayotdagi faollik prinsipini ko‘ramiz:

Kun bo‘yi tog‘dagi kulbada taskin topaman,

вв., М., Hayka. 1989. - С.154.

²⁰ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.161.

*quvonchim mani judayam sodda. Gohida
yakka qoya cho 'qqisidan
uzoq chinqirib olaman.
Ulkan osmonlar sokinligi
bu chinqirishdan muzlab ketadi.*

(rus tiliga Ark.Shteynberg tarjimasi)

Buddalik ruhoni Kuan Ngiem (1121–1190) buddalik g‘oyalarni inkor qilish uchun she’rlarga murojaat qiladi va Kxong Lo kabi hayotning qudratli nafasini sezib, she’riy motivlarni ta’kidlaydi:

*Osmonga intilar haqiqiy erkak (er)
Har bir dil hayajoni bilan.
Shart emas unga
Buddaning izida izma-iz borish.*

(rus tiliga Ark.Shteynberg tarjimasi)²¹

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Dongshon madaniyati davrida |Vietnamda adabiyot qanday tus olgan?
2. Vietnam qadimgi folklori haqida nimalar bilasiz?
3. X-XII asrda Vietnam adabiyotining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
4. X-XII asrda yaratilgan she’rlarning g‘oyaviy mazmuni qanday aks ettiriladi?

²¹ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.161.

Sharqiy va Janubi- Sharqiy Osiyo xalqlari adabiyotining vietnam adabiyotiga ta'siri

Darsning maqsadi: Talabalar tasavvurida Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari adabiyoti va uning vietnam adabiyotiga ta'siri haqida amaliy tushuncha hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: motiv, tions, doston, poema, folklor, chuyen, obraz, janr.

Saroylarda o‘z ravnaqini topgan XI – XII asrlarda keng rivojlangan qo‘sish (qo‘sish) madaniyati haqida bilvosita dalillar bizgacha yetib kelgan. Dabdabali sahnalashtirilgan namoyishlar saroy huzurida tashkil qilinib, bu haqda Doy pagodasi ustunida yozuvlar saqlanib qolgan. Jumladan: “Foniy dunyoga tushgan samo ahli qatorlarga saflanishdi va hukmdor qahramonliklarini sharaflab, atrofni jarangli qo‘sishlar bilan to‘ldirishdi. Lotosdan yasalgan sahnada go‘zallar bir tebranib, bir raqsga tushib paydo bo‘lishdi”²². O‘sha davrda suv ustida qo‘g‘irchoqlar teatri ham bo‘lgan (sahna sifatida basseyн yoki hovuz sathi xizmat qilar edi, shunday hovuzlar hanuzgacha ibodatxonalarda mavjud). Afsonalar va rivoyatlar syujetlariga bag‘ishlangan sahnalar namoyish etildi.

X – XII asrlar vietnam adabiyotini adabiyotga oid bo‘lmagan (adabiyot vazifalaridan tashqarida bo‘lgan) janrlarning ustinligi bilan ilk o‘rta asr adabiyoti sifatida, asosan dunyoviy bo‘lmagan deb tavsiflash mumkin. X – XII asrlarda o‘rta asr vietnam adabiyotining ilk bosqichida – keyingi davrlarda o‘z rivojini topgan o‘ziga xos va o‘z qimmatiga ega nihollar paydo bo‘la boshlagan²³.

Vietnamda XVI asrning oxirida feodallar guruhlari o‘rtasidagi qonli janjal-tortishuvlar Le sulolasining (1428-yildan beri hukmdorlik

²² Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. С.169.

²³ O‘sha manba. -C.169.

qilgan) vorisi taxtda tiklanishi bilan yakunlandi. Tortishuvlar og‘ir merosi hamon qolgan edi: imperator nomiga hukmdor bo‘lib kelar edi, asl hokimiyat Chin oilasi qo‘lida bo‘lib, parallel sulolaga aylandi va o‘z shaxsiy saroyiga ega bo‘ldi. Ularning hokimiyati davlatning yarmigacha tarqalgan edi. Dongxoy yerlaridan janubda o‘z davlatini barpo etgan Nguyenlar sulolasi qo‘lga kiritgan edi. 1627-yilda Chin sulolasi janubiy yerlarni bosib olish natijasida yarim asrlik urush boshlandi.

XVI asr o‘rtalaridagi buyuk geografik kashfiyotlar davri Vietnam qirg‘oqlarida portugal kemalarining, uning yerida esa – katolik missionerlar (targ‘ibchilar)ning paydo bo‘lishi bilan ta’riflanadi. XVII asrda yevropaliklar bilan savdo munosabatlari yo‘lga qo‘yila boshlaydi, buning natijasida ichki bozor rivojlanib, dengiz bo‘yi shaharlarning o‘sishi yuzaga keladi. Shu asrning birinchi choragida Vietnamda missionerlik harakati avj oladi. Xristianlikni targ‘ib qilish maqsadida, XVII asrning 20-yillarida ular vietnam tilining lotin alifbosini tuzishadi. Ehtimol, bu jarayonda “Vietnam cherkovining otasi” degan nom olgan, 1651-yilda Rimda nashr etilgan Vietnam-lotin-portugal lug‘atining muallifi Aleksandr de Rode ishtirok etgan. Missionerlar hamda dinga endi kirgan vietnamliklar sa’yi-harakatlari bilan xristianlik diniy kitoblar tarjima qilingan. Missionerlarning ba’zilari ilm-fan va kasblar sohasida bilimlarga ega bo‘lgan edilar. Mahalliy aholining xayrixohligini va hukmdorlarning hurmatini qozonish uchun, ular nafaqat xristianlikni targ‘ib qilishgan, balki tabiblik, ustachilik, mexaniklar va matematiklar sifatida faoliyat yurgazishgan. Ma’lumki, Aleksandr de Rode Chin knyaziga xitoy tilidagi astronomiya kitobi va astronomiya asboblarini hadya etgan. Umuman olganda, missionerlar Vietnamga Uyg‘onish davrini emas, balki O‘rta asrlar davrini, Shekspirni emas, balki liturgiya shaklidagi drammani, ilm-fanni emas, balki xristianlik qoida (dogmalar)ni olib kirdilar. Ustiga ustak iezuitlar (Portugaliya tarafдорлари) va fransiyalik

missionerlar o‘rtasida “butparastlarga” xristianlik axloqni namoyon qilgan adovat avj oldi.

Vietnamda yevropalik madaniyat bilan tanishuv o‘sha davrda asosan nodunyoviy tusga ega edi. Vietnam o‘rta asr madaniyati an’anaviy tarzda Xitoy bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z doirasidan chiqmagan holatda qolib ketdi. Lotin alifbosiga o‘tkazilgan yozuv faqatgina katolik cherkov tomonidan foydalangan, mahalliy shoirlar esa tin ieroglyphlarini qo‘llashar edi.

Adabiyot ilgaridek ikki tilda – vietnam va xanvan (venyan xitoy adabiy tilining vietnamlashgan varianti) tillarida rivojlanib bordi. XVII asrning ikkinchi yarmida vietnam tilidagi adabiyotga rasmiy munosabat o‘zgara boshladi. Qo‘sishchi va dostonchi (keve va xatsam)lar ko‘magi hamda ko‘plab bosmaxonalar tomonidan bosilib chiqilgan ksilografik nashrlar yordamida vietnam adabiyoti qiyofasi o‘zgara boshladi, demokratlashtirilib, pastki qatlamlarga o‘z ta’siri kuchaytirdi. Shu vaqtdan boshlab adabiyot ta’qib qilina boshladi. Knyaz Chin Tak (1657 – 1682) boshqaruvida vietnam tilidagi kitoblarni yoqib tashlash haqidagi farmoyish chiqarildi, 1663-yilda uning “Qirq yetti nasihat” e’lon qilinib, ularning o‘ttiz beshinchisida shunday deyilgan: “Knyaz saroyining hukmdorlari mansabdor shaxslar va oddiy xalqqa ma’lum qiladilar: hayotda insonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydigan kitoblarnigina nashr etishga ruxsat beriladi. Bema’ni odamlar qadim zamondan “Ti nom” tilida yozilgan kitoblarni ularni o‘qish kerakmi kerakmasmi deb o‘ylamasdan, yig‘ishgan, boylik orttirish uchun ularni nashr qilishgan. Endi bu holat ta’qiqlanadi. Bundan buyon qaysi uylarda bu kitoblar saqlanishidan qat’iy nazar, ular musodara qilinadi va yoqib tashlanadi”. Saroyning bu qat’iy qarorida shubhalanishga endi asos yo‘q, endi haqiqatda kitob inkvizitsiyasi gulxanlari lovillab yonadi²⁴.

²⁴ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX

Shu sababdan ham shu kungacha yetib kelgan XVII asr Vietnam adabiyoti haqidagi ma'lumotlar juda oz degan farazlar mavjud.

XVI asrdan keyin mustahkamlanib borayotgan hokimiyat madaniyat sohasida ham o'z nazoratini kuchaytirishga harakat qilgan. Adabiyotda yana me'yorlashish tendensiyasi sezila boshladi. Shoir va knyaz Chin Kan (1709-yilda vafot etgan) o'z she'rlarining maqsadiga shunday ta'rif beradi: "Xalqni to'g'ri yo'lga boshlash uchun Samo oldida bosh egaman, hikmat so'zlarini tilga olaman va pastda turganlarga aql o'rgataman". Biroq adabiyotni qattiq nasihat (didaktik) chegarada ushlab turish mushkul edi, shuning uchun jazolash choralar boshlangan. XVII asr adabiyoti folklorega juda ham yaqin bo'lganligi sababli hokimiyatning salbiy munosabatini qo'zg'otib yubordi: folklor ilgaridek faqat syujetlar o'zlashtirilishida emas, balki yangi adabiy janr (doston (poema))lar shakllanishida muhim rol o'ynadi. Aynan shunday asarlarda ma'lum darajada insonning ichki dunyosi aks ettirildi; kundalik hayotdan, ba'zan hajviyaviy, kulgili sahnalar paydo bo'la boshladi.

Demokratlashtirish tendensiyasi va shu bilan bog'liq bo'lgan vietnam adabiyotining o'ziga xosligini chuqurlashishi konservativ lirika bilan yonma-yon turar edi. Xanvandagi she'riyat Xitoyning Tan davri she'riyat qonunlariga ongli ravishda taqlid qilgan. Bu borada Shoir Fung Kxak Kxoan (1528 – 1613) quyidagicha maslahat bergen: "Agar sizlar, o'quvchilar, she'r yaratishni uddasidan chiqmoqchi bo'lsangiz, qadimgilarni namuna qilib olib, ularning ketidan izma-iz bormog'ingiz lozim bo'ladi". Bu konservativ tendensiya xitoy she'riyatidan o'zlashtirilgan sitatalardan she'r yozish – tanko (qadimiy narsalarni yig'ish) uslubida o'z ifodasini topadi. Shu uslubda Fung Kxak Kxoan ham ijod qilib, bir vaqtning o'zida u vietnam tilidagi doston (poema)ni ham yaratadi. Bunday ikki yoqlama ijodning

sabablarini feodal Vietnamdagi amaldorlarning o‘ziga hos bo‘lgan holati bilan bog‘lash mumkin. Xitoyga elchi sifatida borgan taniqli davlat arbobi Fung Kxak Kxoan katta hurmatga ega bo‘lishiga qaramasdan, jamiyatning a’zosi sifatida boshqa madaniyat va til vaziyatiga kirgan edi.

XVII asrda xanvanda yozilgan kichik shakldagi she’riyat ilgaridagi “vaqtni behuda o‘kazish” motivlaridan uzoqlashdi. Shoir Nguyen Fa-ung (1550 – 1633) feodal tortishuvlardan chetda bo‘lgan holda yolg‘izlikdagi hayotni ideallashtirib, tabiatni, tog‘larni sevishi haqida she’rlar yaratadi, chunki u yerda “bulutlarga yaqin, insonlarning tashvishlaridan uzoq” deb hisoblaydi. Chinen knyazlari hokimiyatining tarafdori bo‘lib qolganida, uning she’riyatida fuqarolik motivlar, faol obrazlar paydo bo‘ldi.

Xanvandagi she’riyat milliy chegaralardan oshib o‘tib, Xitoy va Koreyada ma’lum darajada mashhur bo‘lgan vietnam adabiyotining bir qismi bo‘lgan. Vietnamlik elchilar, ko‘pincha o‘tkir shoirlar bo‘lib, Xitoyga qilgan safarlari chog‘ida xitoy saroyi ahli va koreys elchilar bilan she’rlar bilan almashib turar edilar. Koreyalik elchi, shoir, Sir-xak (Haqiqiy bilim) harakati asoschisi Li Sugvan, masalan, Fung Kxak Kxoanning (1597) she’rlari to‘plamiga muqaddima yozadi. Adabiyotda ko‘zga ko‘rinar mavqeni bir vazndagi (bir maqomli) nasr egallaydi. Keu-doy – ikkita parallel jumladan iborat miniatyuralar mashhur bo‘lgan. Keu-doy kuldiradi, nasihat qiladi, ba’zan ochiq dadil chaqiradi. Keu-doy “fursat bilan” yozilar edi. Odatda, suhbатdoshning zehni, bilimi va adabiyotga bo‘lgan sevgi-muhabbatini sinash uchun unga birinchi iborani taklif qilishadi va u ikkinchi iborani yozishini kutishgan. Kalligrafik yozilgan keu-doylar Vietnam qishloqlarining jamoa uylarini, toshdan yasalgan arka (ravoqlarni, ibodatxona va pagodalarni bezab turgan. Bu yozuvlar

Vietnam, shuningdek, Xitoy, Koreya va Yaponiya hayotiga chuqur kirib bordi²⁵.

Vaznli nasrda yozilgan doston (poema)lar – **Fu** mualliflari tabiat manzaralarini, ibodatxona va saroylarni tasvirlaydilar. Poemalar ma'lum bir kayfiyat, xayol surishlar bilan ajralib turadi. Fu shaklida yaratilgan asarlarning ilk namunalaridan farqli bu doston (poema)larda she'riy parchalar yo'qligi va doimiy tasviriy tavsiflar bilan ajralib turadi: “Pagoda xuddi oltin saroydek, xuddi uchishga tayyor bo'lgan qushdek” (Nguyen Dang, 1576).

Xanvanda yozilgan novellalar janrida (XVII asrda novella janrini eng sara namunalarini Nguyen Zi yaratgan) to'xtab qolish kuzatilar edi. XVII asr o'rtalarida Nguyen Ziga taqlid qilib Nguyen Nam Kim “ajoyib qissalar” yozadi, ularda kundalik voqealar bemalol fantastik tasvirlar bilan ulanib ketadi, bundan tashqari, bu qissalarda didaktik yo'naliш aniq ko'rinish turadi. Biroq, Nguyen Nam Kimning boshqa novellalarida ilk an'analar ustun keladi: buddalik hayotiy janrda ruhoniш va shoir Xyuen Kuang (1254 – 1334) haqidagi hikoyada ertak motivlarini (inson yovuz ruhga aylantiriladi va yo'lbars qiyofasiga kiradi) uchratishimiz mumkin. Muallif o'z asarlarini o'zidan oldingi an'analar bilan bog'liqligini tasdiqlab, Vu Kuin va Kisu Fularning “Linnam yerlarining ajoyib hikoyalari” (XV asr) kitobiga qo'shimchalar sifatida qo'shib qo'ygan.

Xanvandagi hikoyaviy nasrda ma'lum darajadagi inqiroz vietnam tilidagi doston (poema)lar janrining rivojlanishi bilan to'ldirilgan. XVII asr adabiyotida ko'proq she'riy shakllar joy olgan edi. Vietnam adabiyotida doston (poema)lar mavjudligi boshqa Uzoq Sharq adabiyotlaridan ajratib turadi. Shu nuqtai nazardan vietnamliklar Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari: Laos, Kampuchiya, Tailand adabiyotlari bilan juda yaqindir; Vietnamning o'zida dostonlar kabi

²⁵ История всемирной литературы.. М., Hayka, 1989

xalq doston (poema)lari vietnamliklar qardosh mionglar, taylor va nunglarda mashhur bo‘lgan.

Syujetli hikoya qilishni o‘z ichiga olgan xalq qo‘shiqlari vyetlarda qadimdan rivojlanib kelgan. XVI asrning ikkinchi yarmidan bu an’ananing ta’siri adabiyotga ham sezilib turgan – doston (poema) janri ichida boshqa turlar paydo bo‘ldi: muhabbat-turmush hikoyaviy doston (poema)si – chuyen (xitoycha ”chjuan” – hayot haqida hikoya, bayon qilish), unda kompozitsion fabulasi negizida falsafiy-lirik, keyinroq tarixiy-epik asoslar joy olgan.

Hikoyaviy doston (poema) janri adabiyotga “xalq kitoblari” shaklidagi asarlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu asarlar xalq qo‘shiqlaridan *lyukbat* she’riy shaklni (oxirida va ichki qofiyaga ega bo‘lgan olti va sakkiz satrli ikki misra), folkloridan esa – syujet va obrazlarni o‘zlashtirib olgan. Ilk chuyenlardan juda ozi qolgan, lekin XVII asrning chuyenlari shu kunga qadar saqlanib qolgan. XVI asrning tarixiy shaxslar haqida hikoya qiluvchi “Knyaz Txao haqida qadimiyl hikoya” (“Tyua Txao ko chuyen”) va “Nin hukmdori haqida qadimiyl hikoya” (“Tyua Nin ko chuyen”)lar shu davrda shakllanganligi tahmin qilinadi.

Missionerlar orqali *chuyen* janriga bibliyaviy syujetlar kira boshlaydi. Bibliyaviy mavzuda yaratilgan chuyen muallifi Shimoliy Vietnam hukmdorining xristianlikka kirgan va Yekaterina ismini olgan opasi bo‘lgan.

XVII asr (ba’zan XVI asr) bilan noma’lum mualliflarning uchta chuyenlarini bog‘lashadi – “Vieng Tiong”, “Knyaz To elchilik xizmatida” (“To kong funt shi”), “O‘rmonlar va buloqlar orasidagi ajoyib uchrashuv” (“Lam tuyen ki ngo”). Ular kompozitsion jihatdan sakkiz va to‘rt misralik yagona syujet bilan bog‘liq she’rlar bilan ajralib turadi. Ushbu doston (poema)lar mualliflari folklorga juda yaqin bo‘lgan xitoy syujetlariga murojaat qilishadi, ehtimol, bu asl

vietnam doston (poema)lari bilan ularni bog‘lab turadi²⁶. Hikoya tarzida bayon qilishning yetarli darajada rivojlanmaganligi chuyenlarga o‘ziga xos xususiyatni berib turar edi. Lirikaga oid kichik she’riy shakllarni qo‘llanilishi syujetni bir necha qismlarga parchalanishiga olib kelgan: har bir sakkiz misralik parcha o‘z sarlavhasiga ega bo‘lib, mavzuni ma’lum bir qismini ochib beradi, syujetning harakatlanishi sekinlashadi va asosiy urg‘u manzarani va qahramonlarning ruhiy dunyosini tasvirlashga berilgan edi. “O‘rmonlar va buloqlar orasidagi ajoyib uchrashuv” doston (poema) sida sakkiz misralik she’rlarning deyarli uchdan bir qismida u yoki bu personaj “o‘z tuyg‘ularini sinaydi”, “shikoyatlar va ta’nalar bilan murojaat qiladi”, “shikoyalar va noroziliklarni bayon qiladi” va h.k. Tashqaridagi harakatlanishga deyarli e’tibor berilmaydi, ehtimol fabula o‘quvchiga ma’lum deb tahmin qilinadi.

O‘zlashtirilgan syujetlarga yozilgan chuyenlar Xitoy manbalaridan nafaqat she’riy shakllari bilan balki o‘zgartirilgan fabula, umumiyo‘naltirilish va obrazlarning talqini bilan ajraladi. Xitoylik prototiplarga ko‘ra bu chuyenlarning qahramonlari ideallashtirilgan bo‘lib, o‘z harakatlari va fikrlari o‘ta sofligi (chinligi) va xis tuyg‘ulari o‘ta chuqurligi bilan farqlanadilar.

“Viong Tiong” doston (poema)sida Yuan-di (eramizdan avvalgi 48 – 33y.) Xan imperatorining joriyasi va 1-gunnlar hukmdoriga xotinlikka berilgan Van Chjao-szyun haqidagi xitoy rivoyati asos qilib olinadi. Vietnam doston (poema)sida asosiy urg‘u axloqiy baholarga qo‘yilib, mamlakatning gullab-yashnashi va tinchligi uchun o‘zini qurban qilgan ayolning tuyg‘ulari va fikrlarining yuksalib borishiga alohida e’tibor beriladi. Poemaning yakuni afsonadan farqlidir. Rivoyatga ko‘ra, Van Chjao-szyun gunnlar hukmdorining xotini bo‘ladi, uning o‘limidan keyin uning o‘g‘liga turmushga chiqadi.

²⁶ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. С.169.

Poemada esa u Yuan-di imperatoriga vafodor qolib, gunnlar knyazi chodirida o‘zini o‘ldiradi, bu konfutsialik namunaviy xotin idealiga to‘g‘ri keladi.

“Knyaz To elchilik xizmatida” doston (poema)si gunnlar hukmdori oldiga yuborilgan va uning amriga ko‘ra qo‘ylar podasini boqib yurgan Su U haqidagi afsonaga asoslanadi. Poemada hukmdoriga va burchiga sadoqatini saqlab, barcha mashaqqatlarga tayyor bo‘lgan amaldor tasvirlangan.

“O‘rmonlar va buloqlar orasidagi ajoyib uchrashuv” doston (poema)si syujeti tan novellasi bilan bog‘liq, biroq tan novellasidan vietnam doston (poema)si ancha farqli. Poemada osmon ahlisidan bo‘lmish bir qiz (novellada – bu qiz maymun bo‘ladi va ayolga aylanadi) va yosh o‘quvchi-yigit muhabbatini tasvirlanadi. O‘z koshonasiga qaytgan osmon yashovchisi sevgilisini sog‘inadi va uning oldiga qaytishga intiladi: u uchun yerdagi baxt samodagi rohatdan afzalroq.

XVII asrda paydo bo‘lgan tarixiy-epik doston (poema) janri konfutsialik didaktikaga ko‘proq moyil bo‘lgan. Muallifi noma’lum bo‘lgan “Samoviy Janubning yorug‘ namunalari” (“Txien Nam min ziam”, XVII asr o‘rtalari) doston (poema)si Vietnam tarixinining qadimiy afsonalar davridan boshlab bayon qiladi. Keyingi davr doston (poema)si “Bema’ni Janub Kitobi” (“Txien nam ngó ngắn”, XVII - XVIII asrlar mobaynida) folklor asoslari ko‘proq tayanib, mamlakatning butun tarixini qamrab olishga harakat qiladi. Hajm jihatidan vietnam adabiyotida eng katta doston (poema)sida sakkiz ming lyukbat satrlari va qo‘shimcha she’rlar: ikkitasi – vietnam tilida, o‘ttiz bittasi – xanvan tilida mavjud. Poemaning muallifi noma’lum, ba’zi satrlardan ushbu doston (poema) knyazning buyrug‘iga binoan yaratilganini tushunish mumkin. “Hurmat ila buyruqqa itoat qilib, sodda xalq tilida yozmoqdamon”, - deydi o‘zini oqlab shoir, chunki vietnam tilida yozilgan adabiyot ta’qibga uchragan. Muallif

ta'kidlaydiki, “ushbu hikoya faqat uyda o‘qish uchun” mo‘ljallangan, ya’ni bu hikoya rasmiy emas, saroy tarixchilarining asarlaridan farq qiladi. Muallifning aytishicha, doston (poema)ga ko‘plab “solnomalar hamda og‘zaki rivoyatlar” kiritilgan. Poemaning kompozitsiyasida xronikalarning faqat tashqi tuzilmasi saqlanib qolgan: material sulolalar va hukmdorlar ketma-ketligi bo‘yicha qo‘yilgan, biroq voqealar ma’lum bir yilga aniq bog‘liqligiga rioya qilinmagan. Afsonaviy va tarixiy shaxslar haqidagi poetik qissalar she’rlarda ifodalangan vietnamning tarixini bayon qiladi. Tarix konsepsiysi xronikalardan o‘zlashtirilgan bo‘lib, konfutsialik konsepsiyanidan olinganligi ma’lum bo‘ladi: doston (poema)da tarixiy voqealarni, sulolalarning ravnaqi va inqirozi, qahramonlarning g‘alaba va mag‘lubiyatlarini oldindan belgilab beruvchi “samolar yo‘li” ko‘p marta tilga olinadi. Shunga qaramasdan, shoir ta’kidlaydiki, hukmdor “samolar amrini” bajarishga intilganda “xalq qalbini”, ya’ni oddiy xalq kayfiyatini ulug‘lashi lozim²⁷.

Muallif e’tibori siyosiy tarix – sulolalar va hukmdorlar almashib borishidan ko‘pincha xalq epik va ertak motivlariga, afsonalarga o‘tgan. Buning natijasida qadimgi syujet va motivlarning muayyan “modernizatsiyasi” ro‘y berib, anaxronizmlar paydo bo‘la boshlagan. Shoirning diqqat markazida etik masalalar ham o‘rin olgan. “Kitob” dagi lavhalarni uchta guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchidan, bu folklor syujetlariga asoslangan lavhalar – ilk Vietnam davlatining paydo bo‘lishi, Xung afsonaviy hukmdorlarining taxtga kelishi, shuningdek, ilk vyet davlatlarining va Xitoy zulmi davlarini qamrab oladi. Bu yerda vyetlar (lakvetlar)ning birinchi ajdodi va ustozи Hukmdor Ajdaho Lak (Lak Laung Kuan), epik botirlar Fu Dong va Li Ong Chauig, jangchi opa-singillar Ching Chak va Ching Ni va boshqalar haqidagi hikoyalar keltirilgan. Tarixiy

²⁷ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. С.169.

asarlardan farqli ravishda doston (poema)dagi lavhalar xalq-epik kompozitsiyasi asosida quriladi, obrazlar murakkab va hayotiy bo‘lib ko‘rinadi. Temir otga mingan va qo‘lidagi temir qilich bilan In davlatining qo‘sishinlarini qochib ketishiga majburlagan Fu Dong haqidagi hikoyada epik qahramonga xos giperbolizatsiya (mubolag‘a) alomatlarini ko‘ramiz: qahramon uchun temir otni va qurolni taqachilarning taqasidek qoqgan, unga ularni “o‘n martalab o‘n minglab fil va otlar” yetkazib borgan, botir “teppaga tortilib, bo‘yi o‘n chiongdan ko‘proq bo‘ldi” (ya’ni 40 m.dan ortiq), botirni ko‘rganda dushmanlar “jo‘jalardek qo‘rqib ketishdi” va h.k. Fu Dong obraziga qarama-qarshi obraz bu uning onasi. U ko‘ngilchang beva (“Samoviy Janub kitobida” ayollar obrazining aksariyati – bevalar), savdo bilan shug‘ullanadi (“oylab va kunlab savdo qiladi, barcha narsaga o‘zi qaraydi”), buddalikni tarafdori. Kitobiy va folklor an’analarni muallifning hayotiy tajribasi bilan uyg‘unlashib bir-biriga aralashib ketishi doston (poema) uchun juda xosdir.

Ikkinchchi guruh diniy-fantastik lavhalardan iborat; monax va sehrgar Ti Dao Xan haqida hikoyalari, XV asr islohotchisi ajdodi Xo Kuy Li to‘g‘risida rivoyat. Bu hikoyalari ertaklar bilan bog‘liq. Xo Kuy Li ajdodi – to‘qqiz dumli tulki qiyofasidagi mahluq (xitoy folkloridan o‘zlashtirilgan obraz) hiyla bilan yo‘lbarsni aldaydi, odamga aylanib, Budda huzurida yashaydi. Budda G‘arb Malikasi huzuriga bayramga ketganida, u uydagiga barcha tovuqlarni tutib, ularni yeydi, shuning uchun tulkiga aylantiriladi. Hikoya ertaklar motiviga asoslanib tuzilgan bo‘lib, Budda ertakdagi sehrgar rolini o‘taydi (Vietnam ertaklari Buddasidek), afsonaviy personajlar bilan yonmayon yashab keladi. Madaniyatlarning aralashib ketishi va diniy sinkretizm qadimgi Vietnam uchun o‘ziga xos xususiyatlardan biridir²⁸.

²⁸ История всемирной литературы.. М., Hayka, 1989

Uchinchi guruhga tarixiy shaxslar – hukmdorlar, sarkardalar va qahramonlar haqidagi she’riy hikoyalar kiritilgan. Bu obrazlar folklorning ma’lum darajadagi ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, doston (poema)da o‘ziga xos ta’lqinga ega. Avval noma’lum bo‘lgan, keyinchalik taxtni egallagan yigit Din Bo Lin (X asr) haqidagi hikoyada kundalik hayot lavhalari qahramonona harakatlar bilan o‘ralashib ketadi. O‘z tengdoshlari bilan o‘yinlar vaqtida “hukmdor” qilib saylangan kichkina Lin “qo‘l ostidagilarni” beva onasining qimmatbaho mol-mulki bo‘lmish cho‘chqa go‘shti bilan siylaydi. Onasi qaytib kelganda, qo‘shni ayol uni “ona-qirolicha” deb turib, bu haqda ichi qoralik bilan xabar beradi. Din Bo Lin jasorati epik giperbolizatsiya (mubolag‘a) ruhida tasvirlanadi:

*Qal’alarni qo‘lga kiritdi – huddi polizda ko‘kat uzgandek,
Bamisoli qudratli yo‘lbars echkilar podasiga tashlangandek.*

Vetnam hukmdorlari qatori doston (poema)da bir xillik, an’anaviy xronikalarga xos me’yorlanish bilan birga lavhalar, tafsilotlar va alohida obrazlar talqinida chetlanishlarga yo‘l qo‘yilgan. “Samoviy Janub Kitobi” lyukbat xalq qo‘shiqi vaznida yozilgan, uning ritmikasi (ohangi) mukammalikdan ancha yiroq. Poema stilida nafislikning yetishmasligi uni “oddiy xalq” chuyenlari bilan yaqinlashtiradi.

XVII asrda vietnam adabiyotida syujetsiz vaznli nasr

XVII asrda syujetsiz vaznli nasrning an’analarini o‘zida mujassamlagan doston (poema)ning falsafiy-lirik janri rivojlana boshlaydi. Har bir doston (poema)ga qandaydir falsafiy fikr unga singib kiradi; tabiatning ulkan tasvirlari muhim rolni o‘ynaydi. Manzara lavhalari Xoang Shi Kxay “Yilning to‘rt fasli xaqida qo‘shiqlar” (“Ti txyoy kxuk”, tahm. 1600-y.) doston (poema)sida o‘z aksini topgan; doston (poema) afsonaviy kosmogoniya tasviri bilan ochiladi. Falsafiy-lirik doston (poema)lar afsonaviy, tarixiy va adabiy

alomatlar bilan to‘la. Ularga allegorizm (bir tushunchani tagida boshqa narsani tushunish, ramzlar orqali ifodalanish) xosdir: ko‘tarinki ohanglarga to‘la bahor bayramlari “Kuylarda” umumiy ezgulik, yaxshilik ramzi deb tushuniladi.

Falsafiy-lirik doston (poema) janri yagona atamaga ega bo‘lman. Xoang Shi Kxay uni “kxuk” (xitoycha “syuy” – qo‘sinq, ohang), Dao Zyui Ti uni “van” – elegiya (mungli qo‘sinq) (xitoycha “van” – motam qo‘sinqi) deb ataganlar. Ushbu janrni musiqiy asarlar bilan yaqinlashtirishga intilish, ehtimol, doston (poema)larni nafaqat deklamatsiya (asarni juda chiroyli va ta’sirli qilib o‘qish san’ati) bilan bog‘liq, balki hozirgacha musiqa asbobi bilan she’rlarni qo‘sinq qilib aytish an’anasi saqlanib qolganidan dalolat beradi²⁹.

XVII asr Vietnam ma’naviy hayotida teatr katta ahamiyatga ega bo‘lgan, uning rivojlanishida Dao Zyui Ti muhim rol o‘ynagan. “Kuylayotgan masxaraboz” o‘g‘li Dao Zyui Ti (uning otasi saroydagi orkestrni boshlovchisi edi) imtihonlarda yiqilib, Nguyenlarning knyazligiga o‘tadi va taniqli amaldor va shoir bo‘ladi. U Vietnamning markaziy viloyatlarida tarqalgan “*tiong*” (musiqiy drama) janrining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shtigan. Zao Tyui Ti vatanparvar pyesaning muallifi bo‘lgan.

Tiong aslida Vietnam milliy janri bo‘lib, Xitoy dramasi ta’sirida rivojlangan va tyam musiqa va raqs unsurlarini o‘z ichiga olgan janr. Hozirgi vaqtgacha *tiong* aktyorlik o‘yin, kiyim va rekvizitlarda ko‘plab shartiy xosliklar bilan ramziy janr alomatlarini saqlab qolgan. Tiong uchun qilichbozlik va akrobatik sahnalar xosdir, biroq, ayol rollarini unda aktrisalar o‘ynagan. Tiong tili yozma tilga yaqin bo‘lib, butun ariyalar xanvan tilida ijro etilgan. Amplua (ijdbiy va salbiy qahramonlar rollari)ga bo‘linish mavjud edi. Tiongdagi ijobiy

²⁹Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. С.173.

personaj, odatdagidek, ideallashgan qahramon bo‘lib, davlat va vatan uchun qahramonlik ko‘rsatar edi.

Aholining pastki qatlamlari uchun tomosha sifatida xalq musiqiy teatr – *teo* namoyish etilib, uning ildizlari eramizning I asriga borib taqaladi. X asrda qo‘rquituvchi niqoblarga “kiyilgan”lar tomoshasi namoyish etilib, ular eshchilar (teo) harakatlarini qaytarib, “varvarlik” (“yovvoyi”) qo‘shiqlarni aytishar edi. Teo keng omma, shuningdek, ibodatxonadagi o‘yinlar va bayramlar bilan uzviy bog‘liqdir. Teo teatri truppalari (artistlar guruhlari) qishloqlar va bozorlarda kezib, dehqonlar va hunarmandlar oldida namoyishlar qilgan. Teo teatrining personaji bu xushchaqchaq va epchil pastki qatlamlardan chiqqan inson, odatda xizmatkor yoki soqchi, tomoshabinlarni kuldiradi va pyesa davomida o‘z xo‘jayinini balolardan qutqaradi. U kyogen (yapon farsi) yoki chou xitoy dramasining komik (kulgili) qahramonini eslatadi.

Umumiy qilib aytganda, XVII asr vietnam adabiyotini rivojlangan o‘rta asr adabiyoti sifatida tavsiflanish mumkin. Aynan shu vaqtda adabiy hodisalarining paydo bo‘lishi va shakllanishi yuz beradi; Vietnam she’riyatida ham keyingi ikki yuz yil davomida transformatsiya (o‘zgarishlar)ga duch kelgan janr shakllari asosan shakllanib bo‘ladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Le sulolasidavrida |Vietnamda adabiyot qanday tus olgan?
2. Xanvan nima va u vietnam adabiyotida qanday o‘rin egallaydi?
3. XVI asrda Vietnam adabiyotining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
4. XVI-XVII asrlarda yaratilgan asarlarning g‘oyaviy mazmuni nimalardan iborat?

XVIII asrda ijtimoiy vaziyat va adabiy jarayonning xususiyatlari

Darsning maqsadi: Talabalar tasavvurida XVIII asrda Vietnamda ijtimoiy vaziyat va adabiy jarayonning xususiyatlari haqida amaliy tushuncha hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: Teyshonlar, syujet, janr, vazn, lirik poema, obraz, janr, syujet.

XVIII asrda Vietnam hududlarining shakllanish jarayoni davom etadi. Ular Janubdagи yerlar, vietnam feodallari Siam qiroli vakillari (vassallari)ga qarshilik ko‘rsatayotgan Mekong vodiysi hisobiga kengayib boradi. Yangi egallangan va asl yerlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalar bo‘lmaganligi sababli XVI asr ikkinchi yarmida ikkita alohida bo‘lgan knyazliklar paydo bo‘ladi: shimoliy (“Tashqi yerlar”) va janubiy (“Ichki yerlar”). “Osmon o‘g‘li” bo‘lmish hukmdori haqiqiy hokimiyatni ko‘ldan chiqargan bo‘lsa ham, Le sulolasini taxtdan ag‘darishga hech kim jur’at etolmas edi.

Mamlakat hayotida muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi. Savdohunarmand markazlari – shaharlar qad rostlab, matolarga ishlov berish, kulolchilik mahsulotlari, bosma rasmlarni ishlab chiqarishda usta bo‘lgan hunarmandlar qishloqlari tobora ko‘payib boradi. Shimoldagi Chin va janubdagи Nguyen knyazlari tanga zarb qiladigan mahkamalar, daryo yo‘llari va qurol yasovchi ustaxonalarni barpo etishadi. O‘sha davrda ma’danli boyliklar qazib olingan va savdo aloqalari yo‘lga qo‘yilgan edi. Biroq mahalliy feodallar “savdogarlarni bostirish” siyosatini rasman e’lon qilib, zo‘ravonlik bilan turli hil soliqlar olishgan.

Shu davrda feodallar sinfi bir hil bo‘lmagan. Ko‘pincha Vietnamda huddi Xitoydagidek feudal bir vaqt ni o‘zida byurokratik apparatda amaldor shaxs ham bo‘lib kelgan. Davlat mansabini egallah uchun mansabdor shaxs davlat imtihonlari tizimidan o‘tishi kerak edi. Korrupsiya, ochiqdan ochiq mansablarni sotish natijasida ko‘pgina kambag‘al yoki kasodga uchragan olimlar-konfutsialiklar davlat xizmatidan chetda qolgan. Ular o‘qituvchilik, tabiblik qilib, o‘ziga xos feodal ziyyolilari qatlaminu tashkil qilganlar³⁰.

Mazkur qatlamga XVIII asrga xos bo‘lgan va davlat xizmati bilan bog‘liq bo‘lman olim-kitobchi (ya’ni kitoblar bilan shug‘ullanuvchi) ham kirgan. Kambag‘al olimlarning ba’zilari dehqonlar qo‘zg‘olonlarida ishtirok etishgan, ba’zan ularga boshchilik qilishgan. Bu muhitda muxolifat g‘oyalari paydo bo‘la boshlagan. Dehqonlar orasida ham barcha hokimiyatni o‘z qo‘liga kiritgan yer egalaridan norozilik o‘sib boradi. Nochorlik va umidsizlik darajasigacha yetkazilgan dehqonlar qo‘liga qurol olishga majbur bo‘ladi. XVIII asr Vietnamda qo‘zg‘olonlar asri deb hisoblanadi. Shu asrning uchinchi choragida **teyshonlar** dehqonlar urushi (1771 – 1802) avj olib, o‘zaro adovatda bo‘lgan knyazliklarni yer yuzidan qirib tashlaydilar va dehqonlar boshchiligidagi yangi sulolaga asos soladilar. Teyshonlar Vietnamni Xitoy provinsiyasiga aylantirmoqchi bo‘lgan manchjuriyalik feodallarga qarshilik ko‘rsatishadi va Tailand qirolining ko‘p mingli armiyasini qirib tashlashadi. Vietnam yagona davlatga aylanadi. Vietnam tarixida birinchi bor dehqonlar harakatini bostirish uchun feodallar Yevropa saltanati – Fransiyadan yordam so‘rab murojaat qiladilar (o‘sha davrda knyaz Nguyen An saroyida ko‘p yevropaliklar xizmat qilgan).

XVIII asr o‘zining qudratli qo‘zg‘olonlari bilan Vietnamdag‘i feodallar tuzumiga putur yetkazdi. Yangi ijtimoiy oqimlarga hayot

³⁰ История всемирной литературы.. М., Hayka, 1989

berdi. XVIII – XIX asr boshidagi ilg‘or mutafakkirlar mavjud tuzumdan norozi bo‘lib, uni tanqidga uchratganlar. Feodallik byurokratiya (qog‘ozbozlik, rasmiyatchilik) ularning doimiy tanqidi ostida bo‘lgan. Olim Fam Din Xo (1768 – 1839) o‘sha davr haqida shunday yozgan: “Shundaylar borki, amaldorga aylanib, poralarni oladi, barcha narsaga ko‘zini yumadi,adolatsizlik uchrug‘ini sochadi”³¹.

Islohotlar o‘tkazish loyihalari paydo bo‘lgan, shular qatorida hukmdorlar apparatini shakllantiruvchi imtihon tizimini “tozalash” islohoti ham o‘rin olgan. Olim Fan Xyui Tyu (1782 – 1840) yerni qayta taqsimlash, “har bir qarich haydalib, qambag‘allarni qashshoqlik va ochlikdan xalos etish uchun har bir dehqonga yerni berish”ni taklif qilgan. Olimlar Le Kuy Don (1726 – 1783) va Fam Din Xo hunarmandchilik va tijorat rivojlanishi tarafдори bo‘lgan. Jamiyatda qabul qilingan me’yorlar, axloqiy qoidalar va urq-odatlar tanqid qilingan, xususan, g‘arazli maqsadda qurilgan turmush shular jumlasidandir.

Ilmiy bilimlarning rivojlanishi va chuqurlashib borishi sxolastikaga (rasman hayot va tajribadan uzilgan holat) va epigonlikka (qandaydir arbob yoki yo‘nalishga ijodsiz ergashish) asta-sekinlik bilan hujum qila boshlaydi. Konfutsialik qonunga diniy qonun sifatida emas, balki har qanday davrning barcha savollariga javob beruvchi asar sifatida ratsionalistik (ma’qul) qarashlar ishlab chiqiladi. Ushbu fikrlar Xitoy mutafakkirlari uchun ham xos bo‘lgan edi. XVIII – XIX asr boshidagi Vietnam faylasuflarining eng muhim fikri bu ilmiy bilim olish va ilmiy izlanish zaruriyatini ta’kidlash va asoslab berishdan iborat edi.

Bilimlarga bo‘lgan chanqoqlik adabiyot va folkloriga ham tarqala boshladi. Le Kuy Don va Fan Xyui Tyu Vietnam adabiyoti tarixi

³¹ История всемирной литературы.. М., Hayka, 1989

bo‘yicha ishlarni o‘z ichiga olgan bibliografik asarlar tuzishdi. XVIII – XIX asr boshidagi adabiyotchilar xalq ijodiyoti bilan yanada yaqin munosabatlarda bo‘lib, folklor asarlarni yozib olganlar. Shu davrda Vietnamda xalq qo‘shiqlari ilk bor yozib olingan. Le Kuy Don qisqa kulgili qissalarni yozib olib, “bironta so‘zni ham o‘tkazib yuborish kerak emas” deb hisoblar edi.

Xalq ijodida satirik (hajviy) yo‘nalishlar kuchayib borgan, albatta, bu o‘sha davrning ilg‘or mutafakkirlariga xush kelmagan. Folklor syujetlari va komik (kulgili) sahnalardan foydalangan teo xalq teatri haqida Le Kuy Don o‘z salbiy munosabatini birladirib kelgan.

XVIII asrning 80-yillarida amaldor Xoang Din Baoni masxara qilgan mashhur ashulada shunday satrlar bor:

*Amaldorlar birdek
ko ‘r bo ‘ldi, shekelli;
Ko ‘rmayaptilar; qirol ayollari orasida
Oro olyapti bizning xo ‘jayin.*

XVIII asrning ikkinchi yarmida, tahmin qilishlaricha, o‘ta olim (oliy olim) Kuin haqidagi latifa (anekdot)lar shakllangan. Hamma joyga tarqalgan zolimlik (istibdodlik) sharoitlarida bu personaj o‘zini uzi tasdiqlashga intilgan shaxs sifatida namoyon bo‘lgan. Uning kulgisi – bu qudratli hukmdor oldida bosh egib turgan (aks holda uning boshi jallod qilichi bilan uzib tashlanadi), shu bilan birga, zakovat va dovyuraklik bilan uning ustidan kulgan inson kulgisidir. Shu davrda shakllangan boshqa latifalar qahramoni johil va farosatsiz o‘taolim qassob, uning kasbi kulgili (komik) tasoddiflar qatori qilib ko‘rsatilgan.

XVIII asrda dehqonlar qo‘zg‘olonlariga boshchilik qilganlarga bag‘ishlangan va o‘ziga xos fosh qilish yo‘nalishiga ega tarixiy qo‘shiqlar paydo bo‘lgan. “Yigit Lia haqidagi qo‘shiq” qahramoni feodallarga shunday so‘zlar yo‘llaydi:

*Nega ular shunday zolim,
qambag ‘allarga rahmi kelmaydi?
Darhaqiqat: ular itlar to ‘dasi!
Lia g ‘azablandi, jahli chiqdi...*

Folklorga xos bo‘lgan satirik-fosh qiluvchi g‘oyalar, hamdaadolatni himoya qiluvchi qahramonona personajlarning tasvirlanishi murakkab sharoitlarda rivojlanib borayotgan adabiyotda o‘z aksi topdi. O‘rta asrlardek Vietnam adabiyoti ikki tilda rivojlanib boradi: umummintaqaviy (Xitoy) adabiy, Vietnamda xanvan deb nomlangan tilda, va o‘ziga xos ierogliflar yordamida yoziladigan milliy tin tilida. XVII va XVIII asrlarda vietnam tilida yozilgan asarlar ta’qiqlangan edi. Xalqqa tushunarli bo‘lgan ona tilidagi adabiyot (dostonchi va rivoyatchilar bu asarlarni dehqonlarning savodsiz qatlamlarigacha yetkazar edilar) ma’naviy madaniyat sohasida o‘zi “tanho”ligini o‘rnatmoqchi bo‘lgan hukmdorlarning g‘azabini qo‘zg‘atar edi. Shuning uchun Shimoliy Vietnam hukmdorlari nafaqat vietnam tilidagi kitoblarni, balki bosma sifatida ishlatilayotgan yeg‘och taxtachalarni ham yoqib tashlashgan. O‘sha vaqtarda qayg‘uli bir aforizm tarqalgan edi: “Sodda so‘zlik – odobsizlik otasi”.

Shoirlarning vietnam tilidagi adabiy mehnati ularga na shuhrat, na boylik olib kelar edi, faqat g‘azabga yo‘liqtirar edi. She’rlar mualliflari asar yakunida o‘zi yerga urish, yaratgan asari jiddiy emas deb tan olish yordam bermasdi, shu sababdan ko‘pgina Yozuvchilar o‘z muallifligrini yashirishga harakat qilishgan. Mazkur vaqtda ko‘pgina anonim (muallif nomi noma'lum) asarlar paydo bo‘lgan. Muallifning nomi noma'lum bo‘lishning boshqa sababi ham bo‘lgan: folklor bilan yaqin bo‘lgan ba’zi adabiy janrlarning yaratilishi (masalan, “oddiy xalq” nasriy dostonlari) bilan bog‘liq bo‘lgan,

mazkur davrda dostonlar ham og‘zaki ham yozma shaklda bo‘lgan, ba’zan ularni xalq dostonchi (rivoyatchi)lari yaratgan³².

XVII asr vietnam adabiyotida shakllanib bo‘lgan janrlar tizimida XVIII asrda tubdan o‘zgarishlar kuzatilmaydi, biroq jiddiy o‘zgarishlar shakllanib bo‘lgan janrlar ichida kuzatilmoqda. Adabiyotda an’analardan voz kechmay, ularga ijodiy yondashib, o‘zgarib borayotgan hayot bilan hamohang bo‘lib ijod qilishga intilish ustun bo‘lib kelmoqda. An’analar, qadimgilarning ketidan izma-iz yurish deganda faqat oddiygina taqlid emas, balki adabiyotga yangi kirib kelayotgan narsani oqlash va himoya qilish uchun qadimgi mualliflar obro‘i, shon-shuhratini jalb etish deb tushunilar edi. Le Kuy Don shunday yozgan edi: “O‘tmishdagi odamlar: she’r va nasrni yaratib, voqealar haqida yozib, bиргина narsa –o‘zgarmaslikdan – ehtiyyot bo‘linglar; ular shuni atymoqchidilarki, qadimgilarning so‘z va fikrlaridan yangi narsani yaratish, eski yo‘llar bilan sudralib yurmaslik lozim” deb ta’kidlashar edi. Adabiyotga konfutsialiklarning didaktik qarashlariga qarama-qarshi bo‘lgan adabiyotning mustaqil estetik ahamiyati haqida fikrlar ko‘proq eshitila boshladi.

XVIII asr adabiyotining o‘ziga xos xususiyati bu insonning taqdiri, his-tuyg‘ulari va umidlariga bo‘lgan alohida e’tibor. Konfutsialik asoslarga muvofiq shaxsiyatning manfaatlari oxirgi o‘rinlarda bo‘lib, fuqaroning monarxga, o‘g‘ilning otaga, xotinning eriga gap so‘zsiz bo‘ysunishi prinsipiga amal qilindi. Konfutsialikning ahamiyati pasayib borishidan achinib, adabiyotchi Nguyen Txien (1723 – 1804) jamiyatdagi moddiy manfaatlarning birinchi o‘ringa chiqib kelishiga shunday izoh berdi:

Muqaddas ta ’limot inqirozga uchradi,

³² Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.170.

*Oh, qanchalar insonlar tuban!
Oltinni ko‘rgach, o‘z haqda unutib,
Boshlari bilan unga tashlanishar...*

1761 - yilda hukumat fuqarolarni bo‘ysunishga da’vat qilib, knyaz Chin Takning “Qirq yetti nasihat” haqida eslatib o‘tdi, biroq, xronikaning aytishicha, xalq “bunga e’tiborsiz bo‘lib, diqqatga loyiq emas deb bildi”.

XVIII asr adabiyoti shaxsiy hayotga kira boshladi, lekin inson o‘z istagiga ko‘ra harakat qilishi shu bilan birga konfutsialik axloqqa hurmat bilan munosabatda bo‘lishga haqli edi. O‘scha davr ilg‘or adabiyotchilari katta fikrlar she’ritini himoya qilib, amaldorlar orasidagi she’riyat yaratishda rasmiy mashqlarga qarshilik ko‘rsatishgan. Le Xiu Chak (1720 – 1791) yozgan: “She’rlarning asosi – fikrlardadir, agar fikr chuqur bo‘lsa, she’lar ham go‘zal bo‘ladi”.

Epik-tarixiy poema XVII asrga tegishli so‘zga aylandi; XVIII asrda epik qahramonona asarlar ikkinchi darajali bo‘la boshladi. Lirik poema shakllana boshladi va nasriy poema haqiqiy ravnaq topdi. Vietnam she’riyatida yangi motiv, g‘oya va obrazlar paydo bo‘lib, she’riy asarlarning janri va vaznlariga og‘zaki xalq she’riyati o‘z ta’sirini kuchaytira boshladi.

Xanvan tilidagi kichik shakllar she’riyati

Kichik shakllar she’riyati o‘rnatilgan poetika asoslariga rioya qilinib kelingan, lekin XVIII – XIX asrning boshida yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi: Yangi mavzu (kundalik maishiy, ko‘pincha shahar hayotiga janrli chizg‘ilar), o‘ziga xos (original) tasvirlashga qiziqish, lirik qahramonning ijtimoiy-maishiy aniqligi. Sodda tashvishlari va oddiygina hursandchiliklari bilan qishloq hayotining she’ritdagi

ideallashtirish tendensiyasi feodallarning mansabparastlikni va manfaatlari ko‘zlashlarini qabul qilinmaslik bilan bog‘liq edi. Ngo Txi Iknинг she’riyatida murakkab she’riyat tilidan, yangi obrazlardan, hayotiy xusussiyatlardan voz kechishni ko‘rish mumkin. Qiyin bo‘lgan kitobiy tildan o‘z chetlanishini tushuntirib, u shunday yozadi: “Asarlar mandan katta mehnatni talab qilmaydi – kerakli so‘zlarni topsam bas”. “Buvi kechqurun bozordan qaytyapti” she’ridagi satrlar:

*Bozordan qaytdi, bolalar tabassum bilan
uni tor ko ‘chada kutib olyaptilar
Hursandchilik bilan o ‘rtalarida
shirin kulchalarni bo ‘lyaptilar.*

Hayotiy mavzularga e’tibor berish xanvandagi she’riyatning ko‘lam doirasini kengaytirdi, masalan, Le Kuy Don she’rlarida shahar hayotiga bag‘ishlangan satrlar bor:

*Mayxonaning bayroqlari
serqatnov ko ‘cha ustida hilpillaydi.
Sotuvchi ko ‘lini qoqdi –
kimdir mast bo ‘lib qoldi.*

Hayotning shaxsiy lavhalarini tasvirlash voqelikni falsafiy idrok etish an’anasini chetga sura olmasdi. She’riyatda va vaznli nasrda ijtimoiy tanqid motivlari yaqqol ko‘rina boshladи. Ngo Txe Lan qalamiga mansub “Dunyonidirok etganning kuylari”da majoz (allegoriya)ning umumlashtiruvchi kuchini sezish mumkin:

*Chuqur g ‘orlarda bo ‘ri va yo ‘lbarlar bor.
Chuqur suqlarda mahluq baliqlar va timsohlar bor.
Nayza va qilichlar bilan odamlar qo ‘rqtmoqda.
O ‘rmon changalzorlarida – so ‘nalar,
Balchiqlarda – chivinlar.
Nega bu kichkina mahluqlar*

Insonga ziyon yetkazmoqchilar?

Dushmanlik dunyo obrazi – zo‘ravonlik va zolimlik dunyosi – xanvandagi asarlarda o‘z aksini topdi, xususan Fam Nguyen Zu (1740 – 1786) “Ocharchilikdan azoblangan ona o‘z bolasini yegani haqida xabar eshitganidan hayratdamان” she’ri va “Nguyenlar qadimiy saroyi” vaznli nasr (fu)da shunday satrlar bor:

*Ulug‘ oltin devorlar, xalqing esa –
bo ‘sh qo ‘llar bilan.*

*Kumush yomblari yarqiraydi, xalqing esa
yo ‘qchilikdan qashshoqlikda yashamoqda.*

*Xalq yalang‘och, xalq qashshoq, sen esa o‘z saroyingda
xotirjamsan.*

Qalbingda farofonlik, ko ‘zingda hursandchilik...

Ba’zi holatlarda, xanvandagi she’rlar o‘rnini sayohatchi kundaligidagi taassurotlar bosardi, shuning uchun bu she’riyatga uning doirasini kengaytirgan aniq kuzatishlar kirdi. XVIII asr shoiri Nguyen Toy Kuay Xitoyga elchixona bilan borgan safaridan she’rlar to‘plamini olib kelgan; she’rlarning nomlanishida shoirning safar davri belgilangan: “Langshondagi tun”, “Duntin ko‘li”. U ko‘pincha o‘z kuzatishlaridan kelib chiqadi, yangi ajoyib obrazlarni kiritadi. Chin Xuay Dik (1765–1825) XVIII asr oxirida ziyorat qilgan Kampuchiyani tasvirlaydi: “Ko‘l-dengiz” (Tonln-san), “Qadimgi toshdan shahar” (Angkor ibodatxonaları).

Vietnam adabiyotining xanvan tilidagi kichik shakllar she’riyati gohida Vietnamning milliy chegalaridan o‘tar edi. Ma’lumki, Pekindagi Vietnam elchilari Ryukyu davlatining kitobchi-olimlari bilan uchrashgan edi, nafaqat sin amaldorlari, balki Koreya elchilari bilan o‘zaro she’rlari bilan almashishgan.

Le Kuy Don she’rlari to‘plamiga koreys elchilari 2 ta kirish so‘zi yozib, unda koreys-Vietnam aloqalarining ahamiyatiga o‘z

munsabatini bildirdilar. Vietnam-koreys umummadaniy va adabiy aloqalar Vietnam adabiyotining ufqlarini yanada kengayishida muayyan rolni o‘ynagan: Xon Gexi “Sirxak” (“Amaliy bilimlar uchun”) harakati yirik arbobi Le Kuy Don bilan uchrashgan, keyinchalik Le Kuy Don XVIII asrda Vietnamda qomusiy asarlar muallifiga aylandi.

Vietnam tilidagi kichik shakllar she’riyati

XVIII asrda vietnam tilidagi kichik shakllar she’riyati ahamiyatli ravnaqqa erishdi. Adabiyotning demokratlashishiga va milliy xususiyatlarining kuchayishiga xizmat qilgan folklor tasviriy-stistik janr darajasida va she’rning rasmiy vazni shaklida qabul qilingan. XVIII – XIX asr mobaynida sevgi-muhabbat va hazil-mutoyiba mazmuniga ega xalq lirik qo‘shiqlari (kazao) shaklida kichik poemalar vujudga keldi. Bu poemalarga Vietnamda keng tarqalgan va mazmun jihatidan bir-biriga ulanib, ketma-ket ijro etiladigan kuy-qo‘shiqlar bayrami ta’sir qilgan. Muallifi noma’lum bo‘lgan “She’riy ona tili” poemasi aynan shunday kompozitsiyaga ega.

Kichik shakllar she’riyatida qotib qolgan she’riy ramzlar jonlandi, majburiy qonuniyatga kirgan obrazlar (baliqchi, sarjinchi, ruhoniy, qo‘schi) o‘z shartiyligini yo‘qotgan edi. Mak Txien Tit (XVIII asr o‘rtasi) she’rlarida bu obrazlar komil insonlarni belgilash uchun emas, oddiy, o‘z ishi bilan mashg‘ul bo‘lgan mehnatkashlarni ifodalash uchun qo‘llanilgan.

Til vositalari, xususan, xanvan tilidagi satrlarni kiritish bilan she’rning adabiy (folklor emas) xususiyati belgilanar edi. Masalan, “Qafasdagি quш” she’rida ozodlik, erkinlik ruhi katta kuch bilan ifodalangan. Mazkur she’r dehkonlarning yirik qo‘zg‘olonlaridan biriga boshlovchilik qilgan Nguyen Xiu Kau (1751-yilda qatl qilindi)

qalamiga mansub deb tahmin qilinadi. Qush obrazi - erksevarlikning ramzidir.

*Fursat qutmoqda, bulutlardan
Qafasni teshib o'tishga.
Qanotlarni yozib, Kumush daryoga
O'n mingli balandlikka parvoz qilishga.
Changallarni uzishga zoriqib,
Oltin Qarg'aga do'st bo'lishga.*

Shoir bu yerda Uzoq Sharq afsonalar va she'riyatning obrazlarini qo'llab, Somon Yo'liga – Kumush daryo, Quyoshga esa – Oltin Qarg'a deb nom beradi. Bu an'anaviy istiora (metafora)lar she'rdagi yangi (bulutlardan qafas kabi) obrazlar bilan uyg'unlashib, alohida ta'sirchanlikni yaratadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Nima sababdan XVIII asr Vietnamda qo'zg'olonlar asri deb nomlangan?
2. XVII-XVIII asrda Vietnam adabiyotida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
3. Xanvan tilidagi kichik shakllar she'riyatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat ?
4. Vietnam adabiyotida vietnam tilidagi kichik shakllar she'riyati rivoji qanday tus olgan?
5. Le Kuy Don ijodi haqida nimalarni bilasiz?

Vietnam adabiyotida lirik poema

Darsning maqsadi: Talabalar tasavvurida lirik poema tushunchasi, vietnam adabiyotida lirik poema paydo bo'lishi va

rivojlanish tamoyillari haqida amaliy tushuncha hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: Ngem, ohang, deklamatsiya, monolog, janr poema, hikoya, saung-txat lyuk-bat, individualizm.

XVIII asrda insonning ichki dunyosiga chuqurroq kirishga intilish lirik poema janrini (Vietnamcha – ngem “ohang”, “deklamatsiya” ma’nosiga ega) paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ngem monolog shaklida bo‘lib, unda qahramon (ayol) o‘z fikrlari va tuyg‘ularini ifodalaydi. Poemada o‘z aksini topgan voqealar haqidagi epik hikoya bilan lirik boshlanish bir-biri bilan bog‘lanib ketadi.

Ngem janridagi birinchi poema “Uzoq yurishga ketgan askarning xotini” shoira Doan Txi Dem tomonidan yaratilgan deb e’tirof qilinadi.

Doan Txi Dem (1705–1748) konfutsialik olim oilasida tavallud topgan va yaxshi ta’lim olgan edi. Shoiraning ma’naviy qiyofasida juda ko‘p yangi narsalar bor. Uning o‘gay otasi, yuqori martabali amaldor bo‘lib, unga Shimoliy Vietnam hukmdoriga joriya bo‘lishni taklif qilganida, Doan bu taklifni rad etadi. Doan Txi Dem tabiblik hunari yaxshi bilgani, o‘z oilasini boqish uchun o‘qituvchilik va tabiblik qilgan. 1743–745-yillarda uning turmush o‘rtog‘i Vietnam elchixonasi boshchiligida Pekinga ketgan chog‘ida, shoira o‘zining “Uzoq yurishga ketgan askarning xotini” poemasini yaratgan. Aniqrog‘i, xanvan tilida yozilgan Dang Chan Kon (1745 yilda vafot etdi) qalamiga mansub bir xil nomli poemasini shoira vietnam tiliga o‘girgan, biroq, Doan Txi Demning asari badiiy ta’sirchanligi bo‘yicha Dang Chan Konning dastlabki variantidan o‘tib ketgan.

Yerda va osmonda shamol va to‘zon ko ‘tarilganda,

Yuzi qirmiz go‘zalning qayg‘u va kulfati ko ‘pdir.

so‘zlari bilan poema boshlanadi, urush katta falokatdek qabul qilinadi, erini uzoq yurishga kuzatgan xotinning lirik kechinmalari tasvirlanadi. Qalbdagi alam bilan ayol o‘z eri haqida o‘ylaydi, “tumanlar va shamollar”, “minglab ilon va yo‘lbarslar” bor jang maydonida uni

tasavvur qiladi. Feodal ko‘rsatmalariga ko‘ra, ayol sukunat saqlab, sabr va itoat qilishi kerak edi, lekin qahramon ayol hasrat-nadomat qilishga jur’at etdi. Butun poema davomida qahramon ayolning kayfiyati bilan uyg‘unlashgan ikki-uch chizg‘ilar orqali yaratilgan tabiat manzarasi kuzatiladi. Asarning ajoyib va nafis shakli vietnam kitobxonlarning e’tiborini qozondi.

Doan Txi Dem ngemlarni saung-txat lyuk-bat – yetti so‘zlik ikki satr, keyin olti va sakkiz so‘zlik oxiridagi va ichki qofiyasi bilan satrlar – vaznida yozish an’anasiga asos soladi. Hukmdorlar qo‘zg‘ololnarni bostirish uchun ko‘plab norasmiy yurishlar qilgan o‘sha davr kayfiyatiga bu poema to‘liq javob berar edi.

Badavlat oiladan kelib chiqqan shoir Nguyen Za Txieu (1741 – 1798) lirik poema janrining mustahkamlanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning onasi Shimoliy Vietnam hukmdori knyaz Chin Kiongning qizi bo‘lganligi sababli shoir yoshligidan knyaz saroyida bo‘lgan edi. Keyinchalik Nguyen Za Txieu hashamatli pagoda va saroylar quruvchisi, muvaffaqiyatli musiqiy pyesa, ajoyib rasmlar, va eng muhimi – “Qirol joriyasi nolalari” lirik poemasi muallifi sifatida mashhur bo‘lgan.

Shoir e’tibori Chin knyazlarining joriyalari taqdiriga qaratilgan edi. Yuzlab ayollar hashamatli tutqinda g‘am-g‘ussaga to‘la hayot kechishadi, knyaz esa hattoki ularning ismlarini ham eslab qolmas edi. Nguyen Za Txieu haramdagi ayolning fojeasi haqida hikoya qiladi: “bahor egasi” avval unga iltifot ko‘rsatadi, keyin uni unutib, tark etadi. “Nolalar” – bu tark etilgan ayolning baxt so‘rab qilgan nolasi. Poemada g‘am motivi ko‘proq bo‘lsa ham, baxt va umid uchqunlari haqida bayonni uchratish mumkin. Bunday kenglik lirik poema uchun yangilik edi.

Qahramon ayolning portreti va iqtidorining tasvirlanishi adabiy an’anaga mos obrazni yaratadi. Lekin keyinroq Nguyen Za Txieuning qahramoni noan’anaviy xislatlarga ega bo‘lib qoladi: u o‘z xayollarida

qizlik davriga qaytadi, ko‘plab uni qo‘lini so‘raganlarga rad javobini bergen gerdaygan va manmanlikka uchragan qiz obrazi paydo bo‘ladi. Vanihoyat, u juda ham baxtli ayolga aylanadi, chunki uni taqdiriga qirol joriyalaridan biri bo‘lish nasib etadi. U shunchalik o‘z go‘zalligidan faxrlanadi, hattoki uni ko‘rgan “daraxt va o‘tlar bulut va yomg‘irlar bilan jo‘sh urgandek (qaynab ketishi)” tuyilar edi. Qahramonning shu kabi o‘ziga bergen tavsifiga avvalgi vietnam adabiyotidan misollar topish qiyin.

XVIII asr amaldori Nguyen Za Txieu saroy muhiti taqozo etgan idealga mos zodagon (oqsuyak) ayol obrazini yaratib, o‘z qahramon ayolida individualizm (bir shaxsga xos) xislatlarini ko‘rsatadi. Biroq, qahramon ayolning baxti bir lahzalik bo‘lib chiqdi: “Chuqur g‘orga quyosh nuri kirdi-yu o‘chdi”. Zodagon ayolning baxtini tasvirlashdan shoir uzoqlashgan sari, kitobxonning qahramon ayolga rahmi kela boshlaydi. Dard uni o‘zgartiradi, kekkaygan ayoldan asar ham qolmay, endi oldimizda azob tortayotgan ayol paydo bo‘ladi: “O‘limga meni hanjar mahkum etmadi, o‘limga teng qayg‘uli bag‘ritoshlik meni o‘ldirar!” Tark etilgan haramdan chiqib ketishni, turmushning “baxtli” (uzoq sharq ramziga ko‘ra “qizil”) rishtalarini uzishni orzu qiladi: “Qo‘limni cho‘zib qizil ipni uzgim kelyapti, g‘azabdan saroy devorlarini buzib, ozodlikka chiqqim kelyapti!”³³.

Shunday jasoratga to‘la iboralarni avvalgi davrlarda xayolga keltirib bo‘lmash edi va ehtimol, bu so‘zlar shoirning ichki dunyosi, kayfiyatiga javob bergen. Norozilik, nolalar birdan avj olishi vaqtinchalik ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Nguyen Za Txieu insonning qarama-qarshi bo‘lgan psixologiyasini aks ettirish bilan birga she’riy so‘zning takomillashishiga qadam qo‘ygan. Biroq, Nguyen Za Txieu poemasida yozma tilga xos so‘zlarning ko‘pligi, adabiy va tarixiy

³³ Văn học dân gian các dân tộc – Ha noi, 1959. - 320 tr.

tushunchalarining qiyinligi asarni mashhur bo‘lib ketishiga to‘siqlik qilgan.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Lirik poema janrining paydo bo‘lishiga nimalar turtki bo‘ldi?
2. XVIII asrda Vietnam adabiyotida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?
3. Doan Txi Dem ijodida qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
4. Nguyen Za Txieu hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?

Vietnam adabiyotida nasriy poema

Darsning maqsadi: Talabalar tasavvurida nasriy poema tushunchasi, Vietnam adabiyotida nasriy poema paydo bo‘lishi va rivojlanish tamoyillari haqida amaliy tushuncha hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: Nasriy poema, chuyen, chang-viong, roman-xronika, nasriy-she’riy janrlar, hikoya, piessa, realistik, didaktik, prozalashtirish, kuokngi.

XVIII asrda adabiyotga oilaviy va maishiy mavzu dalil kirib boradi. Insonning shaxsiyati va uning taqdiri shoirlarning e’tiborini tortadi. Nasriy poema (chuyen) nasriy janrlarning o‘ziga xos ekvivalenti sifatida namoyon bo‘ladi. Bu janrdagi asarlar shaxsiy hayotni tasvirlash doirasidan chiqib ketib, davrning ijtimoiy masalalarini ko‘tarib chiqqan edi.

Nasriy poema ildizlari xalq she’riy ijodi – syujetli xalq qo‘shiqlariga borib taqaladi. XVIII asr nasriy poemalari xalq qo‘shiqlariga xos bo‘lgan lyukbat vaznda yozilgan bo‘lib, ular oxiridagi va ichki qofiya bilan kelgan olti va sakkiz so‘zli satrlardan iborat edi. O‘sha davr poemasida asosiy mavzu baxt-saodatga o‘z haq-huquqini bildirgan insonga bag‘ishlangan, biroq, poemadagi ideallar

cheklangan edi: uzoq sarguzashtlardan keyin qahramon sevgilisini topib, hurmatga ega amaldor yoki yaxshi monarxga aylanadi.

Nasriy poemalarning qahramonlari odatda haraktlari, qiliqlari va muomalasi orqali tasvirlanadi. Poemalarda sehrgarlik ham mavjud, ehtimol, bu xalq ertaklari bilan bog‘liqdir, ertak an’analari poemalarga syujet va motivlarni taqdim etib, ijobiy qahramonning ideallashtirilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Poemalarda feodal jamiyatning salbiy tomonlari keng tasvirlanadi; asarda davr nizosi yaqqol ko‘rinib turadi: o‘z baxti uchun qahramonlar feodal amaldorlar bilan kurashadi³⁴.

Mazkur poemalar stil va mavzu bo‘yicha ikki turga bo‘linadi. Birlari, syujet va bayon qilish bo‘yicha folklorga juda ham yaqin, ehtimol, ular kuychilar va dostonchilar – keve va xatsamlar tomonidan yaratilgan edi³⁵. Bu asarlar yuqori mahorat va she’riy tilning tasviriyligi bilan uncha ajralib turmas edi. Lekin aynan shu turdagi asarlarda hukmdor monarch fosh qilish nishoniga aylanadi. “Fam Tay va Ngauk Xoa” poemasidagi zolim hukmdor Chang-viong tasvirini misol tariqasida keltirish mumkin. U Fam Tay ismli yigitdan o‘z xotinini unga berishni talab qiladi va “mening qasrimdagi uch yuz go‘zalni bo‘lishib olamiz” deb va’da qiladi. Hukmdor qo‘l ostidagilarni chaqirib, yigitni o‘ldirish va uni xotinini qo‘lga kiritish maslahatini qiladi. Muallif “zolim” hukmdorni fosh qiladi, “yaxshi, ko‘ngilchan” hukmdor tarafdoi bo‘ladi. Amaldorlarning hayotini ko‘rsatib, ko‘pincha bunday shoirlar saroydagi turmushni va odatlarni bilmas edilar va o‘z sodda tasavvurlari bilan bayonni to‘ldirib turar edilar.

³⁴ Văn học dân gian các dân tộc – Hà noi, 1959. - 320 tr.

³⁵ Никулин Н. И. Прозаические жанры: [Вьетнамская литература: История всемирной литературы. Т. 5. Раздел десятый. Глава четвертая] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 5. — 1988. — С. 630.

Ngo Txi Ti va Ngo oilasining boshqa mualliflari (“Ngo oilasining adabiy to‘garagi”) tomonidan xitoy tarixiy roman-xronika ta’sirida yaratilgan “Imperator Le – mamlakatni birlashtiruvchi” kitobining chiqishi yangi janr paydo bo‘lishini boshlab berdi. Teyshonlar qo‘zg‘oloni, Chin knyazlari va Le sulolasining ag‘darilishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z davri bilan zamondosh voqealar epopeya (qahramonnomma) ning asosi bo‘lgan. O‘tmishdagi voqealarni aks ettirgan xitoy romanlari bunday epopeyalardan farq qilgan.

Teyshonlar rahbari Nguyen Xyuega mualliflarning salbiy munosabatiga qaramay, epopeyada u jozibali tasvir orqali ko‘rsatilgan. Badavlat savdogarning o‘g‘li Nguyen Xiu Tin boshqa murakkab obraz bo‘lib, hokimiyani qo‘lga kiritishga intiladi va bunga xoinlik yo‘li bilan erishadi. Aqli, iste’dodli va g‘ayratli inson bo‘lishiga qaramay, u axloqiy fazilatlarga ega bo‘lmagan inson sifatida tasvirlanadi. Boshqa qahramonlar an’anaviy va bir tomonlama tarzda tasvirlangan, lekin ularning obrazi yaxlitlik bilan ajralib turadi. Xususan, yuqori ilmiy darajaga sazovor bo‘lgan Li Chan Kuan knyaz Chinning o‘limida aybdor ekanligidan azoblanib, o‘zini o‘ldirishga qaror qiladi.

XIX asr boshida vietnamlik katolik ruhoniylar tomonidan yaratilgan xanvan tilidagi “Xristos (Iso) ga okean ortidagi yashiringanning ishonchi haqida kitobi” roman-xronika ruhida yozilib, Yevropa, Vatikanga sayohatlarni bayon qilgan, mustakamlachilikka qarshi vatanparvar rujni aks etgan.

Syujetsiz nasriy-she’riy janrlar vietnam tilidagi yangi asarlar bilan jonlanadi, ularning aksariyati publitsistik xususiyatga ega, ba’zilari esa xalq qo‘zg‘olonlari jarayonida vujudga keladi. 1738 – 1769 - yillardagi dehqonlar qo‘zg‘oloni vaqtida yozilgan “Le Zyui Matning murojaatnomasi” xalq nutqi bilan yaqinligini ko‘rsatadi. Hukmdorlarning jinoyatlarini fosh qiluvchi “Murojaatnoma” ning satrlari xalq maqol va matallaridan olingan bir qator tasvirlari bilan

ajralib turadi: Chin knyazlari “zararli liana kabi daraxt tanasini o‘rab oladi; guruch bilan katta xumga tushib qolgan sichqondek quvnab o‘ynadi”. Shunday asarlarning mualliflari savrdsiz dehqonlar orasida og‘izdan og‘izga o‘tib yurishini ko‘zda tutishgan.

XVIII–XIX asr boshlaridagi vietnam adabiyoti so‘nggi o‘rta asr adabiyotlariga tegishli bo‘lishiga qaramay, o‘rta asrdan yangi zamonga o‘tish davri adabiyotiga xos yo‘nalish (tendensiya)lar paydo bo‘la boshlagan; xilma-xil dunyo (turfa olam)ni aniq badiiy idrok etish (o‘rganish)dagi intilish o‘sib boradi. O‘sha davrda Vietnamning ijtimoiy tushunchalarida xitoy adabiyoti va qisman yevropalik aniq bilimlar va amaliy tajribalar ta’sirida sezilarli darajada o‘zgarishlar ro‘y bergan. Adabiy asarlar mavzulari ancha kengaygan, ijtimoiy tanqid keskinlashgan va unda satira roli ancha ko‘tarilgan. Adabiyot yana o‘z negiziga – xalq she’riyatiga samarali ravishda murojaat qildi, demokratik xususiyatlarga ega bo‘ldi.

XIX asrning 20-yillaridan Nguyenlarning Monarxiyasi, ayniqsa Min Mang taxtga o‘tirgandan boshlab, feodal-byurokratik nizomni mustahkamlashga harakat qildi va “yopiq eshiklar” siyosatini olib bordi. Shu vaqt ni o‘zida Yevropa, Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoga sayohat qiluvchi metnamliklar mamlakatga yangiliklar olib kirdilar. Xususan, ruhoni Filipp Bin o‘sha davrdagi Vietnamning konfutsialik maktabini tanqid qildi va ta’limda yevropalik tizimning afzalliklarini ko‘rsatib berdi. U Fransuz revolyusiyasi (“Xalq qirolni qatl qildi”) haqida yozgan edi. An’anaga ko‘ra Vietnam monarxiyasi konfutsialikka suyanadi va katolik ta’limotiga qarama-qarshi ta’limot sifatida konfutsialikni obro‘sini ko‘tarishga harakat qiladi.

XIX asrning 20-50-yillarida hokimiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan muhofaza qilish oqimi kuchayib bordi. Xalqqa mo‘ljallangan og‘zaki vietnam tilida ko‘plab didaktik (nasihat) poemalar yaratildi. Konfutsialik ta’limoti qoidalar haqida (“Lunuy”, “Shiszin”, “Shuszin”) asarlari she’rlar shaklida aytib berilar edi.

Nasihat kitoblari she’rlarda yozilib, ularda konfutsialik etik qoidalarga so‘zsiz amal qilish targ‘ib qilindi: masalan, Go Szining “O‘g‘il hurmatining yigirma to‘rtta namunasi” deb nomlangan konfutsialik asarini shoir Li Van Fik (1785 – 1849) she’riy shaklda yaratdi. Didaktik poemalar xulq-atvorning namunalarni ko‘rsatib berishni ko‘zlagan edi (misol tariqasida o‘ziga xos xususiyatlarga ega qofiyali yozilgan “Oilaviy nasihatlar qo‘srig‘i”ni keltirish mumkin). Bu poemalarda gohida salbiy, lekin hayotiy va o‘ziga xos bo‘lgan namunalar keltirilgan, ularning ko‘pi maishiy aniqlikka taalluqli bo‘lgan. “She’rlarda bayon qilingan ayollarga nasihatlar” muallifi noma’lum asarida shunday nasihatlar mavjud: “Yosh qizlarga pagodaga borishga hojat yo‘qdir / Biri ko‘z urushtirar, boshqasi – jilmayib kular”. Shu bilan birga poemada kambag‘allar himoyasiga aytilgan satrlar bor: “bir kosa guruch uchun u bir kosa ter to‘kadi”; noma’lum muallif hamma narsadan benasib qilinganning “terisi va badani temirdan va misdan qilinmagan” deb, unga rahm qilishga chaqirgan edi.

Imperator saroyi konfutsialik g‘oyalar va etikasining tarqalishini rahbatlanirib, ayniqsa, tiong musiqiy teatriga bu g‘oyalar chuqur kirib borgan: personajni tasvirlashda asosiy urg‘u monarxga itoat qilish va bo‘ysunishiga qo‘yilgan. Saroydagi tiong murakkab shakl yo‘lidan borgan: masalan, umumiylar bilan birlashgan “O‘n ming xazina” spektakli o‘z ichiga piesalar siklini olib, sahnada yuz kecha namoyish etilgan.

O‘sha davr adabiyotidagi muxolifat oqimi eski Le sulolasi (Le sulolasi “oltin asr” degan nomini olgan) va Chin knyazlariga sadoqat qilgan ajdodlar misolida namoyon bo‘lgan. Bu shoirlarning hayotga bo‘lgan munosabati passiv, buddizm ta’sirida g‘amgin kayfiyatda bo‘lgan, voqelik tush kabi xom xayol bo‘lib ko‘rinar edi. Nguyen Xyui Xoning (1783 – 1841) “Shaftoli saroyidagi tush tasviri” poemasida qahramon tushida imperator Le siymosida ifodalangan

go‘zal ayol bilan uchrashadi. Shoira Nguyen Txi Xin (yashash yillari noma'lum) o‘z she'rlarida o‘tmish, Le imperatori va uning saroyi buyuk bo‘lganligi haqidagi xotiralarga cho‘madi. Uning noaniq ro‘yolar bilan hayratda qoldiradigan nafis she'rlari qadimgi, rangi o‘chgan rasmlarga o‘xshatishadi.

Umumiy qilib aytganda, mazkur davr adabiyoti realistik voqelikka, atrofdagi kundalik narsalarni tasvirlashga ko‘proq moyil edi. Nasriy poema ideallashtirilgan qahramon o‘rniga boshqa tasvirlarga murojaat qila boshlaydi. Li Van Fik “Sara (tanlangan) bo‘lidan haqida hikoya” poemasida qarama-qarshi qo‘yish g‘oyasi yaqqol ko‘rinib turadi, shoir atayin oddiy qahramonni ideallashtirilgan qahramon qarshisiga qo‘yadi. Muallifi noma'lum “Uddaburon mug‘ombir haqida hikoya” poemasida past tabaqadan chiqqan qahramon ayyorlik bilan uylanadi, sevgi va mol-mulkka erishadi, uni ustidan mazax qilganlarni (“yovvoyi tovuq xumo qush bilan ortishishga qanday jur’at etadi!”) hayron qoldiradi. Qahramonlar obrazi pasayib ketish holatini “Yutuqlar haqida oltita hayvonlarning bahsi” majoziy poema misolida ko‘rish mumkin. Unda Vietnam jamiyati vertikal “kesimda” berilgandek bo‘lib, ho‘kiz – bu og‘ir mehnat qilayotgan dehqon (“belni so‘nalar chaqadi, oyoqlarga zuluklar yopishadi”), it – bu soqchi, taka – reestrlar saqlovchisi, ot – bu lashkarboshi va boshqa hayvonlar misolida ko‘rsatilgan. Bularning har biri o‘z yutuqlari bilan maqtanadi, qozi sifatida ko‘rsatilgan ularning xo‘jayini tortishuvni hal etadi. Bu vaziyatda muallif tabaqalar o‘rtasidagi nizolarni silliqlashtirishga o‘rinayotgani yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Prozalashtirish (ya’ni oddiy lashtirish), past qatlamdagи voqelikka murojaat qilish poemaning qabul qilingan tushunchalardan uzoqlashishga olib keldi. Shu kabi yo‘nalish (tendensiya) boshqa poetik janrlarni rivojlanishini belgiladi. Hayotga jiddiy qarashlar Li Van Fikning “Tanga” she’rida yaqqol ko‘rinib, unda taxtni

mo‘ljallayotgan amaldor shaxs barcha narsaga mol-mulk, katta pul orqali erishganligi tan olinadi³⁶.

Mazkur tendensiya kambag‘al toifasidan kelib chiqqan shoir Nguyen Kong Chi ijodida o‘zgacha o‘z aksini topgan. Uning artistlik, erksevar tabiatiga erta namoyon bo‘lgan. U yigitlik chog‘ida teatr guruhiga a’zo bo‘lib, Vietnamda xush ko‘rilmaydigan kasbga ega bo‘ldi. Keyinchalik u amaldorga aylandi, biroq faol va hech kimga tobe’ bo‘lmaslik fe’li (xaraktyori) tufayli bir mansabda ko‘tarilar, bir mansabdan bo‘shatilar edi. Vietnam maqolidagidek, Nguyen Kong Chi “bir filning beliga chiqar, bir itning ustida bo‘lar” edi. Oltmish besh yoshida uni hattoki askar darajasigacha pasaytirib yuborishgan. Nguyen Kong Chi saroy konfutsialikni qayta tiklash va obro‘sini mustahkamlash davrida yashagan. Shuning uchun u konfutsialik etikasini ideallashtirish kuychisi sifatida namoyon bo‘lgan, lekin shu bilan birga insonning ajoyib xislatlarini ham yuqoriga olib chiqqan. Vietnam adabiyotiga o‘zi olib kirgan *kachu* janridagi qo‘shiq qilib aytiladigan she’rlarda epik botir (qahramon)ni eslatadigan tasvirini yaratgan. Shon-sharafga erishish uchun bu qahramon botirlik qilishga intiladi. Nguyen Kong Chining qahramoni irodali, kuchli bo‘lishi bilan birga saroyda talab qilinadigan so‘zsiz itoat qilishdan xoli emas. Shoirning katta qahramonliklarga bo‘lgan chanqog‘i qoniqmaslikka sabab bo‘lgan. “Arqondan tirmashib chiqayotganga maqtov” satirik asarida shoir amaldorlarning behuda ishlarini majoziy tasvirlaydi (“Qani ko‘ramiz, kim bo‘sh keladi, kim yuqoriroq tirmashib chiqadi”).

Vietnam tarixining yangi davrostonasida ramzga aylangan yangi arbob – Kao Ba Kuat (1809 – 1855) paydo bo‘ldi. U amaldorlar safidan dehqon qo‘zg‘olonlari tomoniga o‘tgan ko‘plab

³⁶ Никулин Н.И. Прозаические жанры: [Вьетнамская литература: История всемирной литературы. Т. 5. Раздел десятый. Глава четвертая] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 5. — 1988. — С. 631.

konfutsialiklardan biri bo‘lgan. Elchixona tarkibida Indoneziyaga safar qilgan chog‘ida, G‘arb olimi bilan tanishdi, par va elektr quvvati asrida Vietnam qanchalar qoloq ekanini ko‘rdi. Kao Ba Kuat XIX asrning ikkinchi yarmida mamlakat yangilanishini, eskirgan davlat institutlarini yevropalik yangi namunalari bilan almashtirishni talab qilayotgan islohot harakatining asoschilaridan biri bo‘lgan deyish mumkin. Yevropaliklar bilan aloqalar va ularning turmush tarzi bilan tanishuv konfutsialik aqidalarning mustahkamligini yanada zaiflashtirdi. Dastlabki davrlarda yevropaliklarning turmush tarzi, urfodatlari vietnamlik adabiyotchilar e’tiborini o‘ziga tortadi. Kao Ba Kuat birinchi bo‘lib yevropalik ayolga o‘zining “Okean ortidagi ayol haqida she’rlar” lirik va do‘stona she’rini bag‘ishlaydi. Shoir vietnamliklar uchun g‘ayrioddiy bo‘lgan tafsilotlarga diqqat qilar edi, masalan, vietnamliklar iste’mol qilmaydigan sutning oq ayol qo‘lidagi bir stakaniga urg‘u beradi. Yevropa texnikasi mo‘jizalariga bo‘lgan shoirning qiziqishlari “Sariq soqollilarning olovli kemasi haqida qo‘shiq” she’rida o‘z aksini topgan (“chopayotgan ot kabi tezyurar”, kema “yelkan va eshkaksiz yuradi, odamlar uni itarmaydi ham, tortmaydi ham”). Bu she’rlarda vatanparvarlik g‘oyalariga hukm surayotgan mafkuradagi konservativ feodal g‘oyalariga qarama-qarshi qo‘yilgan edi.

1858 - yilda fransuz mustamlakachilar Vietnamga bostirib kirganda mamlakatning mustaqilligi uchun uzoq muddatli urush boshlanadi. Qo‘lga kiritilgan mustamlakalar fransuzlar tomonidan o‘zlashtirila boshlandi. Mazkur davr adabiyotida qarama-qarshi tomonlarning tortishuvi o‘z aksini topadi. Vietnam islohotchilarining vatanparvarlik dunyoqarashlari bilan feodallikka, konfutsialik aqidalarga qarshi kurashish olib boradilar. Nguyen Chiong To (1828 – 1871) tarixiy taraqqiyot g‘oyasini ilg‘or surib, qadimgi kitoblar va konfutsialik ideallashtirishni behuda ish deb e’lon qiladi. Islohotchilar o‘z publisistikasida befoyda kitobchilarga faol, amaliy

bilimlarni egallagan inson tasvirini qarshi qo‘yishgan. Ba’zan yangi mavzu eski an’anaviy shakllarda bo‘lgan: publitsist Nguyen Lo Chat (1852 – 1895) konfutsialiklarning uslubidan foydalanib, o‘tmishdan suyanchiq, tarixiy o‘xshashlik izlagan, biroq o‘xshashlikni endi konfutsialik asarlardan emas, balki Yevropa – Angliya va pyotrlik Rossiya tarixidan olgan. Pyotr birinchi tasviri o‘sha davrning ilg‘or idealini shakklantirishda muhim rol o‘ynagan.

Nguyen Chiong To va uning fikrdoshlari xalqdan uzoqlashib, imperatorning quch-qudratiga ishongan bo‘lsalar ham imperatorga yo‘llagan maktublarida konfutsialik sxolastikani rad etganlar. Vietnam madaniyatining butun tizimida Yevropa bilan bo‘lgan aloqalar o‘z ta’siri o‘tkazib kelgan. Olim, bir yevropalik ilmiy jamiyatlarning a’zosi, publitsist va poliglot (ko‘p chet tillarini biluvchi) Chiong Vin Ki (1837 – 1898) mustakamlachilar bilan yaqin aloqada bo‘lib, ularning mafkurasi va siyosati targ‘ibchisi bo‘lgan. Uning nomi bilan malakatda gazetani nashr etilishi bog‘liq edi: 1865 - yildan boshlab Saygonda “Zyadin bao” birinchi gazetasi chiqa boshlagan. Vietnam tilining birinchi grammatikasi va yevropalik andozalar bo‘yicha yozilgan Vietnamning birinchi tarixi uning qalamiga mansub. U lotin alifbosidagi (kuok ngi) yozuvi tarqalishiga ko‘maklashgan, folklor asarlarini yozib olgan va nashr etgan, yangi Vietnam badiiy nasrning ilk bosqichi bo‘lmish ocherklarni yozgan.

Umuman olganda, adabiyot an’anaviy shakllar doirasida rivojlanib bordi; janrlar eski tizimi ichida o‘zgarishlar ro‘y berdi, tizim ichida ularning joylari o‘zaro o‘zgara boshladи. Ajoyib narsalar haqidagi qissalar yo‘q bo‘ldi, deyarli nasriy poemalar (chuyenlar) yaratilmadi. Xitobnomalar, murojaatnomalar janri keng tarqala boshladи; o‘tkir publitsistik bahslar (polemika) keng olib borildi. Adabiyotda yanada demokratlashtirish yo‘nalishi (tendensiya) jarayoni kuzatilib, til og‘zaki tilga yaqinroq bo‘la boshladи, biroq

xanvan (venyan tilining vietnamlashtirilgan varianti) hamon muhim rol o‘ynab kelar edi³⁷.

Nguyen Din Teu

XIX asrning o‘rtalari Vietnamda Ozodlik harakati adabiyoti ham paydo bo‘ldi. Bu adabiyotga vatanparvarlik xis-tuyg‘ulari, oddiy odamga bo‘lgan e’tibor xos bo‘lib, u bosqinchilarga qarshi turgan xalqni birlashishiga da’vat qilib kelgan. Taniqli shoir Nguyen Din Teuning ijodi ozodlik harakati adabiyotining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Uning “Lyuk Van Tien” poemasi 1864 - yilda fransuz tiliga tarjima qilingan. “Lyuk Van Tien” poemasi bosh qahramon ismi bilan nomlangan bo‘lib, avtobiografik xususiyatlarga ega bo‘lsa ham poema klassik an’analar asosida yaratilgan. Shoirning o‘zi ham, bosh qahramon Lyuk Van Tien ham onasiga motam vaqtida ko‘r bo‘lib qoladi – shunchalar o‘g‘ilni onasiga bo‘lgan sevgisi va judolik alami katta ekan; shoirga ham, poemaning qahramoniga ham qallig‘ining ota-onasi og‘ir dardga chalinganligini bilgach, rad javobini berishadi. Qahramon shoirning fikr va maslaklarini ifoda qilishi ham o‘xshashdir. Biroq Lyuk Van Tienni muallifning ikkinchi “men”i deb hisoblash noto‘g‘ri, u xayoliy tasavvur natijasida vujudga kelgan badiiy obraz. Poema qahramonona va optimistik (kelajakka umid bilan qarash, nekbinlik) ohangda yakunlanadi: yana ko‘rishni boshlagan qahramon (buni ko‘chgan ma’noda ham tushunish mumkin – u endi odamlarni qalbida berk bo‘lgan narsalarni ko‘rishga qodir) botirlik qilib, dushmanlarni quvib chiqaradi va Keu Nguet Nga bilan

³⁷ Никулин Н.И. Прозаические жанры: [Вьетнамская литература: История всемирной литературы. Т. 5. Раздел десятый. Глава четвертая] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 5. — 1988. — С. 631.

o‘z baxtini topadi. Shu jihatni bilan poema xalq rivoyatiga yaqindir. Ushbu poema Vietnamning janubida juda ham mashhur.

Nguyen Din Teuning she’rlari va nasriy-nazmiy /prozopoetik/ (vazn va qofiya xususiyatlariga ega) asarlari xalqning chekayotgan azob-uqubatlarini ko‘rsatib, zolimlar bilan kurashishga undagan. Shoiring nasriy-nazmiy asarlarida, masalan “Kanzuokeda haloq bo‘lgan askarlar xotirasiga” (1861) asarida o‘sha davr hayoti va an’analar uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin. Unda vietnam adabiyotida birinchi bor qo‘zg‘olonchi jamlanma obrazi (tasvir) – yaqinda omochni tashlab, qo‘liga qurolni olgan xalq jangchi (askari) obrazi yaratilgan. Asarning dramatizmi halok bo‘lgan qahramonlar haqidagi ohanglar bilan kuchaytirilgan. Dehqon qurol-yaroq nimaligini bilmaydi, “hattoki ko‘rmagan ham, bilmaydi ham, nayza otishni, quroldan otishni, bayroq tagida yurishni”, lekin u mustamlakachilardan cho‘chimaydi ham, qo‘rqmaydi xam.

Shoir va tabib Nguyen Din Teu asarlari kitobiga o‘ziga xos bo‘lgan, she’r shaklida syujetli hikoya bilan ramkalangan (ya’ni she’rlar hikoyalar bilan ramka kabi o‘ralgan, chegaralanib kelgan) “Tabiblik haqida baliqchi va o‘tin qiluvchi (sarjinchi) larning suhbatlari” ajoyib tabobat devoni kiritilgan. Bu kitob savodsiz vietnam dehqonlariga aniq amaliy yordam berish, “tabiblik” qilish san’atining asoslarini o‘rgatish bilan birga vatanparavar bo‘lishga da’vat qilgan.

Nguyen Din Teuning vatanparvar she’rlariga majoziylik (allegoriya) xosdir. Ular o‘ziga xos ma’qullik bilan ajralib turadi:

Yaxshilikning vazni qanchalik og ‘ir bo ‘lmasin,

qayiq oson (yengil bo ‘lib) yuradi.

*Mo ‘yqalamni titib yubormaysan, hoinlarni
tomog ‘iga sanchib.*

Ushbu satrlar shoiring butun ijodila dastur sifatida qabul qilinadi.

O‘sha davr adabiyotida shoir-satiriklar ijodi alohida o‘rin tutgan. Mustamlakachilikning tartiblari, mustamlakachilarga xizma qilayotgan hoinlarningadolatsizliklari, imperator sayroyni marionetkalar (qo‘g‘irchoqlar) to‘dasiga aylantirib yuborish – bularning hammasi fosh qiluvchi satirik she’riyatni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bu oqimning eng yorqin namoyondalari Nguyen Kxyuen (1835 -1909) va Tu Siong (1870 – 1907) lar hisoblanadi.

Nguyen Kxyuen mustamlakachilar olib kirgan mamlakatdagi o‘zgarishlarni juda azob-uqubatli holat deb qabul qilgan. Uning ba’zi she’rlari tirik narsani tirik bo‘lmagan, haqiqiy narsani o‘yinchoqli narsaga qarshi qo‘yish usulida yaratilgan. “Toshli haykal” she’rida u Vietnamning kuchsiz va mamlakat taqdiriga befarq bo‘lgan feodal hukmdorlarini ibodatxonalar darvozalarini qo‘riqlab turgan haykallarga o‘xshatadi. Vietnam adabiyotida imperator saroyi o‘z kuchini yo‘qotishi zaif va iqtidorsiz, davlat taqdirini hal qilish huquqiga ega aktyorlar bilan taqqoslash an’anasi Nguyen Kxyuendan boshlangan edi (“Eski aktyor xotinining so‘zi”). Bundan tashqari Nguyen Kxyuen manzara (peyzaj) lirikasini yaratgan, uning dehqonlar taqdiri haqidagi she’rlari vietnam she’riyatida demokratlashtirish davrini ochib bergen.

Tu Siong o‘zining she’rlarida ona shahri Namdinda o‘zgarishlar haqida yozgan. “Ko‘mib tashlangan daryo” she’ridagi majoziy satrlarni dasturiy deb hisoblasa bo‘ladi:

*Qachondir bu yerda daryo xalqasi edi,
hozir esa – jo ‘hori va batatlar,
Turibman va bexos hayron bo ‘layapman:
qaerdan bu yerda uylar va dala?
Sokinlik... Qurbaqalarning vaqillashi qulogqa chalinar.
Cho ‘chib tushdim: kimdir sekin yonimda
Parom haydovchini, menga tuyuldi, chaqiryapti,*

Hademay u ovoz beradi, yetib keladi.

(G.Yaroslavseva tarjimasi)³⁸

Tu Siong qadimgi an'analarning ashaddiy tarafдори bo'limgan. Avvalgi axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish "Ularning yangi yildagi tilaklari" she'rida o'z aksini topib, shoir uchun uncha xush bo'limgan izzat-hurmat va baxt-saodat tilaklari kinoya (kesatish) bilan ifodalangan. Tu Siong she'rlarida mustamlakachi amaldor, hukumatga yaqin bo'lgan mug'ombir, uddaburonlar, hayosiz savdogarlarning fosh qilingan tasvirlari ko'rinib turadi.

Vetnamning XIX asr ikkinchi yarmi she'riyati zamonaviy turdag'i adabiyotga o'ziga xos yo'l bilan, yangi hayotiy mavzu, dunyon anglash (sezish), yangi fikr va g'oyalar bilan to'lib borardi, biroq, eski janr ramkalari (doirasi)da rivojlanishni davom ettirar edi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Nasriy poema janrining paydo bo'lishiga nimalar turtki bo'ldi?
2. Vietnam adabiyotida nasriy poema qanday tamoyillar asosida yaratilgan?
3. Didaktik poemalar haqida nimalarni bilasiz?
4. Nguyen Din Teu ijodi va u yaratgan asarlar tahlili.

Yangi davrdagi adabiyot

Darsning maqsadi: Talabalar tasavvurida yangi davr vietnam adabiyoti paydo bo'lishi, rivojlanishi va yangi adabiy oqim va yo'nalishlar haqida amaliy tushuncha hosil qilish.

³⁸ Никулин Н. И. Прозаические жанры: [Вьетнамская литература: История всемирной литературы. Т. 5. Раздел десятый. Глава четвертая] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 5. — 1988. — С. 631.

Tayanch so‘z va iboralar: hikoya, ocherk, doston, proza, novella, drama, tanqidiy realizm, realistik, kaylong, teatr, kuokngi, teo, romantizm.

Ishchi sinfi va burjuaziyaning paydo bo‘lishi, Vietnamni fransuz mustamlakachilar tomonidan jadallik bilan o‘zlashtirishi, milliy-ozodlik harakatining rivojlanishi, Hindixitoy kommunistik partianing tashkil topishi, bu tarixiy shartlarning intilishlari adabiyotning rivojlanish davriga va Oktabr Inqilobi ham adabiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Bu qiyin jarayonlar vietnam adabiyotining yangi shakilni yaratilishiga turki bo‘ladi. XX asrning 20-30-yillaridan boshlab bu shakllar sezilarli darajada eski urf-odatlarning o‘zgartiruvchanligini bildirdi. Adabiyot janrlari o‘zgaradi. O‘quvchilarning xohishlari va qarashlari o‘zgarib turadi. O‘quvchilar doirasi ham o‘zgarib boradi. Eski adabiyot janr doirasiga yangi mazmun sig‘may qoladi. Chuyen janri yo‘qolib, hikoyali dostonlar, katta va o‘rta hikoyali janrning oldingi ekvivalent sifatida xizmat qila boshlaydi.

Vietnam tilining dastlabki adabiyotida deyarli badiiy proza bo‘limgan, XX-asrning 20-30 - yillarda Vietnamda juda tez zamонави hikoya janri shakillanishi kuzatiladi. Jumaladan: novellalar, ocherklar, asarlar, “so‘zlashuv” dramalar (musiqaviy drama janrga nisbatan farqli). Yangi badiiy proza nafaqat she’riyat bilan tenglashib turadi, balki u bosh o‘ringa loyiq deb tan olinadi.

Adabiyotchi Le Chang Keu hisoblashicha: “nashr qilinadigan hamma asarlardan eng sotiladigani “badiiy proza” bor kitoblar”.

Zamonaviy nasr va dramaturgiyaning shakillanishi

Zamonaviy adabiyot, ierogliflardan emas, balki “kuok ngi” alfavit yozuvidan foydalangan va bunday o‘zgarishlar faqat yuzaki bo‘lgan. O‘quvchilar doirasi tobora demokratlashib borgan, bular: o‘quvchi yoshlar, ziylilar, shahar va qishloq burjuaziyasi. Yozuvchi ularning xohish va qarashlarni hisobga olishi darkor edi, ayniqsa yozuvchilik mehnati, yashash mambai bo‘lsa.

Vietnam adabiyotining xalqaro aloqalar xaraktyori ham o‘zgardi: u alohida yakkalanib rivojlanishni tugatdi. Oldin adabiyot faqat qo‘shti davlatlar bilan bog‘lanib rivojlanar edi. Endilikda jahon adabiyoti bilan tanishish jarayoni boshlanadi, ayniqsa fransuz adabiyotga yo‘naltirilgan va siyosiy tomonidan ta’sirlangan.

Vietnamda “Yangi adabiyoti” rivojlanishi nisbatan kech boshlanganligi va mustamlaka va yarim feodal davlatda bo‘lgani uchun, tabiiyki boshqa millatlarning xususiyatlarining va xaraktyorlarining ta’siri ularga qarama-qarshi edi. Yangi adabiyot xorijiy mamlakatlaridan progressivligni oldi.

XX asrning 20-yillar adabiyotda muhim voqealardan biri bu “fuqorolar” she’riyati paydo bo‘lishi, she’rlarda insonni math qilish edi. Cherkovning diniy aqidalarini nazariy asoslashga qaratilgan quruq safsatadan iborat o‘rta asrlar falsafasini rad etib, asl bilimlarga intilishdi, buni esa faqat yevropaliklar ilmi bera olar edi. Fikrlarni ma’rifiy yoritmoqlik, o‘zini qat’iyligini yo‘qotib, 30-yillar adabiyotida ta’lim-tarbiyaviylikni paydo qildi, bu adabiyotning an’anaviy nafosat qonun qoidalarini tutashtirib, badiiy adabiyotning ta’lim-tarbiyaligini namoyon qilar edi.

Biroq, zamonaviy vietnam novellalariga asos solgan Fam Zyui Ton (1883-1924), 1918-1919-yillarda o‘z asarini yaratadi va “Nam faung” jurnalida nashr qildiradi, u fransuz realistik novellalarining

yozish tajribasiga asoslanib, asarida nasihatomuz maslahatgo‘ylikni va real hayotni tasvirlagan.

“Tirik qolsa yoki o‘lsa - baribir” (Shang tet mak bay, 1918) mashhur hikoyasida: yomg‘irlar mavsumining kechalaridan birida daryo suvi g‘oyat baland ko‘tarilib, to‘g‘onni buzib, dala va uylarni suv bilan bosib vayron qilishiga tahdid qilayotganligi tasvirlangan. Bunga qarshi qishloqdan oddiy dehqonlar olib kelinadi, ular to‘g‘onni mahkamlashga bor kuchlari bilan harakat qilishadi. Shu paytning o‘zida qishloq amaldori qulayliklar to‘la jamoa uyida dam olar edi va o‘z xizmatkorlari bilan qizg‘in o‘yinlar uynardi. Suv to‘g‘onni yorganda, amaldor yoniga bir dehqon yugurib kelib, bo‘lgan falokatni xabar qilmoqchi bo‘lganida, amaldor uni eshitmasdan, unga mushukni xaydaganday qo‘lini silkitadi. Amaldorlar – “xalq otalari” oddiy xalqning taqdiriga va g‘amlariga mutloq befarq edilar (Tirik qolsa yoki o‘lsa-baribir). Muallif o‘z o‘quvchilarni shunday xulosaga olib keladi. U nafaqat aniq va ob’ektiv hayotni keltiradi, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularga izoh beradi:

“O, bu qora-qizil 120 ta o‘yin kartalari qanday kuchki, ular amaldorni shunchalik avrab qo‘ydi? To‘g‘on yorilib ketsa ham unga baribir. Dahshatli daryo suvi uning hayoliga kelsa ham, karta o‘yinidagi bitta makkorlik va qiziq yurishi hamma narsadan ustunroq, kuchliroqdir...

Qarang-a! Amaldor gerdayib o‘tirgan paytda, uni chap va o‘ngida o‘tirgan va o‘rab turgan xizmatkorlari, qo‘riqchilari birortasi ham unga: dahshatli tahdid yaqinlashayotganini, 1000 qayg‘u-g‘am tushishini va 10 ming falokat bo‘lishi haqida aytadimi, o‘ylab ko‘ring.

Unga baribir! Xalq ... unga xalqni nima qizig‘i bor! ”.

Hikoyada keskin ijtimoiy farq, ijtimoiyadolatsizlik o‘tkir ko‘rinadi. Fam Zyui Ton realist yozuvchining sezish qobilyati bilan amaldor obrazini ijtimoiy o‘rnini, xaraktyorini to‘la ochib bera olgan.

Vietnamda “tanqidiy realizmning xabarchisi” bulgan Fam Zyui Ton, ijodida oldinga ketib qolgandek, vietnam realistik prozasining kelajakda bo‘ladigan ayrim xususiyatlarini ko‘rsatgan, ayniqsa realistik novellalarida. Fam Zyui Ton fransuz tilini yaxshi bilgan va uning hikoyalari fransuz novellalar ta’siri ostida yozilgan.

Fam Zyui Ton Vietnamning oldingi adabiyot an'analarini davom ettirib, voqealik negizidan (kanvu) foydalangan, lekin bu asarida yangi davrga mansub va g‘arbdan olingan xususiyatlar bor: «Tirik bo‘lsa yoki o‘lsa - baribir», A.Dodening «Bilyard partiyasida» novellasiga to‘g‘ri kelsa, unda «Sho Kxan» (1919) novellasi, Gi de Mopassanning «Pridanomu» novellasiga to‘g‘ri keladi. Hamda obrazni yaratishda psixik va tasvirlash qonunlarini ham olganlar. Lekin bular hammasi vietnamcha uslubga o‘tkazilgan, hikoyaning nomi ham “Sho Kxan” (bu aldamchi va yo‘ldan uradigan odam Nguyen Szu “ruhning chavoqlangan oh-vohlari ” haqida bo‘lib, bu doston o‘qitilishga qaratilgan), va bu vietnam adabiyotining an'anaviy uslubiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan. Fam Zyui Tonning hikoyalarini realistik tasvirlari, ularning ajoyib aniqligi, milliy koloriti, fransuz novellarining xaraktyori bularning hammasi uning ijodiy o‘zlashtirish tajribasi haqida so‘zlaydi.

Fam Zyui Tonga zamondosh bo‘lgan yozuvchi Nguyen Ba Xauk (1857-1921) o‘zining nasihatgo‘yligi va ibratligini asarlarida namoyon qiladi. U xizmatchi feodal oilasidan chiqqan, eski Vietnam maktabi ilmini olgan edi. 1918-1921-yilda nashr qilingan hikoyalarida u, mustamlakachilik tartiblari bilan bog‘liq bo‘lgan krizisni o‘tayotgani va o‘zi yashaydigan oliy sinf doirasining taqdirini birinchi bo‘lib ko‘rsatishga intilgan. Lekin gap shundaki, uning o‘z sinfiga sodiqligi uni bu sinf doirasidan chiqib ketishiga olib keldi. Vietnam yozuvchilaridan aynan Nguyen Ba Xauk birinchi bo‘lib ishchi sinf hayotini tasvirladi, ishchi qiz obrazini yaratdi (“Endi turmush

qurganning birinchi kechasi” – “Keu tyuen mot toy ngqoy tan xon”, 1921).

Zamonaviy Vietnam adabiyotida novellalardan so‘ng yana bir yangi janr – zamonaviy (yoki “so‘zlashuv”) drama kirib keldi, u boshida to‘g‘rida to‘g‘ri milliy yo‘nalishlar bilan, hamda mustamlakachilikning yarim feodal jamiyatining jirkanchligi bilan bog‘liq edi.

Yevropalik inkorlovchi rasm-rusumlari va Vietnam patriarxal hayotini komillashtirish bu pyesa janrni xaraktyorlaydi. XX asr boshlarida drama shakllanishini boshlanganligiga qaramasdan, unga asosan Yevropa mumtoz dramaturgiyasi, ayniqsa Moler ta’sir qilgan. 20-yillardagi vietnam dramaturlariga, fransuz komediografning mumtoz nasixatgo‘yligi va satirik o‘tkirligi, yuqori tabaqalari va imtiyozlar bo‘lgan guruhlarining gunohlarni va xurofotlarni fosh qilishga qaratilganligi yaqin edi. Xalq musiqa “teo” teatrning tajribasi ham birinchi vietnam dramaturlari uchun muhim ahamiyatga ega edi. Teoning qat’iy amplualari bir xil paytlarda “so‘zlashuv” dramaga ko‘chirilib ketardi, salbiy qahramonlar ham bo‘rttirib tasvirlash uslubi bilan farq qilar va tomoshobinlarni kuldirmoq ularning asosiy vazifalaridan biri edi.

1921 - yilda xanoy “Xiu Txan” jurnalida Vu Din Long (1960) “Zaharli kosacha” (Ten txuok dok) pyesasi nashrdan chiqqan, kechroq shu yili, pyesa sahnalashtirilgan. Pyesada merosni talon-toroj qilgan oila boshi, amaldor Txu obrazi ko‘rsatilgan. Oilaning ahvoli, Txuning xotini va onasi, kolgan pularni folbin va jo‘digarlarga sarflashganligi uchun yanada yomonlashib ketadi. Txu, uyni qarzlarga tortib olinishini bilib, zaxar ichish qaror qiladi, uni, kirib qolgan, va zaxarni tortib olgan, do‘sti o‘limdan qutqaradi. Shu payt xabarchi kelib, akasidan katta mablag‘li chekni unga beradi.

Pyesani muallifi tejamkorlik (boshlang‘ich kapital shiori), va tarbiyaviy nasihatlarga qizg‘onmagan: an’anaviy axloqdan ozodligi

natijasida, axloqni bo‘zilishiga, pasaishga olib keladigan tasvirlarni chizish bilan, u puritanlik (odobli, insofli odamlar) odob-axloqlarini tasdiqlar edi.

Nam Siong bizga tanish tarbiyaviy rejada yozilgan pyesasi “Annamadan yevropalik janob” (“Ong Tey Annam”, 1930). Yosh litsensiat Len, Fransiyada bo‘lgan o‘qishdan butunlay fransuzlashib qaytib keldi. U o‘z ona tilini, vatanining urf-odatlarini esidan chiqardi. Hamma vetamliklarga yuqoridan qarardi, hatto o‘z ota-onasi bilan tarjimon orqali gaplashardi. Pyesa muallifi nafaqat kaltafahim Len ustidan kulmoqda, hamda “eski” Vietnam axloqini Yangi burjuaziyalik, yevropalik axloqidan ustunligini ko‘rsatishga intiladi. Yozuvchining bunday maqsadli intilishlari milliy g‘ururni haqoratlanganligi bilan tushuntiriladi, tabiyki bunday munosabat mustamlakachilik tartibidan kelib chiqadi. Lenga mo‘ljallahgan qiz, odobli va aqlliy Kim Nin, Lenning to‘g‘ri kelmaydigan takliflarga rad qiladi bular: Len talablaridan yevropalik kiyimlarni kiyish, sochlarini jingalak qilish va har xildagi erkaliklarni o‘ziga lozim etish. Eski Vietnam qadriyatlarda muallif har tomonlama milliy g‘ururni va qadr-qimmatlikni ko‘radi. Pyesani yakuni taybiy: Kim Nin bilan ajrashganligidan xafa bo‘lgan Len xizmatkoriga narsalarini yig‘ishni buyuradi: “Fransiyaga qaytib, Yevropalik bo‘lish uchun”.

XX asr 20-yilning o‘rtalaridan 40-yilargacha Vietnam qadimgi san’at teatri mustamlaka yarim feodal jamiyatining Yangi shartlariga moslashish va o‘zgarish jarayonlarini o‘tkazvotgan edi. “So‘zlashuv” dramadan tashqari milliy an’analarga va yevropalik teatr va dramaturgiyasiga asoslanib yangi teatr shakllari paydo bo‘la boshladi.

Vietnamda mustamlakachilik hukmronligini o‘rnatalishi Vietnam an’anaviy teatrga halokatli ravishda ta’sir ko‘rsatdi. Filolog J.Korde aytishicha, 1914-yilda Xanoyda faqat 3 ta “tuzem”(tub aholiga mansub) truppalar bor edi, ularidan 2tasi “tiongi”ni va faqat 1tasi “teo”ni ijro qilishardi.

Boshida milliy teatrda kiritilgan yangiliklar faqat yuzaki bo‘lsa-da, ammo spektaklni yaratishda juda muhim bo‘lgan muhit elementlarini yo‘qota boshlagan. (Dekaratsiyalar paydo bo‘ldi. Ijrochilarning oldingi oddiy va kamtar kiyimlari o‘rniga rangli va yorqin teatr kostyumlari keldi. Spektaklning musiqaviy mazmuni boyitildi).

1923-1924-yillarda Nguyen Din Ngi(1893-1954) dramaturg nomi bilan bog‘liq bo‘lgan teo teatrining islohatlari o‘tdi. Ayniqsa spektaklning adabiy bo‘limiga katta e’tibor berildi.

Oldinlar ijrovchilar ko‘pincha imprivizatsiya qilishadi. Buni sabablaridan tomoshabinlarning xoxishlari tez o‘zgarib turgani uchun va bu xol ko‘pincha aktyorlar orasida raqobatni keltiradi va imprivizatsiyalar ba’zilarda “uch olish”ga xizmat qiladi; bir ijrochi ikkinchisiga kutilmagan luqmalar tashiydi. Endilikda hamma o‘z ijro etiladigan rosi asosidagi matnni yoddan bilishi kerak edi. Shu tariqa teo musiqa dramasi yangi **“Yangilangan teo teatri”** nomini oladi.

1914 - yildan 1945 - yilgacha bo‘lgan 30 yil ichida Nguyen Din Ngi 50 ga yaqin pyesa yozadi. U vatanparvarlik tuyg‘usi bilan to‘lgan tarixiy mavzuda teoni yaratdi: “Buyuk janub qahramonasi” (“Day-nam ni xiep”), “Qutirgan fil boshida” (“Kioy deu voy zi”), hamda hikoyalı dostonlar mavzusiga asoslangan pyesa. Lekin eng katta muvaffaqiyatga Nguyen Din Nginning zamonaviy mavzusida yozilgan komediya o‘id teo erishdi, bu teolar bitta siklida “Kulish portlashi” (“Chan kioy”)da birlashtirilgan. Teo janriga mansub satirik yo‘nalishini rivojlantirib, u oiladagi feodal qoldiqlari, manmanlik va tamagirlik burjuaziyasini ustidan kuladi: “Qadimgi o‘qituvchi” (“Ong do ko”), “Rashqdan davolanib ketish” (“Tia ben gen”) va boshqalar. Dramaturg hayotni kulgili voqealarni va paradokslarni mohorat bilan ko‘rsata olgan. Teatrda Nguyen Din Ngi bilan ko‘rinarli, mashhur aktyorlar hamkorlik qilgan, ulardan Nguyen Van Txin (1893) ning mashhurligi Vietnam chegaralaridan o‘tib ketgan.

Mustamlakachilik hukmronligi davrida, imperator poytaxti bo‘lgan Xyueda eski mumtoz musiqa drama markazi bo‘lgan “tiong”-sahnalashtiriladigan janrda o‘zini oldingi o‘rinni yo‘qotadi. Amaldor dramaturglar tiong teatrini oziqlantiradigan sodiqlik mavzulari ustidan qanchalik harakat qilishmasa, tiong amaldar teatri bir joyda turar edi. Avvallari tiongni jonlantirgan sodiqlik tuyg‘ular, vatanparvarlikka asoslangan g‘oyalaridan o‘tgan sodiqlik haqiqatlari- endi o‘zini ahamiyatini yo‘qotdi. Fransuz mumtoz tragediyasining-burchga bo‘lgan yo‘nalishiga qaratilishi (1924-1925 - yillar Kornelning “Sid” tragediyasini tionga o‘zlashtirdi) yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Tiong notanish boshqacha yo‘nalishlarning ta’siridan ham qochib ketolmadi. O‘sha paytda qadimgi san’atning o‘tkaziotgan inqiroz to‘g‘risida quyidagi e'londa batafsil aytilgan: “Xyuin Kining truppasi. Direktor- Jorj Fiok. Yangi “Tiong”. Ajoyib aktyor va aktrisalar ko‘p, ular qushiq aytib raqsga tushishadi, xuddiki Parij myuzik-xollarga uxshab”³⁹.

Shak-shubhasiz Xanoya ishlagan dramaturglarining eng muvaffaqiyatga erishganlari bu zamonga to‘g‘ri keladigan qahramona persanajlarini tarix o‘tmishidan olganlaridir. Tionglardan eng ko‘p qiziqish uyg‘otgani bu Xoang Tang Bining (1883-1939) “Eri uchun qasos va vatan oldidagi burch” (“Txu tyong no niok”), u qadimgi Ching jangavor ayollar to‘g‘risida edi. Sotqinlarning va o‘sha paytdagi tomoshabinlarning obrazlarini satirik izohlanishi aniq o‘ylarni keltiradi. “Qog‘ozda rangli dog‘lar bilan”(yoki qog‘oz rangli naqshlar b-n) (“Xao tien”), XVIII asrning dostoning mavzusi asosida yozilgan, Xoang Tang Bi xanvan ariyasidan butunlay voz kechdi va Vietnam so‘zlashuv tilidan foydalandi.

³⁹ Никулин Н. И. Прозаические жанры: [Вьетнамская литература: История всемирной литературы. Т. 5. Раздел десятый. Глава четвертая] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 5. — 1988. — С. 635.

Vetnam musiqa teatrning 3-ko‘rinishi – **kayliong** (“Yangilangan teatr”), u o‘zini shajarasini sayoq-sozandalardan boshlaydi, Nam-bo qishlog‘i va har xil bozorchalarda yurib tomoshalar ko‘rsatardilar va u I jahon urish yillarida tashkil topgan. Dastlab bu teatrda 1 ta aktyor butun o‘yinni, hamma rollarni, torli musiqa asbobni chalib turgan sozanda yordamida ijro etdi, so‘ng boshqa aktyorlar va grim paydo bo‘ldi, yana keyinroq esa professionalizatsiya va teatralizatsiya boshlandi.

“Yangilangan teatr” nomini olgan teatr (aslida u yangi janr edi) tez vaqt ichida Nam-bo shahrining aholisi orasida mashhurlikni qozondi. Sahnadan yangi ariyalar va qushiqlar yangray boshladи, ular prozali, she’riy va bir maromga kiritilgan dialoglarga muvofiq keladi. Dekoratsiyalar, sahnalar va pardalar paydo bo‘ldi. Musiqachilar bilan aktyorlar bir joyda o‘tirishmaydigan bo‘lishdi. Spektakl aktlarga bo‘lina boshladи. Yevropalik teatrdan olingan hamma yangiliklar nafaqat teatrning shaklni hamda butun spektaklning muhitini o‘zgartirdi. An’anaviy shartlardan voz kechish, “teatr imo-ishoralari”dan, aktyorlarning ijrolarida jonli ishonarlikni keltirdi. Yangi teatr tez vaqt ichida mashhur bo‘lib ketdi.

Kayliong repertuari tiong repertuarining olinishi va o‘zlashtirilishi natijasida shakllangan bo‘lib, ayrim dostonlar sahnalashtirilgan edi (“Ti Xay tikka o‘ladi” – “Ti Xay tet ding” Nguyen Zuning “chavoqlangan ruhning ox-vohlari” dostonini asosida yozilgan edi). Hamda bu repertuarga Karnelning “Sid”, Dyumas-sinning “Kameliyalı xonimlar” va boshqa fransuz avtorlarning roman va pyesai kirgan. Eng realistik va muvaffaqiyatli pyesa bu urf-odat to‘g‘risidagilar edi, ular o‘zi bilan katta satirik zaryadni olib kelar edi. Dramaturg Chan Xiu Changning (1906-1966 y.), “4 ta qusur” (“Ti do tiong” – 4 ta qusur deganda ichkilikbozlik, fohishabozlik, afyunni chakmoqliк va qimorbozlik nazarda tutiladi) va “Lan va Diep” (“Lan

va Diep") larda oilada feodal axloqdan qutilish to‘g‘risida aytib beriladi.

Keyingi davrda (1930-1945y) dramaturgiya adabiyotda kichkina rolni o‘ynay boshlaydi, 1-o‘ringa qissalar va romanlar chiqib oladi.

1925 - yilda Xoang Ngauk Fat (tug‘.1896 y.) ning qalamiga mansub bo‘lgan “To Tam” romani paydo bo‘ldi. Xoang Ngauk Fat vietnam adabiyotchilari, vietnam adabiyotining romantizm yo‘nalishining asoschisi deb hisoblashgan. Biroq ularning “romantizm” tushunchasi, yevropalik adabiyotidagi tushunchadan farq qilar edi.

Ratsionalistik ravshanlik sodda ishonchdan ajralmasdan osonlik bilan komillikga erishish (masalan bunday qilib vietnam tadbirkorining ustaligi yevropaliklar bilan raqobat qila olish, o‘z davlatini manfaatlariga ishlashini aytish mumkin) vietnam adabiyotining XX asr boshlariga xos bo‘lsa, 20-yillarning qarama-qarshiliklarining sezilishini boshlanishi “ko‘z yoshlar oqimi” deb nomlangan adabiyotini vujudga keltiradi. Ichki dunyoga chuqurlashishi, to‘g‘riroq sentimentalizmga tegishli bo‘lgan tuyg‘u xususiyatlariga asoslanishi bu adabiyotni xaraktyorlaydi. Ammo, Xoang Ngauk Fat ijodi izchil va poyma-poy bo‘lman: Agarda muqaddimasida u ehtiroslar va tez o‘tib ketadigan sevgi to‘g‘risida ogohlantirsa, roman o‘zida sevgini madh etadi va uni feodal axloqlariga qarshi qilib tasvirlaydi. “Baxtli xotima” hayotning qarama-qarshiliklarni bartaraf etishi va har doimdek qissali dostonlar bilan bog‘lanishi, oldingi adabiyotning katta epik janr asariga bu xosliklar bu asarda yo‘q. Roman xotira daftar shaklda yozilgan. Uni yozilish uslubi, ritmik proza uslubiga intilar edi.

Xo Bieu Tyan (1885-1958)ning ijodida ratsionalistik mohiyati sindiriladi, u 20-yillarning oxirida adabiyotga kirib keldi va butun hayoti davomida 60 ta roman va qissalarni yaratgan. Ko‘pincha uning persanajlari 1 yoki 1 nechta xaraktyor xususiyatlar egalari edi. Amaldorlarni, feodallarni, yirik yer egalarini, umuman oddiy xalqni

ezuvchilarni hirslarini, shafqatsizliklarini va buzuqligini ko‘rsatadi. Rahmdillik bilan yozuvchi Vietnam janubidagi dehqonlarni tasvirlaydi. Tabiatni tasvirlashda Vietnam janubining o‘ziga xosligini xaraktyorlaydi, bu o‘ziga xosligi tilidagi ajoyib shevasidir. Xo Bieu Tyan syujetning qiziqtirish darajasiga katta e’tibor beradi.

10-yillarning oxiri 20-yillarning boshida zamonaviy proza va dramaturgiya bosh janrlarning shakllanishi, eski dramatik shakllarni yangilanishi bo‘ldi. She’riyatda esa dadil o‘zgarishlar ko‘rinmas, lekin Tan Da shoirning ijodining oldinga siljishlari bundan darak beradi. U mumtoz she’rlarning tor doirasidagi tuzilishini o‘tkir sezadi:

*She’rlar - she’rlar
She’rlarda so‘zlar bor,
Qoziq qoidalarning temir doirasini tark etmaydi,
Qachongacha odamlar azob chekishda davom etadi!*

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Nima uchun Vietnam adabiyotida Yangi davr degan tushuncha paydo bo‘ldi?
2. Zamonaviy vietnam adabiyotida qanday janrlar paydo bo‘ldi?
3. XX asrning 20-yillari Vietnamda ijtimoiy vaziyat haqida so‘zlab bering.
4. Vietnam adabiyotida “kaylong” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?

1930-1945-yillar adabiyoti

Darsning maqsadi: Talabalarga 1930-1945-yillar vietnam adabiyotidagi o‘zgarishlar va yangi yo‘nalishlarni rivojlanish bosqichlari haqida amaliy tushuncha berish.

Tayanch so‘z va iboralar: inqilobiy adabiyot, uslub, folklor, frazeologiya, obraz, hikoya, yangi she’riyat, realistik, didaktik, prozalashtirish, kuokngi.

Fransuz koloniyası Vietnamda sotsiolistik printseplari asosida jamiyatni qayta qurish uchun kurashi va milliy ozodlik harakati birga borvotgan edi. Shuning uchun bu erda revolyutsion adabiyot to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy merosho‘r sifatida, antimustamlaka ko‘rashi tomonidan yaratigan adabiyot bo‘lib qolgan va u XIX asr 2-yarmidan paydo bo‘lgan edi.⁴⁰

Inqilobiy adabiyot paydo bo‘ldi, u proletariyat g‘oyalariga to‘lib ketgan, uning keyingi taqdiri esa ishchilar va milliy ozodlik harakatining tarixi va 1930-yil tashkil topgan Hindixitoy Kommunistik partiyasi bilan bog‘liq edi.

Birinchi publitsistik chiqishlaridan so‘ng (bir nechtasi “Pravda”(haqiqat)da 1924 - yildan boshlab nashr qilingan) Xo Shi Min 20 - yillarda fransuz tilida “bamruk drakoni ” pyesasini yozadi va bu pyesa Parij oldi rayonida bo‘lgan 1ta ishchi klubida qo‘yilgan. Xo Shi Min (1890-1969) qalamiga mansub, o‘ziga xos badiiy publitsistik xaraktyorda yozilgan kitobi “Kema halokatidan jabr ko‘rganining xotira daftari” (“Nyat ki tim tau”, 1930), bu asarida u bir vietnamlikni kema halokatidan ruslar tomonidan quqarilganligini va Sobiq Ittifoqqa tushib qolishini daftarida yozadi. O‘z ko‘zi bilan u yangi hayotning qurilishini ko‘radi. (“O mo‘jizalarning mo‘jizasi ! Qullar ozod odamlarga aylanishibdi!”).

⁴⁰ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. С.176.

30-yillar boshida revalyutsion she’riyatda Ngan kengash davr (1930-1931y.) ining she’rlari va qo’shiqlari muhim hodisa bo’ldi. Aynan shu vaqtida Vietnamda vietnam tiliga tarjima qilingan “internatsional” (xalqaro uyushma-gimni) keng tarqalib ketdi. Kommunistlarning jangavor madhiyasi – majlis, miting va odamlarning chiqishlarida jaranglay boshladi.

Asosiy qismi mashhurlikni qozonmagan inqilobchi shoirlarning ijodi xalq qushiqlarning ritmik mazmuniga asoslangan edi. Shioirlarning qatorlarida, afaristik (hikmat)uslubida, qattiy mantiqlik bilan oddiy xalqning ko‘zlarini jabrlik dunyosiga ochib beradi va asoratga soluvchilarga qarshi ko‘rashga undaydilar: “ishchi va dehqonlarni zulm va uy-joylarini tor-mor qilishadi”. Noma’lum shoir o‘z she’rlari orqali so‘raydi: “20 mln o‘roq va bolg‘alar nahotki zulmga qarshi ko‘rasha olmasa?”⁴¹.

Oddiy va ustaliksiz yozilgan Revalyutsion she’riyatida qandaydir rostgo‘ylik va astoyidil ishonarlik bor edi. Shoirlar kurashuvchi xalqning kuchiga ishonishadi: “Namoyishchilar barabanlarni o‘rganda- erni silkitishadi, osmonni larzaga soladi”.

Shunday qilib badiiy she’rlarning tematikasi kengaydi. Bu davr revalyutsion shoirlari keng ijtimoiy harakatlarda ishtirok etgan katta xalq ommalarni tasvirlashi ko‘proq ahamiyatga ega edi. Yagona odam, revalyutsioner ichki dunyo obrazini esa ularning e’tiborini hali tortmagan edi.

Shoirlar an’anaviy folklor va mumtoz she’riyat qoydalariga tayansa ham, o‘z asarlarida adabiiy undovlariga unchalik katta e’tibor bermaganlar: she’riyatining butun kuchini ular samimiyl revalyutsion pafosida deb o‘ylashgan. Ularning asarlarida (bir xillarda mos kelmagan holda) an’anaviy obrazlik va zamonaviy siyosiy

⁴¹ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. С.176.

publitsistikga tegishli iborashunoslik (frazеologiya) bir-birlariga mos kelgan.

*O'n ikki general to 'lqin bo 'lib aylanib yurishdi
O'qlar bo 'roni, yomg'ir hovuzi o 'rtasida ular o 'lim haqida
qayg 'urmaydilar.*

“Qo‘shiq” muallifi proletar she’riyati (“Internatsional” aks sadolarini bu qatorlada juda osonlik bilan tanish mumkin: “Budda va ilohlarga ishonmanglar, jinnilar, kim? Osmondan iltijo qiladi va kechirim so‘raydi”) va g‘arb revalyutsion publitsistikasi bilan tanishganligini ko‘rsatadi: bekor emasdир Djon Rid kitobining nomi quyidagi she'r qatorlariga mos kelishi:

*Inqilob to 'lqini butun sayyoraga tarqaldi.
Bayroqni birinchi bo 'lib Rossiya ishchilari va dehqonlari ko 'tardi.
Dunyoni larzaga solgan o 'n kun...
Besh qit 'adagi barcha do 'stlar uchun yorqin namuna.*

Vietnam revalyutsion she’riyatining asoschilari bunday usul bilan boshqa davlatlarning proletar adabiyotining tajribasiga murojaat qilishgan⁴².

Tanqidchi Xong Tiong gaplari bo‘yicha bu she’riyat “She’riyat endigina toblanishni to‘xtatgan va olovdan olingan qilich kabitdir vashu bois uni nayzasi hali siliqmas, u hali o‘tkirilmaganr, lekin uning qattiqligiga va chidamligiga hech narsa yetmaydi”. Bu juda aniq ta’rifdir.⁴³

⁴² Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.180.

⁴³ Литература Востока в новейшее время. М., изд.Московского университета 1977. - С.387

Vietnam adabiyotida revolusion she'riyat rivoji

Revalyutsion adabiyoti demokratik front davrida (1935-1939) yangi davrga kirib, og'zaki tarqaldi va ro'yxatlarda bo'ldi, gazeta va jurnallarda qonuniy tarzda chiqarilar edi.

Har xil davlatlardagi revalyutsion tarixiy adabiyotini odatda ochib beradigan she'riyatga prozali janrlar qo'shildi: badiiy reportajlar - Le Van Xienning "Kontum qamoqxonasi" ("Nguk Kontum", 1938), Kiu Kim Shonning "Qamoqdan qochib ketish" ("Viot nguk", 1939), Memuarlar - Chan Din Longning "Rossiyada 3 yil" ("Ba nam o Nga So-viet", 1939), hamda novellalar. Bu asarlar hujjatlilikga, faktlarga, muallif fikrining to'g'ridan-to'g'ri publitsistik izhorlariga tortilishi bilan farq qilsa ham, 1-marta vietnam adabiyotida kommunistning obrazi jonli qilib yaratildi.

Bu davrning revalyutsion she'riyati keng tarzda "Yangi she'riyat"ning ijobiy bo'lgan tajribasidan foydalandi. Uning mashhur shoirlaridan biri To Xiu (tug'. 1920 y.) edi. Uning she'riyatining ajoyibligi kelajakka intilishidadir. Jamiyatning yangi ideallari uning she'rlarini yoritadi, hattoki birinchi qarashdan revalyutsion kurashidan yiroqdek ko'rindi. "Hushbuy daryoda" ("Tieng xat Shong Xiong", 1938) ko'ylanadigan she'rida shoir "hursandchilik uchun qiz" obrazini yaratadi:

*Xushbo'y daryo bo'yida
Mening uzun qayig'im sirg'alib ketmoqda...
Osmon shaffof ko'k,
Qayiq uzoq vaqt sirg'alib ketmoqda
Xushbo'y daryo bo'yida.*

Bunday qayg'uli boshlangan bu she'r, oxirida baxtli yakunga ega --- kelajak o'zgarishlarga to'la ishonchda:

*Qizim, endi sog'inch haqida gapirmaysiz,
Bog'lar gullab tug'ilganda intiladimi?*

Uyat, qashshoqlik, xorlik bulutlardek yo ‘qoladi...

Yorqin ertangi kunni shodlik bilan kutib olasiz.

Xushbo ‘y daryoda

(rus tiliga A.Efron tarjimasi.)⁴⁴

Albatta, To Xiuda o‘quvchilarga tanish bo‘lgan revalyutsion ramz va belgilarga ega bo‘lgan she’ri bor, lekin u samimilik va yangilik bilan yangraydi:

Do ‘stlar! Yaritsa bo ‘roni bo ‘lsin

Bizning birimiz uchun o ‘limni bashorat qilish.

Bizda ko ‘pmiz! Maqsad sari qushdek shoshilaylik!

Eshkaklar uchun! Hal qiluvchi soat keldi!

(rus tiliga M. Vaksmaxera tarjimasi)⁴⁵

To Xiu o‘z she’rlarida revalyutsionerning boy ichki dunyosini ko‘rsatadi. U yosh Vietnam kommunistini lirik obrazini yarata oldi, u katta sheriklari bilan xalq ozodligi uchun kurashadi. Jahildor ohangli she’ri “O‘lmas odamlar” (“ Nguoi khong chet”,1938): Qamoqda qari revalyutsioner o‘ladi, ammo uni bayrog‘ini boshqalar ko‘taradi:

Va sizning yo ‘lingizni yoritgan kompas ignasi,

Endi menga o ‘xshagan odamlarni qattiq kurashga olib borishyapti!

*Menga yo ‘l ravshan, men eshkak eshaman, mening kemam esa
boshqalar qatorida!*

*Biz bo ‘ronlarga umuman ahamiyat bermaymiz - qattiq mushaklarda
kuch bor!*

Loy meni qirg ‘oqqa tashlab, dengiz tubini yutib yuboradimi?

Boshqalar, men ishonaman, nurli qirg ‘oqlarga yetib boradi!

*Va bu kurashda mening kelajak asrlar nomidagi kamtarona mehnatim
bor!*

(rus tiliga V. Sergeevani tarjimasi.)⁴⁶

⁴⁴ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. С.261.

⁴⁵ O’sha manba.B.298.

To Xiuga satirik uslubi ham yaqin. Bu janrga oid she’ri “Ngao jallodga” (“Xoy Ku Ngao”, 1938), o‘radigan va shafqatsiz she’r:

*Bobo, siz kallalarni chopardingiz -
Begunoh odamlarni bekorga yo ‘q qildi...
Ammo keyin u bu aybdorlarni unutdi,
Kim kiygan oltin bilan qoplangan ko ‘ylak!..
Endi itlarni tutish uchun lassodan foydalaning.
Aybdormi? Nimada? Ular nima xato qichqirdilar?..
Va siz yana itlar haqida gapira boshladning,
Nega ular boshqa jangchilarning poshnalarini yalaydilar?*

(rus tilga V. Sergeevani tarjimasi.)⁴⁷

Yozuvchi Nguyen Din Txi, To Xiuning she’riyati haqida shunday yozgan: “To Xiuning revalyutsiyadan oldingi she’rlari bu – yigit yuragida yonib turgan olovi, vataniga bo‘lgan muhabbati, bechoralarning hayotiga bo‘lgan samimi tuyg‘ularidir, lekin u hali butunlay asl mehnatkash xalqning hayotini bilishga ulgirmadi chunki xalqning kiyim va 1 kosa guruch uchun to‘kilgan terini va ko‘z yoshlarini ko‘rmagan”.

Bu davrdagi ko‘pchilik revalyutsioner shoirlarning ijodlarida juda tez-tez Sobiq Ittifoq to‘g‘risida she’rlar chiqa boshlaydi, bu davlat obrazi ular uchun nafaqat go‘zal kelajak haqidagi orzusini timsoli hamda ularni kurashga da’vat qiluvchi kuchi bo‘lgan.⁴⁸

40-yillarda ahamiyatli hodisalardan Xo Shi Minning she’riy to‘plami “Qamoqxonaning xotira daftari” (“Nguk chung nyat ki”) bo‘lib, u xanvanda yozilgan. Xo Shi Min she’rlarini rus tiliga tarjima qilgan P. Antokolskiy shunday degan: “Bu ihcham va yorqin

⁴⁶. Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.261.

⁴⁷. O‘sha manba.B.263.

⁴⁸O‘sha manba.B.263.

to‘rtliklar juda ko‘p narsani aytadi, odamlarning azoblari, pastkashliklari va qupolliklari to‘g‘risida. Xotira daftari “odamlarga to‘lgan” bu yerda hibschining sheriklari va qamoqxonalar nazoratchilari. Va oqib ketayotgan hayot tasvirining har yerda har narsa o‘zgaruvchanligi va uning tugamas 3 marta la’natlangan va 3 marta duolangan haqiqati.”⁴⁹ Xo Shi Min she’rlaridan revalyutsionerning hayotiy va ichki butunlik obrazini uchratish mumkin. Mahbus bir ko‘lgilli, bir hayolchang, lekin har doim buyuk maqsadiga intiladi:

Askarlar frontga shoshilishadi.

Quyosh o‘z olovini osmonning yarmiga yoydi.

Men esa vaqtimni behuda sarflayapman

Kishanlangan holda!

II jahon urush yillarida mustamlakachilik qyynoqxonalarida va partizanlarning o‘lkasi bo‘lgan Vet-Bak tog‘larida, vatanparvarlikga va revalyutsiyaga oid mavzularda ko‘p she’riy asarlar yaratilgan; ularning aksariyati yashirin bosmaxonalarda nashr qilingan, lekin ko‘pincha ular og‘zaki tarzda tarqalgan. Bu she’rlar o‘zining olovli fidokorligi va ehtirosli publisistikasi bilan ajralib turar edi. Bunday mashhur she’rlardan “Vet Minning qo‘srig‘i” (“Bay ka Vet Min”, 1941), uni satrlari “Marseleza”ni eslatadi va chaqiriqdek jaranglaydi:

Vatan ko‘klari! Tuproqda Vatan!

Yapon-fransuz zolimlariga nisbatan nafrat kuchaydi!

Bu davrda lirik she’rlar yaratiladi, ular ozodlik uchun kurashga ko‘tarilgan odamlarning ichki dunyosini ochib beradi. Bu she’rlar: Le Tet Dakning (tug‘1906y) “Partizanlik suqmog‘ida” (“Di ten kxu”); kommunist qahramoni Xoang Van Txuning (1906-1944), “Do‘stiga” (“Giy ban”); Xa Fu Xiongning (t.1912y), “Kontum

⁴⁹ O‘sha manba. – B.262/

qamog‘idagi nay” (“Ken la vey o nguk Kontum”); Buy Kong Chingning (t.1905y), “To‘kilgan meva” (“Chay jung”) va boshqalar.

Mustamlakachilar tomonidan o‘rnatilgan senzura, taqiqlanishlar va to‘sinqinlar shartlari asosida chiqarilgan 1930-1945 - yillardagi qonuniy adabiyotda realistik yo‘nalishini romantik yo‘nalishiga qarama qarshiligi seziladi. Aytib o‘tish kerakki, “romantik” (“lang man”) so‘zi vietnam tilida “o‘zboshimcha”, “axloqsiz” degan ma’nolarini bildiradi⁵⁰. So‘zning bunday taxlili adabiyotshunoslikda ham bo‘lgan, bu yo‘nalishni so‘ngan etik va axloq normalari bilan bog‘laydi.

“O‘zini kuchi bilan” yozuvchi guruhi 1932-yil tashkil topgan, odatda ularni “romantiklar” deb ham atashadi. 1930-1931-yillardagi ozodlik harakatlariga javoban mustamlakachilarning tomonidan olib borilgan qonli terror paytida “O‘z kuchi bilan” guruhi chiqadi, Vietnam burjuaziyasi esa milliy ozodlik harakatining faoligidan uzoqlashadi. “O‘z kuchi bilan” guruh yozuvchilari hayotni asta-sekin “yaxshilash” targ‘ibotiga o‘tayotgan bir paytda, o‘quvchilarini mustamlakachilardan bir tomchidan siqib olinadigan kichik islohatlarning katta ahamiyatiga egaligiga va asossiz optimizmga ishontirishga intilar edilar. Bu guruhning “Murojaatnoma”sida shunday so‘zlar yangraydi: “Sotsial yo‘nalishidagi kitoblarni yaratish va tarjima qilish zarur bo‘lib kuchlarni jamlagan holda odamlarni va jamiyatni kundan-kunga yaxshilashga harakat qilish kerakdir”⁵¹. Biroq mustamlaka-feodal Vietnamning “hayoti yaxshilanib ketishini” bu guruh vakillari tabiiy ravishda ko‘ra olmadilar. Jamiyat rivojining qonuniylik yo‘nalishidagi nomuvofiqlik guruh yozuvchilarni ko‘pchilagini o‘tkir ijtimoiy muammolaridan qochishga harakat qilishga majbur qilar, qahramonlarini jamiyat shartlaridan tashqarida

⁵⁰ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.251.

⁵¹ Литература Востока в новейшее время. М., изд.Моск. универ. 1977. - С.389.

yaratganda, uni bir xil paytlarda g‘ira-shira vatanparvarlik intilishlar kabi va begin prozasiga qarshi chiqqan qandaydir idealga (Nyat Lining romanidagi Zung) o‘xshatadi. Bu guruh vakillari faol va dadil bo‘lmasa ham, ular shaxsni konfutsianlik qat’iy belgilashlardan ozod qilishga va “Yevvropalik hayot tarzi”ni o‘rnatishga chiqaradilar. Aynan shu sabablar tez-tez hayotiy haqiqatni noto‘g‘ri talqin qilishga olib kelar edi – yani hayotni bo‘rttirib ko‘rsatishadi. Asr boshidagi ma’rifiy g‘oyalarni o‘zlashtirishga harakat qilishganda, “romantiklar” oddiy ravishda ularni bema’nilashtirishadi: faqatgina yevropalashtirish shakliga chaqiriq qolar edi.

Vietnam “romantiklari”ga sub’yektlilik xosdir. Tanqidchi Xoay Txan vietnam adabiyotidagi romantizmni va realizmni farqlariga ko‘rsatayotganda quyidagilarni belgilagan : “Yozuvchi hujjatlarni “haqiqiy hayot va qalb – bu 2 ta tugamas zaxiralari” dan olishi mumkin. Uning fikricha, qaysi yozuvchi o‘z ijodida sub’ektiv hayotiy faktlarni bo‘rttirib ko‘rsatsa, o‘sha romantik bo‘ladi, o‘rganish yo‘liga turib hayotning qonuniyatlarini asos qilib olgan yozuvchi esa realistdir”⁵². Vietnamdagi sinfiy kurashining avjlanib ketish sharoitida esa yozuvchining estetik-g‘oyaviy vaziyati albatta sotsial tusga kirgan edi: romantiklar jamiyatdagi bu qarama-qarshiliklarga ko‘pincha e’tibor bermasdilar, realistlar esa aksincha bu nizolarni o‘z asarlarida ta’kidlab o‘tishga harakat qilishardi.

Kxay Xin “O‘z kuchi bilan” guruhining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri bo‘lib, uning romani “Sehrli tushda kapalak ruhi ” (“Xom biom myo tien”, 1933), unda student Ngaukning Lan qizga bo‘lgan “ideal” sevgi to‘g‘risida gapiriladi, bu qizcha budda ibodatxonasida yosh yigit qiyofasida berkingan edi. Bu kitobda – ham sevgi, ham tabiat, ham ibodatxona hayot tasvirlari boshqacha romantik uslubida yozilgan. Yozuvchi uchun faqat sevishganlar va tabiat

⁵² Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.252.

manzaralari majud, bu obrazlar mantiqiy psixologik tarzda berilgan bo‘lib, sotsial muhit bilan umuman bog‘lanmagan. Qo‘yilgan muammo (Lan, Ngaukni ham sevadi, lekin rohibliksiz o‘z hayotini tasavur qilolmaydi) sxematik tarzda hal bo‘ladi: Sevishganlar ajrashadilar, ammo ularda qandaydir ruhiy birlik saqlanib qoladi. Ko‘rinishicha roman syujeti “Fan va Chan” dostonidan ilhomlanganligini ko‘rsatadi.

“Romantik”lar ijodida shaxsning o‘z mavqeysini aniqlab olishiga juda katta ahamiyat berilgan va bunga jamiyat qarshi bo‘lgan⁵³.

Nyat Linning (vaf.1964y.) “Qat’iy uzish” (“Doan tuet”, 1934) romanining qahramonasi yangiliklarga moyilli Loandir, uni roziligesiz ota-onasi turmushga berishadi va buni evaziga kattagina pul oladilar. U sevmagan eri va mustabid qaynonasi bilan mashaqqatli kunlarni kechirishga majbur bo‘ladi. Yozuvchi Loan uchun tasodifiy chiqishni o‘ylab topadi: eri tasodifan pichoq ustiga tushib vafot etadi. Bu o‘limda Loandan gumon qilishadi, lekin u sud tomonidan oqlanadi va ximoyachi an’anaviy odatlariga qarshi ayblash nutqini so‘zlaydi. Shunday qilib o‘tmish bilan “qat’iy uzish”, Loanning kurashi sifatida emas (kurashga unga jasurlik etishmasdi) balki, hukumat qonunlarining bilvosita ma’qullaganini ifodalaydi.

Realistlar va romantiklar tomonidan ijodiy va badiiy printsiplarning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatishi, shunchalik muhim bo‘ldiki, xuddi o‘sha yozuvchi realistik asarlar bilan birga “romantik” ijodiga xos asarni yarata oldi. Masalan, “Yosh o‘qituvchi Min” (“Ko ziao Min”, 1936) romani, eskirgan axloqiy aqidalarga bo‘ysinishda ham shaxs ozod bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida Nguyen Kong Xoan (1903y), Nyat Lin bilan bahslashdi. Lekin yozuvchi romanda buni ishonarli ko‘rsatib bera olmadi. Adabiyot e’tibori boshqa

⁵³ Белинский В.Г. Танланган асарлар., 1954

yo‘nalishlarga ham qaratildi: “romantik”lar nafaqat vietnam realistlarning tajribasini o‘zlashtirishar, balki boshqa yo‘nalishlarga ham qiziqish bildirar edilar⁵⁴.

30-yillardagi noodatiy voqealarni izlashlari, sotsial muammolariga o‘sgan qiziqishlari adabiyotda ko‘tilmagan va qiziqtiradigan uchrashuvlarga olib keldi. Bunga romantik Xoang Daoning “Oq yo‘l” (“Kon diong shang”, 1940) romani misol bo‘lib, u L. Tolstoyning “Jonlanish” va “Amaldorni ertalab” asarlaridan ilhomlangan. Yozuvchi Zyui zamindorning ruhiy qayta to‘g‘ilishini tasvirlaydi, Txe ismli qizni sevib qoladi. Zyui, Nexlyudovga o‘xshab imtiyozli muhitga tegishli bo‘lgan hamma narsa bilan uzib ketmadi, u faqatgina oddiy xalqqa yordam bera boshlaydi. Ammo oddiy xalq buni tushinmaydi va undan chetlashdi, hokimlar va oqsoqollar esa uyalmasdan uni o‘g‘irlab, aldab yuradilar. Romanda L.Tolstoyga xos o‘zgacha “tomtoylilik” intonatsion va leksik nutqlari ning uslubiga-taqlidlik seziladi.

Shaxsning emansipatsiya (ozod bo‘lish) muammosi - “romantik”lar ijodida juda muhim, realistlarda esa juda jiddiy ahamiyatga ega, lekin realistlarning ijodida ko‘pincha oliy qatlam jamoalari emas, asosan oddiy mehnatkash xalq haqida so‘z boradi. Aynan realislarning ijodida vietnam adabiyotining insonparvarlik an’analari va eng avvalo – bechora-nochorlarga bo‘lgan e’tibori o‘zining ketma-ketlik rivojlanishini oldi⁵⁵.

Realistik asarlarida ko‘pincha bosh qahramon xalqdan chiqqan oddiy inson bo‘ladi. Chan Tieu “Buyvol” (“Kon cheu”, 1938) – roman qahramoni kambag‘al dehqon – butun hayoti davomida buyvolni sotib

⁵⁴ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. С.268.

⁵⁵ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.273.

olishni orzu qiladi. Lekin orzusini amalga oshira olmaydi. Bu roman haqida yozuvchi so‘zlayotgan vaqtda o‘quvchilarga shuni ta’kidlaydi:

Qiziqishlari tor bo‘lsa ham, hayot bir xil tarzda ketsa ham – kichkina odamning ichki dunyosi bebahodir⁵⁶.

Qisman romantizmga reaktsiya sifatida 30-yillarda ocherk adabiyoti vujudga keladi: realist-yozuvchilari hayotni o‘rganishga ketadi.

Satirik va humoristik hikoyalar janr davrida o‘qituvchi bo‘lgan Nguyen Kong Xoan faol faoliyat yuritadi. U asosan Vietnamida umumiy qabul qilingan alogizm, “oddiylikni alogizmi(mantiqsizlik)” ni ochib berishga harakat qiladi. Uning “Telba” (“Txang dien”, 1935) hikoyasida, bitta kambag‘al dehqon badavlat janobga musibatida yordam beradi, janob esa uni mehmonga taklif qiladi. Bechora soddaligi bilan haqiqatan ham boyning uyiga boradi. Boy uni tanimasdan, telba deb haydaydi. Boyning qilgan ishi - bu haqiqatdir, lekin yozuvchi haqiqatni ma’qullashga undaydigan insonparvarlik logikasini inkor qiladi.

Nguyen Kong Xoanning hikoyalarida hamma xildagi komik ma’nolarni topish mumkin – istehzodan groteskgacha (adabiyot va san’atda ortiq mubolag‘a bilan bo‘rttirib tasvirlash uslubi), lekin yozuvchida bo‘rttirib yozishga moyilligi yaxshi ko‘rinadi, salbiylikni esa satirik uslubda inkor qiladi. I.Ognetov aytishicha: “Bu hikoyalarning qahramonlari orasida shunday amaldorlarni ko‘rish mumkinki, ular feodal ierarxiyasining eng quyi qatlamida turib, yuqoriroqda turgan mandarinlarning talashlarini marhamat sifatida ko‘radilar. Nahotki boshqaruvchi unga nazar tashladi, bu iltifotga sazovor bo‘lish – baxtdir. Amaldor mafkurasi – “Ahir unga nisbatan

⁵⁶ Белинский В.Г. Танланган асарлар., 1954

man chuvalchangman” – “Do‘gonalar”, “Avtomobil falokati” va boshqa hikoyalarda bu mavzu juda yaxshi ko‘rsatilgan”⁵⁷.

Nguyen Kong Xoan satirik nishon sifatida – poraxo‘rlik va sudxo‘rlikda ko‘milib ketgan amaldorni (“Sehrlangan tanga” – “Dong tien ko ma”), oddiy xalqning qo‘rroqligidan foydalangan qishloq boshqaruvchisini (“Tong(ma)muriy bo‘lim) boshlig‘ining tuflilari yo‘qolishi to‘g‘risida” – “Ku tan ba mat zey”), bolani sotib olishida arzonga tushib qolmasligini o‘ylagan zamindorni (“Ikkalasi ham achinarli” – “Xay txang kxon nan”) olgan edi. Nguyen Kong Xoan hikoyalarda jamiyat harakat davri bilan bog‘langanligi sababli katta sotsial o‘tkirlik seziladi.

Vietnam tanqidiy realizm prozasining shakllanishiga o‘zaro ta’sir qilgan muhim ijobiy faktori bu Vietnamda falsafiy-axloqiy qarashlarining tarqalishidir. 1935-yilning qonuniy matbuotda san’atning – mantig‘i, o‘rni, mazmunligi va yozuvchini jamiyat oldidagi yuksak burchi to‘g‘risida bahs-muhakamalar nashr qilinadi. Bu bahs-muhakamalarda jamiyatning falsafiy, iqtisodiy va siyosiy ta’limot tarafдорлари, ularga Xay Cheu (1908-1954) boshchilik qilgan va burjua idealist “toza san’at” tezisining tarafдорлари ishtirok etishgan, ular bir-biriga qarama-qarshi nutqlar bilan chiqishgan. Tanqidiy realizm muammosi - bahslarning asosiy va markaziy mavzusi edi.

Bahsning o‘zi realistik adabiyotining rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqadi va u bevosita Nguyen Kong Xoanning “Aktyor Ti Ben” (“Ken Ti Ben”, 1935) hikoyali to‘plamidan boshlangan edi.

Realizm raqiblari ochiq oshkora chiqishga bardosh bera olmadilar, lekin ularning mulohazalarida realizmning chuqur jamiyat ahamiyatining mag‘zini olib tashlash niyati seziladi. Le Chang Keru yozgan: “Biz mutloqo, realistik iroda ortiqcha deb aytshni

⁵⁷ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.273.

xohlamaymiz — yo‘q. Ming marotaba yo‘q! Realizm ko‘plarga yoqadi, juda yoqadi. Ammo badiiy prozada ko‘rsatiladigan xaqiqat, xech bo‘lmasa sotsial haqiqatdan ajralib turish kerak”.⁵⁸

Jamiyatning falsafiy, iqtisodiy va siyosiy ta’limot tarafdorlari, “Toza san’at” tarafdorlarining qarashlarini asossizligini ko‘rsata olishdi, va “San’at hayot uchun” printsipini ta’kidlashardi. Yozuvchi Nguyen Din Txi aytib o‘tganday, aynan shu bahs dan so‘ng, Vietnam adabiytida “realizm- haqiqiy anglashilgan tendentsiya bo‘lib qoldi”. Xay Cheu va uning hamfikirlari Vietnamda M.Gorkiy, A.Barbyus, R.Rolan⁵⁹ ijodlarini ommalashtirishda ko‘p harakat qilishgan.

30-chi yillarda Gorkiyning “Ona” romanini vietnam tiliga birinchi tarjima qilinishi, haqiqiy jasoratga aylangan. Tarjimon – communist Nguyen Txiong Kxan hibsga olingan, va mustamlakachilar tomonidan otib tashlangan. O‘sha paytda romanning nashr etishini oxirgacha yetqaza olishmagan, chunki uni chop etadigan gazeta mustamlakachilar buyrug‘i bilan man etilgan. O‘sha vaqtda Vietnamda boshqa, hozirgacha noma’lum tarjimonlar ham faol ishlar edilar. O‘z memuarlarida Vietnam inqilobchi veteranlari eslashlari bo‘yicha, hatto qamoqdagagi kommunstlar “Ona” romanining bo‘lingan boblarini tarjima qilishga ilojini topganlar.

Tarjima qo‘lda kuchirilar edi, bundan so‘ng, beba ho varaqalar, xuddi jangovor proklamatsiyalar (hammaga ma’lum qilish; siyosiy mazmundagi varaqalar) singari siyosiy mahbuslar tomonidan bir-birlariga tarqatadi. Agarda ularni saqlab qolishga imkoniyat bo‘lmasa, tarjimani og‘zaki tarqatishadi. Rus adabiyotining tadqiqotchisi, professor Xoang Suan Ni, bir qari revolyutsionerdan “Ona” romanini

⁵⁸ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.270.

⁵⁹ Избранные произведения писателей Юго-Восточной Азии. М., «Худ.лит.» 1981. - С. 98

parchalarini eshitgani to‘g‘risida yozib o‘tgan. Parchalar qadimgi ritmik proza uslubiga moslashtirilgan – shu uslubda ularni eslab qolish qulay bo‘lgan.

Nguyen Din Txi, 40- yillarning kechalarida “Ona” romanini, fransuz tilidan o‘qiganini eslab o‘tadi: “men to‘ymasdan o‘qiganman, ba’zida, kitob sahifalaridan mening qalbimga olov yondiruvchi uchqunlar sachraganday tuyilar edi”⁶⁰.

1936 - yilda Xay Cheu Shingning “Sobiq Rossiya adabiyoti” maqolasi chop etilgan. U doimo Sobiq Ittifoq adabiyoti namunasini ko‘rsatib turgan va burjuaziya yozuvchilar hujumlaridan uni himoya qilgan.

Politsiya devorlari bilan o‘ralgan inqilobdan oldingi Vietnamga Sobiq Ittifoq yozuvchilarining sanoqli asarlari yetib kelgan. Ularni ahamiyati, muxlislar uchun, nihoyatda katta edi. Tanqidchi Xoang Tong aytishi bo‘yicha: “ko‘plab Vietnam - yoshlari, intelligentlari (o‘qimishli), ishchilari M.Gorkiyning “Ona” romanini o‘qigandan keyin inqilob harakatiga qo‘silib ketganlar”.⁶¹

O‘sha paytdagi kompartiya boshchiligidagi, Demokratik front (1935-1939) tashkil etish uchun keng ko‘rash boshlanib ketgan, so‘z san’atkorlarga inqilob g‘oyalarning ta’siri va o‘sha yillardagi jamiyat ko‘tarilishiga ta’sirlari bir-biriga qo‘silar edi. O‘sha yillar Vietnamda tanqidiy realizm adabiyoti katta yutuqlarga erishadi: boshida milliy an’analar ta’siri natijasida novella va ocherk rivojlangan bo‘lsa, endilikda realistik roman paydo bo‘ldi. Buning ustiga vietnam realistik romani va qissani shakllanishida umumiy jarayonlarning muhim qismi - vietnam adabiyotida dehqon mavzusining shakllanishi bilan bog‘liq.

Ngo Tat Toning “Chiroq o‘chdi” (Tat Den 1939) hikoyasi va Nguyen Kong Xoanning “Berk ko‘cha” (Biok diong kung 1938)

⁶⁰Избранные произведения писателей Юго-Восточной Азии. М., “Худ.лит.” 1981. - С. 98.

⁶¹ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. С.174.

romani – mustamlangan-feodal Vietnamda mexnatkash dehqon hayoti to‘g‘risida haqiqiy asarlar sirasiga kiradi. Ikkala asar qarama - qarshiliklarda tengsizlik, qonunsizlik va cheksiz qudratlik, qashshoqlik va boylik asosida tuzilgan. Ushbu asarlarda biz nafaqat jamiyatdagi qarama - qarshi motivlarini, balki oddiy odamning mustamlakachilar ustidan axloqiy ustunligini ko‘rishimiz mumkin. “Chiroq o‘chdi” povestini markazida el xizmatchisi Zau obrazi turib, uning taqdiri inqilobdan oldingi Vietnam uchun odatiy hol ekanligi tasvirlangan. U pul to‘lay olmagani uchun qamoqqa olinadi, betob erini qutqarish uchun, daxshatli ishga jur’at etadi- o‘zini, yetti yoshli qizi Kueni boyga sotadi. Kuyovi ham sutxo‘r, ham “qo‘g‘irchoq parlamenti” a’zosi bo‘lib chiqadi. Asarda Zau nochor ahvolga yetib borganda, uni azoblaganlarga musht ko‘targan sahna nihoyatda aniq tasvirlangan.

Ngo Tat To amaldorlar va qishloq boshliqlari to‘g‘risida yozganda, har doim ularni mazah-hazil qilishi sezilar edi. Yozuvchi shu doirada poraxo‘rlik va odobsizlik ahvolini ko‘rsatadi. Uyezd boshligi, lavozim topish yo‘lida, o‘z ayolini gubernatorga oshiq bo‘lishga majbur qiladi, va shu payt Zauga nisbatan ayyor niyatlarini amalga oshiradi. Ammo Zau iflos amaldor qo‘lidan qutilib ketadi va boy xonadondan boquvchi bo‘lib ish topadi. Endi u soliq to‘lay oladigan darajaga yetadi va erini qutqaradi. Lekin Zauda yangi musibatlar boshlanadi va u boy xonadonni tunda tark etadi.

Vietnam tanqidchilik realizm adabiyoti badavlat burjua va amaldorlar, eski tuzumli ijtimoiy hayotini kulguli, hatto masxara qilish darajasiga ko‘tarilganligi bilan ajralib turadi. Nguyen Kong Xoang, o‘zining “Berk ko‘cha” nomli romanida amaldorlar va “xalq deputati” Layni, masxara obrazini yaratgan, “Qora dori qabul qiladiganlar och-yashil irqning vakili”, fitnachi va qonho‘rlar qilmishlari bilan dehqonlarni urishtiradi, ularni tugamas va xonavayron qiladigan sudlashuvga olib boradi, qarzlarga tushiradilar. Uni qurbanlaridan biri

– yosh dehqon Fa. Roman mobaynida yozuvchi qahramonning evolyutsiyasini ko‘rsatadi, amaldorni yaxshi niyatga so‘zsiz ishongan, soddadil va qo‘rqitilgan qishloq yigitidan, ziyrak va dadil odamga aylanadi, o‘z huquqini himoya qilish ijtimoiy uyushganlik kurashini olib borish zaruriyatini tushuna oladi. “Ko‘k belbog‘li mashrablar” Fa va boshqa “isyonchilarni” jazosoni berish maqsadida kelganlarida, Fa “yerdan obkashni ko‘tarib janobi deputatga yaqinlashdi va bor kuchi bilan uni boshiga uradi.

Bu namoish – oddiy umidsizlik ishorasi bo‘lmagan, balki najotsizlikdan yo‘lni izlash edi. Fani ushslashgan, qo‘l - oyog‘ini bog‘lashadi. Roman finalida “Chiroq o‘chdi” povestidagi nochorlik sezilmaydi.

O‘sha davr yozuvchilari yaratgan asarlarda dehqonlarni falokati nafaqat ularni Sovotsizligida (qorong‘uligida va peshonasi sho‘rligida), urf-odatning kuchida, balki mustamlakachilar oldida birdamchilik yo‘qligida ekanligini yoritib bergen.

Shuningdek, realistik asarlaridagi dehqonchilik mavzulari bilan bir qatorda shaharlarning quyi hayoti mavzulari ham o‘rin egallagan.

Nguyen Xongning “O‘g‘ri qiz” (Bi vo, 1938) romani - aldangan va tashlab ketilgan qishloq qizi Bin to‘g‘risida hikoya. Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha: Undan bolasini tortib olishadi, u bolasini izlab Xayfonga boradi va “xushchaqchaq uy” da ishslashga majbur bo‘ladi. Bin u yerda u o‘g‘rilarning sardori bo‘lgan Namni uchratadi. Nam obrazi romantik planda ideallashtirilgan: muallif uni o‘zicha yoqimli, bag‘ri keng va do‘stilar bilan oliyjanob munosabatda bo‘ladigan shaxs qilib ko‘rsatadi. Nam Binga uylanadi va uni o‘zining “o‘g‘rilik hunariga” o‘rgatadi. Baxtsiz ayolni azob chekish mavzusi psixologik-axloqiy nuqtai nazarda berilgan: Bin, Namni sevadi, ammo uning nopok, vijdonsiz hayotidan qiynaladi. U o‘g‘rilar dunyosi ichidan o‘zidagi insoniy uchqunlar uyg‘ona boshlaganini payqab qoladi. Roman yakuni fojiali: Nam qimmatbaho narsalarni

o‘g‘irlamoqchi bo‘lganida tasodifan bir bolani o‘ldirib qo‘yadi, bu bola esa Binni o‘g‘li bo‘ladi. Politsiya hodimlari uni va Namni hibsga olishadi. Shunday qilib Bin, halol va mehnatkash hayotidan voz kechganiga jazo oladi. Muallif uning fojiali taqdirining asosini jamiyat hayotidagi sharoitlarda ko‘radi.

Demokratik front davrida, kompartiyaning qonuniy ishlarida faol qatnashgan realist yozuvchilarning asarlarida – mehnatkashlar mafaatlari uchun kurashuvchi himoyachining obrazi paydo bo‘ldi. Nguyen Xong “Xitoylik ona” (Mot ngioy me Chung kuok, 1939) hikoyasidagi oddiy xitoy ayoli shunday ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bu hikoya qahramonasining ruhiy o‘zgarishi to‘g‘risida, muhtojlik va kundalik tashvishilari bilan ezilgan, boshqa nochor xitoy qochoqlaridan hech farq qilmaydigan, oddiy odamlar, mehnatkashlar ishi uchun ko‘rashuvchiga aylanadi va mehnatkashlarning internatsional birodarlikni jonli namunasi bo‘lib qoladi⁶².

O‘sha paytdagi vietnam adabiyotida, o‘ziga xos shaxs Vu Chaung Fung (1912-1939) bo‘lgan. Qisqa hayoti davomida u ko‘p asarlar yaratgan, ulardan eng mashhurlari 3 ta romandir: “Bo‘ron” (Zong to, 1936), “Baxtli taqdir” (Sho do, 1938) va “To‘g‘on yorilib ketdi” (Vyo de, 1939). Romanda yozuvchi birinchi navbatda jamiyatdagi ikki kategoriya odamlarni o‘rganadi: birinchilari pul qudrati tufayli “tub ostiga” tashlanganlar, ikkinchilari esa muttaxamlik va razillik bilan boylik va izzatga erishganlar. Vu Chaung Fung har xil sotsial tabaqalarning hayotini harakatlarda va o‘zgarishlarda ko‘rsatadi. “Bo‘ron” romanidagi syujet mazmuni, Xitoy dramaturgi Tsao Yuyaning xuddi shu nomli dramasi bilan o‘xshash, u Vietnam komprador va “Xalq deputati” Hatyaning yorqin va fosh qiladigan obrazini yaratgan. Yozuvchi uni boylikka erishish yo‘lini - razillik, qotillik, muttahamlik va yolg‘onlik zanjiri sifatida ko‘rsatadi.

⁶² Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.775.

U “samogon chiqindilarni bir aybsiz odamning dalasiga to‘kib ketadi va o‘zi unga tuhmat qilishga shoshiladi. Bu qilmish yordami bilan xat arzimagan pulga - 300 mauga yerni sotib oladi”. O‘z do‘stining xotinini tortib olish uchun, uni surgun qiladi. Deputat xatni huzurida o‘n bitta “ikkinchi xotin” bor, o‘nlab uylar, konlar, zavodlarga egalik qiladi. Boylikka, tekinxo‘rlikka va bo‘zuqchilikka ehtirosi o‘rni butunlay egallagan.

Roman yana bir o‘ziga xos obraz bilan tanishtiradi – bu, koloniyada xizmat qiladigan fransuz avanturistidir.

Masxara usullari bilan yozuvchi yana bitta avanturist – tennis klubini xizmatchisi, mallasoch Suanni ko‘rsatadi (“Baxtli taqdir”). Mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan tasodiflar va bema’nilikka olib keladigan jamiyatning befarosatligi - unga “mamlakatni qutqaruvchisi” va “tennis professori” sharofatini olib keladi.

Vu Chaung Fungning siyosiy va estetik qarashlari zid bo‘lgan. Yozuvchi Vu Chuang Fung “Bo‘ron” romanida yirtqich-mustamlakachi obrazini mardlik bilan yaratadi, hamda bu romanda - rahmdil va yuvosh obraz sifatida “elchi janoblari” ni, vietnam tili va madaniyatining bilimdoni, fransuz rezidentini tasvirlagan edi. Ba’zilarda, uni asarlaridagi realistik ma’nolari buzilib, freyd kontseptsiyalari ustun keladi: ko‘p qahramonlarining ish-harakatlarini yozuvchi beihtiyor tegishli impulslar bilan tushuntiradi.

40 - yillarda Avgust inqilobi arafasida, vietnam realistik yozuvchilari yangi yo‘nalishlarini izlaydilar. U davrda qahramon psixologiyasini chuqur o‘rganish tendentsiyasi belgilangan va buni yozuvchilar Chexov va Dostoevskiydan o‘rganadilar, ularni esa fransuz tarjimalardan tanishar edi⁶³.

⁶³ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 649.

Nam Kao (1941-1951) 40- yillarda Vietnam tanqidiy realizmning ko‘zga ko‘rinarli vakillardan bo‘lgan. Mashhurlikni unga “Ti Feo” (1941) hikoyasi olib kelgan. Hikoyaning qahramoni – tubanlashib ketgan, doimo mast va may uchun har qanday jinoyatga tayyor Ti Feo – “qishloq xayotini idiotizm” ramzi. U hamma narsadan va hammadan g‘azablangan shaxs sifatida tasvirlangan. Ammo shu mahluqning qalbini chuqurligida insoniylik uchqunlari saqlangan edi. Hikoyadagi 1ta tasodifiy epizod - uni ayol bilan uchrashuvi hikoya voqealar rivojiga tubdan o‘zgarish kiritadi. Zero, hikoyadagi ayol obrazi Ti Feoda insoniylik uchqunlarini uyg‘otib, mast holidan chiqarib, insonlar hayotiga qaytarishga yetarli bo‘lgan. Lekin ayolning Ti Feoni axloqiy tiklanishi bo‘yicha behuda orzulari Ti Feoni o‘limga olib keladi. Yozuvchi, o‘z qahramoni uchun yangi hayotga bo‘lgan real yo‘lni ko‘rmaydi, chunki jamiyatdagi sharoitlar unga qulaylik bermas edi. Ti Feo halok bo‘ladi. Bu hikoya, Lu Sin “A-Kyuning xaqiqiy hikoyalari”ni ta’siridan yozilgan bo‘lsa kerak degan fikrlar ham mavjud.

Mustamlaka-feodal jamiyatda o‘z qobiliyatlarini ishlatish yo‘lini topmagan, ijodiy mehnatli inson fojasi – Nam Kaoning sevimli mavzusi bo‘lgan. Uning “Eskirgan hayot” (“Shong mon”), avtobiografik romani, bir qator asarlari kabi, 1944 - yilda yozilgan, tsenzura (nazorat etish) tomondan o‘tkazilmagan va faqat Avgust inqilobidan so‘ng, chop etilgan edi. Roman qahramoni – xususiy maktab o‘qituvchisi Txi. U kuchga to‘la va jamiyat uchun foyda keltirishini orzu qiladi, ammo uni hayoti bir kosa guruch tashvishida o‘tadi. Txi ro‘zg‘or botqoqligidan chiqib ketishni juda xohlaydi, u erkin va yangi nafasni kutadi, lekin xammasi bekor.

Txi onsongina taslim bo‘ladiganlardan emas edi. Fikirlovchi, azoblanuvchi va yolg‘iz odam, u faqatgina o‘zi uchun emas, balki

hamma uchun yaxshiroq kelajakni orzu qiladi. Txi o'sha davridagi hayot tarzining shartlarini qabul qilmaydi.

“U o'ylar edi – qachongacha bir odam to'yib yeish uchun boshqasining qo'lidan ovqatini tortib olishga majbur bo'lsa, qachongacha inson o'zini botqoqlikka tortib ketmasin deb boshqalarni oyoq osti qilishga majbur bo'lsa, o'shanda insoniyat iflos, shafqatsiz va egoistik qolaveradi. Shu hayotni o'zi zahar”⁶⁴.

Ikkinchи jahon urushi boshlandi, yaqin orada inqilobning tozalovchi bo'roni butun mamlakat bo'ylab o'tadi. Ammo hozircha sukunat, lekin Txi poylayapti, hayot esa “eskirmoqda”, maqsadsiz o'tib ketmoqda, “u hech narsani amalga oshirmsandan, hayot nimaligini anglamagan holatda o'ladi”. Muallif qahramonining ruhiy azoblaridan tashqari uning inertligini (harakatsizlik), hayotini o'zgartirish uchun hech narsa qilmaydigan qilib ko'rsatadi. Nam Kao inson qalbining o'tkir kuzatuvchisi, nozik tasvirchi va har xil tashqi ta'sirlarga begona, kishi sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

30 - yillar boshlarida vietnam she'riyatida ko'plab o'zgarishlar o'tkazilgan: fransuz adabiyot ta'siri natijasida: “Yangi she'riyat” harakati paydo bo'ladi, uning tarafdorlari, mumtoz she'riyatidagi she'rning tuzilishi bilan shoirlarni bog'lovchi qonunlarga qat'iy qarshi chiqadilar.

“Yangi she'riyat” mutloq yangi yo'naliш bo'lмаган, u vietnam she'riyatida yaxshi o'zlashtirilgan shakllarni va hajmlardan erkin foydalanish assosida rivojlangan. Bir vaqtning o'zida ular fransuz she'riyatiga xos bo'lgan erkin she'riy sintaksisni, uning ta'sirchanligini, she'rni yaratishidagi elementlarini qabul qilindi. Shuningdek, she'rlarning maqomi ancha rang-barang bo'lib, tili soddalashtirilgan va she'riyatga do'stlik suxbatlarining yurak sadolari kirdi.

⁶⁴Избранные произведения писателей Юго-Восточной Азии. М., “Худ.лит.”1981. С.102.

“Qofiya” (Mey van txyo, 1935) she’riy to‘plamining muallifi Txe Li (1907) hamma narsadan yuqoriga go‘zallikni qo‘yadi va shunday yozadi: “Men faqatgina ehtiros yurtining sayyohiman, go‘zallikni o‘n ming ko‘rinishlarini va xillarini sevuchiman”⁶⁵.

“Yangi she’riyat”ga u o‘zining adabiyotda qilgan ishlari bilan katta hissa qo‘shgan: “Junglini eslayman” (Nyo Jing) she’rida muallif ezop (kinoyali, ramzli) tilini ishlataladi, shoir qafas ichidagi arslon, o‘zini ozodlikdagi o‘tmishini sog‘ingan, “oydin kechalari suv bo‘yida u o‘ljasи bilan mast bo‘lib oy nurlarini ichib turgan paytalaridir”. Bu she’rlar o‘sha davrda vatanparvarlik ramzi sifatida qabul qilingan, bu keng Vietnam xalqi doiralariga xos edi. Ilk marotaba Txe Li she’rlarida romantik obrazlar paydo bo‘lishi bunga yoqqol misol bo‘la oladi: “Uzoq yurishli urish” qahramonining harakati oydin bo‘lmagan va maqsadi aniq emas edi, u hayot lazzatlaridan voz kechadi, lekin asar davomida vatanparvarlik ruhi bilan qorishgan va yaxshigina harakati seziladigan kayfiyatlar paydo bo‘ladi. Shunday kayfiyatda mustamlaka Vietnamning dim muhitidan qandaydir hayol dunyosiga qochib ketishga bo‘lgan intilishlar yaxshi sezilib turadi. Keng qamrab olingen melanxoliya Txe Li ga begona emas edi, ayniqsa uning lirikasida.

Vietnam shoirlari, fransuz romantiklari (Lamartin, Vini) “parnas” chilar va Bodler hamda Verlenlarda o‘qishgan.

O‘sha davrda eng katta muvaffaqiyatlarga erishgan muhabbat kuychisi bo‘lib tanilgan Suan Zieu (1917) edi. Txe Li ga qaraganda muhabbat uning she’rlarida – dunyoviy tus olgan. “Uning she’riy qasri- dunyoviy tuyg‘ularning poydevoriga tayanadi”.- deb Txe Li, Suan Zieuning “She’riyatning she’riyati” (Txyo txyo, 1938) she’riy

⁶⁵ Никulin Н.И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. — М.:Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. -С. 650.

to‘plamiga yozgan so‘z boshida ta’rif bergan. Suan Zieu she’rlarining eng yaxshilari ham tez o‘tuvchi vaqt oldidagi qo‘rquv bilan ifodalanadi:

*Men quyoshni to‘sgim kelar
Ranglar tillasi o‘chmasin deb
Shamolni boylab qo‘ygim kelar
Muattar hidlarni olib ketmasin deb*

Tarixiy paradoks: O‘rta asrlarning axloqiy qoidalaridan shaxsni ozodlikka chiqarish jarayoni mustamlaka Vietnamda to‘singga uchraydi. “Yangi she’riyat”da shaxs va jamiyat orasidagi o‘zaro munosabatiga qo‘yilgan masalaning yechilishi shaxsni dunyoni qamrab olishiga olib keldi. Shuning uchun, odam e’tiborini faqatgina o‘zida jamlasa, u yolg‘izlanib qoladi va bu dunyoda yoqolib ketadi⁶⁶.

To ‘rt tomondan -yorqin nurlarni sochilishi, sof dengiz ohanglari,

Orol esa – mening qalbim – qo‘rquinchlar bilan o‘ralgan.

Suan Zieuning lirik qahramoni haqiqiy hayotning mazmunini ko‘rmaydi, u faqatgina hayot tez o‘tarligiga qayg‘urishni biladi (“Bahor keldi – demak o‘tdi u”). va bu milanxoliyada jo‘rttalik ko‘rinadi.

“Yangi she’riyat” vakillariga o‘tmishga qaytish intilishlari xos bo‘lgan. Bu esa o‘rta asrlarni ideallashtirishga olib keladi va ular dan shoirlar kelajakka bo‘lgan umidini tasdiqlash uchun tayanchni qidiradi. She’rlarda eski Vietnam urf-odatlarining tasvirlari paydo bo‘la boshlaydi, shoir Te Lan Vien (1920) esa Tyampi o‘lgan davlatning tarixiga murojaat etib, uni Vietnam xalqining taqdiriga o‘xshashligini ko‘radi. U Vietnam yerida sig‘inadigan hamma xudo va

⁶⁶ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А.М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 648.

avliyolarga sanolar aytadi (“O Shakyamuni! O Iisus! O Kuntszi! O Laotszi”)⁶⁷.

“Yangi she’riyat” yo‘nalishining bir qismida 30 - yillarda tanilgan satirik shoir Tu Mo (1930) ijodi turadi. U o‘zining qarashlari bilan realistik yozuvchilar asarlariga yaqin edi. Tu Moga xos bo‘lgan hozirgi kun uchun muhim mavzularining - xalq mavzulari bilan o‘zaro mos kelishini mohirona yaratishi, ko‘pincha Vietnam she’rlarining qo‘shiqli shaklida bo‘ladi. Vu Ngauk Fan yozadi: “Eski she’rlarimizning jarangli bulog‘i hali qurib ketmagan, chunki Vietnam xalqi qadimdan shu shirin buloq suvidan ichishga o‘rgangan edi”⁶⁸.

Tu Mo XIX asr oxiridagi satirik shoir Tu Siong ning uslubini davom ettiradi (Tu Siong – “Ozg‘in Bakalavr”, Tu Mo – “Semiz Bakalavr”). Bu taxallus novcha va oriq gavdalar, muhlisilarga tanish bo‘lgani uchun, kulgu chiqaradi. Tu Mo qalamiga juda ko‘p asarlar xalq tarixi va odatlari haqida yozilgan she’rlar edi. Shoir o‘zining o‘tkir qarashlari bilan mustamlakachi-feodal tuzumini qoralaydi.

*Amaldor qasrida mehmon, mehmondorchilik zo ‘r
Tevarak atrofi minglab och odamlar to ‘dasi
O‘g‘zilarini ochib, ko ‘zlari bilan baqrayardi,
Ichlarida, janoblariga tilar ming yil umrlar.*

Tu Mo she’rlari ko‘proq mustamlakachilar tartibining o‘zagiga va qalbaki “demokratiyasiga” qaratilgan edi. Masalan, shoirlar qalamining bir necha shtrixi bilan, inqilobdan avvaldagagi Vietnamning saylov kompaniyasini ko‘rsatib beradi.

Nomzodlarini olg‘a surish eshitilar

⁶⁷ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А.М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 648.

⁶⁸ O‘sha manba. - B.651.

*Sotuvchilar ham ko ‘zlari erga qaratar
Narxin oshirar dorixona ham
Juda ko ‘plar quloq yuvuvchilar*

Biroq Tu Mo maorif g‘oyalarini merosxo‘ri, xalqining baxtsizligi nodonligida va qo‘rroqligida deb o‘ylar edi: “hamma qayg‘ular savodsizlikdan, kitob o‘qimaganligidandir”⁶⁹.

30 - yillarda zamonaviy dramaning rivojlanishi juda sekin o‘tgan: sabablaridan biri professional artistik kasbini egallagan kollektiv yo‘q edi. O‘sha davrdagi havaskorlik spektaklariga - Vietnam shahar burjuaziyasi muhitida mashhur ssenariylarni, odatda Kxay Xing va Nyat Lin “romantiklar”ning asarlaridan yozilgan.

Demokratik front (1936-1939) davrida zamonaviy dramaning chala professional truppalari paydo bo‘ladi, ular “Muhabbat xatlari” (Niing bik txi tin, 1937) pyesa to‘plami va o‘zining chuqur bo‘limgan mazmuni bilan ajralib turadigan “Rashk” (Gen, 1937) asarlarining muallifi Doan Fu Ti va “Pul” (Kim tien,) pyesasi bilan 1938 - yilda chiqqan- Vi Xyuen Daklar.

Bu davrda yana Xyui Txongning (t.1916) tarixiy mavzusida she’riy pyesasi paydo bo‘ldi. Ikkinci jahon urushi yillarida esa Vietnamni o‘tgan tarixi haqidagi pyesa bilan Nguyen Xyui Tiong (1912-1960) chiqadi.

“Vu Nii To” (1943) pyesasida u san’atkor va hukmdorning, san’atkor va xalqning, san’at va xalqning orasidagi o‘zaro munosobati to‘g‘risida masalasini qo‘yadi. Pyesaning bosh qahramoni me’mor Vu Ni To, Le Tiong Zik (XVI) imperatori uchun, ajoyib qasr qurib berishga rozi bo‘ladi, chunki u o‘z qobiliyati bilan go‘zallik asarlarini yaratib vatanini bezamoqchi bo‘ladi. U bu ishga, podsho uning

⁶⁹ Никулин Н. И.. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени X-XIX вв., М., Hayka. 1989. - С.605.

nafsoniyatini qoniqtirganidan, uni konfutsiy donishmanlarga tenglashtirganidan so‘ng rozi bo‘ladi. Har tomondan olib kelingan odamlar dabdabali saroy qurilishida halok bo‘lishadi. Me’mor buni payqamaydi, u butunlay toshli go‘zalligikni yaratish bilan band bo‘ladi. Xalq qo‘zg‘aladi, imperatorni o‘ldirishadi va qasrni buzishadi. Me’mor odamlar oldidagi aybini tan olmaydi, lekin yaratgan asarini yo‘q qilinganini bilgandan so‘ng, yuragi dosh bermay halok bo‘ladi. Dramaturg xalq bilan bog‘liq bo‘lmagan san’at, “san’at uchun san’at”, xalqqa tushunarsiz bo‘lgan va unga qarama-qarshi san’atni yaratgan san’atkorning taqdiri fojiali bo‘lishini yoritib beradi.

Inqilobdan avvalgi Vietnamda zamonaviy teatrlar katta shaharlardan tashqariga chiqmagan edi: musiqa dramalarga o‘rgangan tomoshabinlar, hali ham spektakllarga qanday qo‘shiqlar ko‘ylanishini eshitish uchun borar edilar. Zamonaviy teatr ishqibozlarining professional teatrni yaratish uchun qilingan harakatlari har doimdek muvaffiqiyatsizlikka uchradi.

Shunga qaramay zamonaviy drama teatri - musiqali dramaga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan, unga ko‘pincha, doimiy “so‘zlashuv” teatr truppalarini tashkil eta olmagan, dramaturg va teatr arboblari e’tibor qaratishgan edi. Tabiiyki, ular musiqali dramaga o‘zlarining tajribasini va printsiplarini olib kelganlar.

“Yangilangan teatr”ni rivojlanishida shoir Txe Li rejissor va dramaturg sifatida faol harakat qilgan, u 1942-1943 - yillarda uni nomini olgan truppani tashkil qiladi.

30-yillar tongida, qahramonlik xaraktyorini ko‘rsatishdan voz kechib, ularni ishqiy dramalariga o‘xshatib almashtirishga urinishlari, faqatgina an’anaviy obrazlarni zamonaviylashtirishiga va ularni parodiya (buzuq o‘xshatma) ga aylanishiga olib kelgan.

30- yillarga kelib, dramaturglar va sahnalashtiruvchilarning epchillik, quvlik bilan qilingan harakatlariga qaramasdan. shahar tamoshobinlarining *teo* ga bo‘lgan qiziqishi ancha pasayib ketadi

(ba’zilari, tamoshobinlar saviyasi pastligiga ishonib, hatto keng tarqalgan fransuz qo’shiqlarini spektakllarga kiritishgan). Teo qishloqqa chiqib ketadi, ko‘p truppalar tarqalib ketadi. Avgust inqilobi arafasida, Nguyen Din Ngi ning teatri ham ijod qilmay qo‘yadi.

Mashaqqatli yapon bosqinchilik yillari vietnam teatri tarixida nihoyatda og‘ir payt edi. Lekin ayni o‘sha davrda ko‘p ilg‘or teart arboblari 1943-yilda tuzilgan vatanparvar Vet Min frontini qoshidagi “Vatanni saqlash” madaniyat xizmatchilarining yashirincha assotsiatsiyaga kirganlar. Bu assotsiatsiyasiga Vietnamning eng ko‘zga kuringan yozuvchi va dramaturglari: Nam Kao, To Xoay, Nguyen Xyui Tiong, Nguyen Xong va boshqalar a’zo bo‘lganlar. O‘sha yili Hindixitay kommunistik partiyasi, taniqli “Madaniyat masalalari bo‘yicha tezislar” (De kiong van xoa) tavsiya qilishdi, ular adabiyotda reaktsion intilishlarga qarshi kurashida katta ahamiyatga ega bo‘ldi va Vietnam xalqning badiiy so‘z san’atini rivojlanishida yangi yo‘llarini ochishni harakat qilishgan.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Xo Shi Min kim va uning vietnam adabiyotidagi o‘rni?
2. 1930-1945-yillar vietnam adabiyotida qanday yo‘nalish va oqimlar paydo bo‘ldi?
3. XX asrning 40-yillari Vietnamda ijtimoiy vaziyat haqida so‘zlab bering.
4. “Yangilangan” teatrni an’anaviy teatrdan farqi nimalardan iborat edi?

Vietnam Demokratik Respublikasining adabiyoti G‘alaba qozongan inqilob adabiyoti

Darsning maqsadi: Talabalarga Vietnam Demokratik Respublikasining adabiyoti va ushbu davrdagi o‘zgarishlar, yangi

yo‘nalishlarni shaklanishi hamda rivojlanish bosqichlari haqida amaliy tushuncha berish.

Tayanch so‘z va iboralar: inqilobiy adabiyot, uslub, folklor, frazeologiya, obraz, hikoya, yangi she’riyat, realistik, didaktik, prozalashtirish, kuokngi.

Butun insoniyat uchun ahamiyatli 1945-yil, Vietnam tarixida katta o‘zgarish yili bo‘lgan. Janob Xo Shi Min 1945-yilda, Sobiq Armiyasining, nemis va yapon askarlari ustidan qozongan qahramona g‘alabasidan foydalanib – Hindixitoy kommunistik partiyasi umumxalq qo‘zg‘alonini boshqarib, hukumatni o‘z qo‘liga oldi va Vietnam Demokratik Respublikasini tashkil etdi.

Yosh respublikaning birinchi yili - qiyin, havfli va quvonchli bo‘lgan: qiyin – chunki mamlakatda ochlik, xo‘jaliklar vayron bo‘lgan; havfli – chunki ingliz, fransuz qo‘shinlari haliyam Vietnam yerini bosib turar edilar, quvonchli – chunki xalq chuqur ijtimoiy o‘zgarish paytini anglagan davr edi. Bu payt, eskicha qolib ketgan barcha narsalarining buzilishi va yangilikni yaratish payti edi. Oldingi mustamlaka davlatning jamiyat va madaniyat hayoti ko‘rinmagan o‘zgarishlarni kechiradi: Xanoyni o‘zida ellikka yaqin gazeta va jurnallar chop etilar edi. Tabiiyki, inqilobdan so‘nggi birinchi yil yangi adabiyot tug‘ilish yili ham bo‘lgan.

O‘tkir g‘oyaviy kurashlarda yangi adabiyot tug‘ilgan, uning rivojlanishining aniq yo‘nalishlari haqidagi masala yechila boshladi. “Eng avvalo biz xalq ommasi tomoniga turishimiz va ishga kirishimiz kerak –deb atoqli tanqidchi- Dang Txay May madaniyat ishchilarini shu ishlarni qilishga chaqirgan. Xalq bilan yashash, uning tashvishlar bilan tashvishlanish, uning fikirlari bilan fikirlash, umidlariga ishonch qilib yashash bizning vazifamizdir”. VDR ning, shu davridagi, adabiyot jarayonini bundan oldin bo‘lmagan intilishlarining xilma-

xilligi va eng ilg‘orlari bir-biriga yaqinlashuvi bilan ifodalanadi. Sotsialistik realizm asoschisi Gorkiy ijodiga qiziqish kuchayadi. Uning “Ona” romani to‘liq nashri 1946-yilda, chop etilgan; bir necha hikoyalar tarjima qilingan edi⁷⁰.

Inqilob adabiyoti yashirin holatidan chiqadi. 1946-yil 1-marotaba, alohida kitobda To Xiu ning she’rlari chop etildi. Inqilobga qadar yaratilgan asarlar qatorida unga yangi, “Ozodlik” (Ziay Faung), 1942-1946 - yillarda yaratilgan to‘plami kirgan. Bu to‘plam she’rlari xursadchilik bilan ozodlik nafasini oldi.

Qushlar quyoshga, yorug ‘likka uchar

To ‘sliq yo ‘qdir bahor qushiga

To‘plamning xaraktyorli obrazi – bahor, qayta tug‘ilish davri. She’rlar shunday nomlanadi – “Bahor keldi” (Suan den, 1945), “Insoniyat bahori” (Suan nyan loay, 1946). Biroq shoir faqatgina g‘alaba bilan suyunib qolmay, kurash davrida og‘ir yo‘qotishlarni ham yoritadi:

Intizor bo ‘ldik biz, seni sog ‘inib, bahor

Insoniyat quyoshga intilar

Inson dengiz o ‘zra borlig ‘i bilan to ‘rar

Gullab ketar tabasum bilan – sen keldin

“Xyue Avgust kunlarida” (Xyue txang Tam, 1945) to‘plamidan joy olgan she’rlardan birida, imperator poytaxtidagi qo‘zg‘olonining qatnashchisi To Xiu bu voqeani tasvirlagan: unda – qo‘zg‘olon manzarasining ko‘rinishida, sarosimaga tushgan, faqir kishi – “nefrit saroyida” yolg‘iz qolgan imperator Bao Day ko‘rsatilgan.

⁷⁰ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А.М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 650.

Yangi adabiyotni shakllanishida dramaturgiya va teatr ko‘rinarli o‘rin egalladi. Sahnada birinchi marta inqilobchilarining siymolari paydo bo‘ldi.

Inqilobiy teatr va dramaturgianing asl murojaatnomasi Nguyen Xyui Tiongning “Bak-shondagi qo‘zg‘olon” (Bak-shon, 1946) pyesasi edi. Pyesaning asosiy qahramoni – qari vatanparvar Fiong. Inqilob voqealari front chizig‘i kabi uni oilasini ajratib qo‘ydi: Fiong kuyovi dushman va sotqin bo‘ladi, qizi sekin-asta otasini haqligini tushunadi va qo‘zg‘olonda yengilgandan keyin u qo‘zg‘olonchilar tarafiga o‘tadi. Fiong siymosi tamoshobinlar diqqatini, o‘zining g‘oyaviy ishonchi, inqilobga sodiqligi bilan, to‘la psixologik aniqligiga ega bo‘lmasa ham o‘ziga qarata olgan. Fiongning xotini siymosida muallif yumorni, lirikani va fojiani bir-biriga mos qilib jamlagan.

Shuningdek 1946 - yilda inqilob mazmunidagi boshqa pyesa ham paydo bo‘lgan (ularni qatorida Nguyen Kong Mining “To Xeu”). Bu tasodif emas: spektakl darrov ijimoiy-siyosiy hayotida va g‘oyaviy kurashda muhim dalilga aylanadi va katta aks-sado oladi.

Romantik-shoirlar Suan Zieu va Xyui Txong larning inqilobiy voqealarining javobi bo‘lgan va lirik she’rlari - hammani qamrab olgan g‘alaba tuyg‘usini ifodalar edi.

Tez o‘tayotgan vaqtga qayg‘urgan muhabbat kuychisi Suan Zieu ikkita poema yaratadi. Ushbu poemalar vatanparvarlik va fuqorolik pafosiga va milliy ozodlikka erishish orzu havaslariga to‘la bo‘lib, “Milliy bayroq” (Ngon kuok ki, 1945), va “Tog‘lar va daryolar anjumani” (Xoy ngi non shong, 1946) deb nomlangan.

Suan Zieuning “Tog‘lar va daryolar anjumani” poemasida o‘z xalqining o‘tmishini komillashtiradi. U XIII asr oxiridagi mo‘g‘ul bosqinchiligiga qarshi kurashi paytidagi Zien-xongdagi tarixiy kengashini va Vietnam birinchi milliy kengashini orasida parallelar o‘tkazadi. Shoir saylov byulletenlar to‘g‘risida: “Bu zaxarli nayzalar o‘rmoni, itlar tudasini o‘qlar yomg‘iri bilan yog‘dirib ularni quvib

tarqatdi” deb gapiradi. Hech qachon mustaqilikni birinchi kunlarini, har bir vietnam vatanparvari uchun, “milliy bayroq”, “milliy kengash” so‘zлari alohida ma’noga ega bo‘lganini esdan chiqarmaslik kerak.

Tanqidiy realizmni Nguyen Xoang, Nam Kao, To Xoay ijodlarida, shu davridagi fosh qilishga tezda kuchayib ketgan intilishlarida ifodalaydi. Yozuvchilar asarlarida markazida endi zulmning kuchlariga qarshi yakka kurashchi emas, balki o‘zining kuchiga ishongan, xalq ommasi turar edi. Nguyen Xoangning “Qari Vet” (Ba ku Vet, 1945) hikoyasining qahramoni, vietnam adabiyotshunoslari uni Gorkiyning Nilovnaga tenglashtiradilar, – “bu inqilobchilarni onasi, u tushungan holda, qamoqqa tashlangan o‘g‘illarining ishini davom etiruvchisidir”⁷¹. Yozuvchi, hukumat tomonidan o‘g‘rilik kabi tortib olishlaridan g‘azablangan dehqonlarning ommaviy ko‘tarilishining manzarasini chizadi. Jo‘sinqinlik bilan ayol hamqishloqlarini kurashga chaqiradi. Uning so‘zлari odamlar ongiga yetib boradi. Fransuz postining boshlig‘i, qari ona vyetga o‘q uzmoqchi bo‘ladi. “Uning qaltiroq qo‘li to‘pponchani ko‘taradi. Lekin odamlarning to‘lqinlari birin-ketin bostirib kela boshlaydi. Ko‘mirni, tuproqni, g‘ishtlarni, toshlarni avtomashinaga qarab otishni boshlashadi”⁷². Hikoyaning qahramonining obrazida yangi odam, zulm dunyosiga qarshi chiqqanlarning, ommaning boshlovchisi sifatida nomayon bo‘ladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Vietnam Demokratik Respublikasining adabiyoti davrida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
2. Tanqidiy realizm yo‘nalishining tamoyillari nimalardan iborat edi?

⁷¹ Литература Востока в новейшее время. М., изд.Московского университета 1977. – С.328

⁷² O’sha manba. - B.536

3. XX asrning 45-yillari Vietnamda ijtimoiy vaziyat haqida so‘zlab bering.

4. XX asrning 45-yillari Vietnam adabiyotida dramaturgiya va teatr rivoji haqida nimalarni bilasiz?

Qarshilik urushi yillaridagi adabiyot

Darsning maqsadi: Talabalarga Qarshilik urushi yillaridagi adabiyot, undagi o‘zgarishlar va yangi yo‘nalish, janrlar rivoji haqida amaliy tushuncha berish.

Tayanch so‘z va iboralar: kazao, chuyen, ocherk, so‘llar, obraz, tendentsiya, roman, realistik, didaktik, prozalashtirish, kuokngi.

Vietnam xalqining Qarshilik urushi (1946-1954) - fransuz mustamlakachilariga qarshi, ozodlik va mustaqillik uchun kurashi, yosh vietnam adabiyotiga haqiqiy maktab bo‘lib, yangilikni izlash va novatorlik bilan ajralib turadi. Bu paytdagi adabiyot, avval deyarli savodsiz bo‘lgan xalqning boyligi bo‘lib qoladi. Adabiyot tilining va badiiy formalarining xalqqa moslashtirilishi (demakratlashtirilishi) davom etadi, bu xalqda mashhur bo‘lgan janrlar kazao, chuyen va keyinroq teo larni keng tarqalib ketishida namoyon bo‘ladi. Hatto “so‘llar”ning intilishlari qandaydir tarqalishga ega bo‘ldi, so‘llar faqatgina xalq qo‘sishq ijodining kattaliklarida yozilgan she’rlarni tan olishadi.

1948 - yilda Vietnam ijodiy intelligentsiyasi o‘zini qurultoyida adabiyot va san’at ijodkorlar Assotsiatsiyani tashkil etadi, bu Assotsiatsiya Hindixitoy kommunistik partiyaning rahbarligida ish olib boradi.

Ko‘pchiligi burjuaziya intelligentsiya muhitidan chiqqan yozuvchilar oldiga – xalq ommasi bilan yaqinlashish; ishchi, dehqon

va askarlarning istak va umidlarini tushunish, ularning orzulari va intilishlari bilan yashashni o‘rganish, ozodlik kurashining bir maqsadi uchun tug‘ilgan kollektivizmni yurakdan qabul qilish vazifasi qo‘yilgan edi. Ham oldingi avlod yozuvchilariga, ham Qarshilik urush yillarida birinchi marta qo‘llariga qalam olgan yoshlarga ichki o‘zgartirishlar yo‘lini o‘tishi oson kechmagan.

Iste’dodli yozuvchi va jurnalist Chan Dang (1922-1950) o‘zining “Bir vaqt poytaxtda” (Mot len t’yo yox txu do) nomli 1- ocherkini 1946 - yilda nashr etgan. Bu qisqa-lo‘nda lavhasi ramzli maqomga egadir: “To‘rtta jangchi askarlar chiroqlar bilan yoritilgan chiroyli, shinam va qulaylik shahri bo‘lmish Xanoyda yuradilar. Ular safda ketishadi, lekin bittadan, xuddi changalzorlarda yurgandek, jim borishadi, bu “atrofidagi bilan hech qanday bog‘liqligi yo‘qligiga” o‘xshaydi. Bular Qarshilik askarlari, vatan g‘alabasi uchun, inqilob oliy maqsadlari uchun qahramonlik sari boruvchilaridir”.

Og‘ir inqilob yo‘li yoki tor maishiy bema’ni hayot kechirish – qaysi yo‘lni tanlash burjuaziya intelligentni oldida zamon qo‘ygan masala. Nguyen Din Txi belgilashi bo‘yicha – “Chan Dang birinchi ocherki –voz kechish va e’tiroz so‘zi bo‘lib, inqilob sari yurish, qat’iy qarori edi”.

Yozuvchining bu murojaati mardlik, ammo eng og‘ir qilgan qadamlaridan emas. Tanlagan yo‘lidan chekinmasdan, qattiq qadamlar bilan yurish bu bir jasorat edi, chunki bu hammaning ham qo‘lidan kelavermasdi: qochoqlar ham, sotqinlar ham bo‘ldi. Xalq orasida – “hayot va o‘lim orasidagi chegaradan o‘tadigan”, Qarishilik urush maydonlarida, Chan Dang va uning qalamdoshlari - yozuvchi-kommunist, inqilobchi askarlariga aylanishlarini ichlaridan, ba’zan azobga soladigan bo‘lib o‘tkazar edilar.

Shu davridagi vietnam adabiyoti faqatgina yangi mavzular va yangi qahramonlar bilan boyitilmagan, u hayotni tasdiqlovchi aniq tarixiy istiqbolining xursandchilik garizontlariga olib keluvchi

mavzulari bilan ko‘pincha chuqur dramatizm bilan muvofiq bo‘ladi, chunki fofja va qahramonlik ko‘pincha bo‘linmas bo‘ladi. Inqilobga qadar bo‘lgan ko‘p yozuvchilarga xos ishonchsizliklar, pessimizmlar, charchashlar o‘tmishda qolib ketgan edi. Qizig‘I shundaki, Nam Kaoning “Eskirgan hayot” romanining sahifalarida tushkunlik sezilib turgan bo‘lsa, inqilobdan so‘ng yaratilgan chuqur ma’noli “Ko‘zlar” (Doy mat, 1948) hikoyasida yozuvchi - o‘z xalqining kurashini qabul qilmagan, ajralib qolgan (qochqin) - intelligentni fikrlovchi, butunlay oldingi charchoqni silkitib yuborgan va hayotini ma’nosini “umumxalq ozodligi, mustaqilligi va baxti” uchun Qarshilik urushida kurashgan intelligentga qarama-qarshi qo‘yadi.⁷³

O‘sha paytlar vietnam adabiyotidagi paydo bo‘lgan yangiliklarni baholab - I. Zimonina⁷⁴ haqqoniy aytadi: “Inqilob, adabiyotning estetikali ideallarini (oliy maqsadlarini) o‘zgartiradi. Buni adabiyotda amalga oshirish uchun uzoq izlanishlarni talab qiladi. Birinchi bosqichda ilg‘or oliy maqsadlarni qo‘lga olinishi, ijtimoiy muammolarini qayta tushinishi edi. Bu davridagi adabiyotda ro‘y bergen hamma voqealar va ziddiyatlar insonni jamiyatga bo‘lgan munosabatlariga qaratilgan edi, insonning inqilobdagagi o‘rni va qahramonlarining xaraktyori ana shu aloqalar va qarama-qarshiliklar yordamida berilgan edi. Insonning ijtimoy borlig‘i eng ahamiyatli va aniqlovchi narsasi edi, g‘oyalik hukmronlik qilar edi. Bu nafosat tarafga ozgina loqaydlik qarash bo‘ladi, vaqtincha inson ichki dunyosini ochish orqaga surildi va ma’lum bir xususiyalarini soddalikka olib keldi. Bu hammasi yangi adabiyotning o‘sishida katta yo‘qotishlar edi”.

⁷³ Литература Востока в новейшее время. М., изд.Московского университета 1977. – С.514

⁷⁴ Зимонина И.П. О просветительских тенденциях во вьетнамской новелле начала XXв –В кн.: Просветительство в литературах Востока. М., «Наука», 1973

Adabiyotda yangi ajoyib hayotiy materiallarni o‘zlashtirilishi, yozuvchilarda haqiqat faktlariga jonli qiziqish paydo qiladi va ularning asarlarida hujjatlarga asoslangan aniq tendentsiya (intilish) ko‘rina boshlaydi.

Birinchi navbatlarda badiiy haqiqat tushunchasi aniqlikka sinonim sifatida ko‘rsatiladi, bu esa kelajakda to‘qima obrazlarni inkor qilishga va badiiy ijodni “qanoatsizlantirish”ga olib kelish havfini solar edi. Lekin o‘sha paytda badiiy reportaj va ocherklar vietnam prozasini shakllanishida muhim faktor bo‘lib, san’at so‘zining yangi hayotiy jarayonlari o‘zlashtirish vositasi bo‘lgan, hali adabiyot tanqidiy realizm tomonidan o‘rganilmagan va Vietnamda butunlay rivojlanmagan edi.

“Qarshilik” urushining 1-yillarida ocherklar, hikoyalar, reportajlar, kazaolar she’rlarining ustunlik yillari bo‘lgan. 1952-yilda prezident Xo Shi Min aytganidek – “Hozir bizning vatandoshlarimizni ta’lim darajasi – o‘qishga chuqurlashish imkoniyatini bera olmaydi, bizning qog‘oz va siyoh to‘plamlarimiz kamligi sababidan mufassal va katta kitoblarni yozib va nashr eta olmaymiz”⁷⁵. Biroq adabiyotning operativ ishlari – urushlar olovida tug‘ilgan va urush yillari solnomasi bo‘lgan – ocherklarni, hikoyalarni, kazaolarni va she’rlarni haqiqiy badiylikdan ajratmasdi, shuning uchun o‘quvchining hayojonlanishga va xursand bo‘lishga imkon tug‘diradi.

Ajoyib ocherklar ustasi bo‘lgan Chan Dang ko‘pgina jang operatsiyalarida va dushmanni orqaga chekintirishlarda (reyd) qatnashgan. Uni qo‘lida har doim qalam va bloknot bo‘lgan. Yozuvchi urushning begin kunlarini ko‘rsatishni yaxshi ko‘rar, ayniqsa unda ommaviy sahnalar yaxshi chiqar edi. Chan Dang hikoya qilishda xasis edi, unga revalyutsioner kurashchining ichki dunyosini tasvirlash uchun unga 1-2 ta gap yetarli bo‘lar edi. Dramatik og‘ir jangda

⁷⁵ Литература Востока в новейшее время. М., изд.Московского университета 1977. - С.514

dushmani bilan kurashi va uning hayvonlarcha qat’iylik bilan himoyalanishi, do’stlarining o’limi ham asardagi optemizm bilan humor nurlarini so‘ndirib qo‘ymaydi. (“Forang yonidagi jang” – “Chen Fo-rang”, 1949).

Asar qahramoni rota dushmanlarning istehkomiga qattiq hujum qilishga jo‘naydi. Hujum boshlanishiga 52 daqiqa qolganda, askarlarni kuzatib ketayotgan batalyon boshlig‘i ularning yuzlariga diqqat bilan qarab, o‘yladi: Ulardan qay birini 1 necha soatdan so‘ng jangda halok bo‘lganlar ro‘yxatiga kiritish kerak bo‘ladi... Jangchilar dushmanning o‘qlaridan yotib olishadi. Aloqachi Gyue boshqaruв punktidan rotalar tomonga sudrala boshlaydi. (“Agarda uni ishi shunday ketsa, unda u najotsiz qoladi...”). Jangchilar o‘limiga 2 qadam qolishiga qaramay, 1 daqiqali dam olishlarida hazil-mutoyiba qilishga kuch topadilar. So‘ngra yana jangga kirishadilar. “Bir jangchi istehkomga bostirib kiradi va yerda yotgan iflos kiyimli, kirdan qoraygan yuzli odamga otilib, jahl bilan unga baqiradi: “Asirga tushgin, hoziroq taslim bo‘l!” Yotgan odam o‘tiradi: “Men 120-rotadanman, sen esa 122-rotadansan nimaga ekan biz bir-birimizga taslim bo‘lishimiz kerak?” U ingrab, o‘zgargan ovoz bilan qo‘srimcha qiladi: “Sanitarlar qani?” Santarlar esa ulgirmadi. Binya vzvod boshqaruvchining tanasi 5 raqamli uyning tomida yotibdi, uni qo‘lida esa haliyam qilichning sopi turar edi”⁷⁶.

Energiyalik, lo‘ndalik va aniqlik uslubi, shaxsiy “ovozi”, qarashlarining o‘tkirligi bu katta yozuvi iste’dod nishonalarini ko‘rsatadi. Nguyen Din Txi - Chan Dang bilan 1950-yil oxirida tog‘li qishlog‘idagi oxirgi uchrashuvi haqida quyidagicha so‘zlab beradi: “Chan Dang o‘zining issiq kiyimlarini yo‘qotadi va sovuqdan tishlari bir-biriga urilib turadi. U bizlar bilan 1 hafta yashadi, harbiylarni adabiyot ishiga o‘rgatar edi. Nung millatidan bo‘lgan uy bekasiga

⁷⁶ Рассказы вьетнамских писателей. Изд.Москва 1960. – 130 -с.

qo'shiqlarni o'rgatar, kechalari yarim tungacha olov yonida yopinchiqni yelkalariga tashlab front yaqinida turgan odamlar haqida hikoyalar yozardi”⁷⁷. Bu “yilning oxirgi kunlarida” (“Niing ngay kuoy nam”, 1950) bo'lgan, odamlar orasidagi yangi munosabatlarini tug'ilishi haqida hikoya qilar edi.

Umumxalq urushi xar bir insonning shaxsiy ishi bo'lib qoldi va yuksak ma'naviy kuchni talab qildi. Bu mavzuga tegishli xarbiy yozuvchi Xo Fiong (1930-yil) “Uydan kelgan xat” (“Txi nya”. 1949) asarida yozgan.

Liong askarini urush yillari qadrdon yerlariga olib keladi: Dushmanlari qishlog'ini yondirishadi, qariyalarini o'ldirib ketishadi, qaylig'i Tini xo'rplashadi... O'sha yillar asarlarda kam uchraydigan “sevgi” mavzusi, bu yerda dramatik ohangi bilan tasvirlanadi: “Ayol o'zini orqaga tashladi: “Osmon! San qayting, Liong?”. Man uni yoniga yaqinlashdim. Shunday qilib biz Ti bilan uchrashdik. Uni qo'lini qo'limga oldim. Biz uzoq vaqt jim turdik, so'ng Ti chiday olmasdan yig'ladi. Man uni bag'rimga bosim shivirladim: “Jonim man hammasini bilaman, sani bunda hech qanday aybing yo'q, man haliyam sani sevaman. Bu qaroqchilarga la'nat bo'lsin!”⁷⁸.

Bu hikoya o'sha vaqtdagi ko'p prozali asarlardan romantik tuyg'usi bilan farq qilar edi.

Yozuvchi Nam Kao ham, zamonaviy hayotni - yangi badiiy usullar bilan ochishni harakat qiladi. Uni ko'pgina ocherklarida unitilmas va qaytarilmas o'ziga xos urush yillarning hayoti ko'rsatilgan, kollektivlik va yangi odam obrazlari asosiy tasvirlash ob'ektlari bo'lgan.

“Front yo'liga” (“Diong di mat chan”) – asarida u jangchilarini, transport brigadalarning ishchilarini va boshqa bitmas-tugamas

⁷⁷ Литература Востока в новейшее время. М., изд. Московского университета 1977.
C.397

⁷⁸ Рассказы вьетнамских писателей. Изд. Москва 1960. 130-с.

odamlar tasvirlarini, bir maqsadga intilganlarning ko‘povozlarini ifodalaydi.

Nam Kao ocherk va hikoyalarining xaraktyor tasvirlashini aniqlaydigan xususiyatlari bu insonni mehnatda, jangda va “Qarshilik harakatiga” bo‘lgan munosabatlarini yoritib beradi. Hatto, hikoyadagi zamindor Tonni, yosh revalyutsionerlarga yordam berayotganligi haqida bilgan “aytib beruvchi muallif” hush ko‘rishni boshlaydi. (“Dushmanlar istehkomidan 4 km narida” – “Bon key sho kat kan ki dit”, 1949). Lekin, odamni, jamiyat oldidagi burchiga bo‘lgan munosabatini ifoda etishi, uni obrazlarining ishonchlilagini ko‘rsatuvchi chuqurlik va serqirralik har doim ham yetmaslikka olib keladi. Ammo, bu hikoyalarni boshqalardan farqi, L.Z. Eydlin (“horijiy adabiyot” №6, 1966-yil) yozishicha: “Adabiyotga munosib bo‘lgan publitsistik yozish odati va inson mavjudlik ma’nosiga qarashlari - revalyutsiya olovida tug‘ilib, o‘quvchilarini yangi odam obrazi asosida tarbiyalaydi”⁷⁹.

Chan Dang va Nam Kao vietnam “qarshilik” adabiyotining tarixiga, front kundalik hayotini va oddiy odamlarning qahramonliklarini yozgan mualliflar sifatida kirishdi. Nguyen Din Txi aytishicha: “Bu ocherklar va hikoyalar kelajak romanlari yaratilish harakatlaridan yaxshi berkitilgan edi”. Biroq na Chan Dang, na Nam Kao hech qaysinisi o‘z niyatlarini amalga oshira olmadi: ikkalovi ham askar o‘limini tanladi, o‘z xalqini yaqinlashayotgan g‘alabasi uchun o‘zlarini qurban qilishdi. Ammo ularning ishlarini boshqalar davom ettirishdi.

50-yillar boshlarida revalyutsiyadan keyingi 1-romanlar paydo bo‘la boshladi: Nguyen Din Txi ning “Hujumga olg‘a” (“Sung kit”, 1951), Vo Xyui Tama ning “Ko‘mir havzasi” (“Vung mo”, 1951), Nguyen Van Bong ning “Buyvol” (“Kon cheu”, 1952) bu asarlar bilan

⁷⁹ Литература Востока в новейшее время. М., изд.Московского университета 1977.
C.394

vietnam adabiyotida yangi qahramonlar paydo bo‘ldi. (revalyutsionerlar, askarlar, partizanlar, dehqonlar, ishchilar). Roman mualliflarni o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘z hayotiy tajribasini romanlarida asos qilib olishadi va ularning biografiyasi ko‘pincha yaratgan qahramonlarning taqdirlarini eslatadi.

Bu asarlarda xalq taqdiri faqatgina bitta shaxs tomonidan emas, balki bir butun kollektiv yordamida ko‘rsatilar va aynan bu yozuvchilarni qiziqtirar edi. Adabiyotda kollektiv (rota, partizanlik otryadi)ni umumiyl maqsadga bo‘lgan harakatni, uni har tomonlama o‘sishini ko‘ratishga intilganlar. Aynan shu yo‘l bilan o‘tgan voqealarning chuqur mazmunini o‘zatish mumkin deb hisoblashgan. Yozuvchilarning odatiy aniq bog‘lanishlarsiz va shaxsni kollektivning bir bo‘lagi sifatida va o‘zi bilan aloqa o‘rnatishlariga harakatlari asarlarda hali bu aloqalarning murakkabligini ko‘rsatmasdi.

Nguyen Din Txi yozgan “Qarshilik” urushi haqidagi 1-roman “Hujumga olg‘a” – (1924) edi.

Roman harakatlari qisqa vaqt bo‘lakda bayon qilinib, romanda xalq qo‘shinining tekisliklaridagi 1-urushi tasvirlangan. Hikoyaning markazida Shan politrug (rotaning siyosiy rahbari)ning rotasi turadi.

Nguyen Din Txi ocherk adabiyotidan chiqqan uslublar bilan keng foydalangan. Birinchidan bu xaraktyorning ko‘prejaligini – ommaviy sahnalarning serobligida ko‘rsatadi. Xalq yuk tashuvchilari og‘ir yuklari bilan yo‘lda qator-qator ketayotganda hushchaqchaqlik va hazillar bilan ko‘ngillarini ko‘tarishadi. (““Avtobusni” qabul qil! 2 g‘ildirakli Vietnam avtobusini!”). So‘ng doimiy “general” qo‘shini paydo bo‘ladi. Lavina kelmoqda, u dushmanni yo‘q qiladi. Bu yerda qo‘shin bo‘linmalarining marshlari va xalq yuk-tashuvchilarning oson bo‘limgan o‘tishlari (“maskirovka barglarining qimirlashi, bambuk savatlarni suzib ketishi, uzun hujum ko‘prigi 2 ta yuk-tashuvchilarning yelkalarida tebranib turardi”), fransuz istehkomlariga hujumi, jayranning tikonlariga o‘xshab qolgan to‘siqlarning

hurpaylanib ketgani va qo‘g‘irchoq hukmdorlarni yo‘q qilish maqsadida - dushmanlarni orqaga chekinishni majburlash va xalq orasida targ‘ibotlar qilishdan iborat edi.

Yozuvchi Nguyen Van Bong (1920) “Qarshilik”ning 1-yillarida adabiyotga hikoyalarning muallifi sifatida kirib keladi. 1952-yilda siyosiy xodim Nguyen Van Bong dushmanlarning front orqasidagi partizantlik rayonlaridan ozod qilingan yerlarga qaytib keladi, u (ko‘rinmas urush) qahramonlari – partizanlar haqida “Buyvol” romanini yaratadi. Roman o‘quvchilarni psixologik analizi bilan lol qoldirmaydi, fitnalar bilan qiziqtirib qo‘ymaydi. Biroq unda qahramonning individuallashuviga o‘tkir qiziqish kuzatiladi. Oddiy xalq xaraktyori asosida yosh partizan Cho tasvirlangan, u ozgina beso‘naqay va kamgap, katta mardlik egasi, hamda qachonki jamiyat manfaatlariga irodasizlik va iltifotsizlik ko‘rsatishsa yoki gapirishsa, u qo‘pol va chidamsiz bo‘lib qolar edi, lekin Cho chuqur insonniy tuyg‘ularni sezishga qodir shaxs sifatida tasvirlanadi.

Majburlamasdan, do‘stlarcha, chidam bilan sekretar Tik, Choga haqiqiy partizanlarning rahbari bo‘lishga yordam beradi. Xeu, Choning qaylig‘i, unga qaraganda odamlar bilan munosabatda fidokorligi, kamtarligi va xush-muomaligi bilan ajralar edi: u masalan do‘stlarcha muomala qiladi. Partizanlar tomoniga o‘tgan qishloq boyining o‘g‘li Tyanning sevgisini rad qiladi. Hayotsevar va ustaoomon Xoat boboning obrazi romanda juda muvaffaqiyatli tasvirlangan, uni tilidan har daqiqada hazillar chiqar, uning gapga ustaligi dushmanlarni qiyin ahvolga solar edi.

1951-yilda yosh konchi Vo Xyui Tam (1920y) ning “Ko‘mir havzasi” ishchi sinf to‘g‘risidagi romani Vietnamda nashr qilindi. U 16 ta ish tashlash chqishlarida qatnashgan edi.

Urush yillarida Xongay-Kamf ko‘mir havzasi dushmanlarning yashirin joyi edi. U yerdagi muhit to‘g‘risida yozuvchi shunday yozadi: “Bitta tongni o‘zida, ko‘p narsa sodir bo‘lishi

mumkin edi: Qora ishchi tufayli fransuz nazoratchisiga va poravoz haydovchisiga jarima solinishi, 7 ta konchining kuchish natijasida o'lishi, Xitoyning qora ishchilar maoshini ko'tarish uchun ish tashlashlari, eski ko'chada esa bir ishchi kartada butunlay yutqizganligi uchun elektrokar tagiga tashlanishi shular jumlasidandir”⁸⁰.

Vo Xyui Tam ishchilar kollektiv obrazini yaratadi. Ishchilar xo'jayinlariga, pudratchilariga va boshqa qon surovchilarga qarshi kurashish uchun birlashdilar. Vo Xyui Tam jamiyatdagi keskin farqlaridan mohirona foydalanadi: Mana ishchi Tyat, Fransuzlar tomonidan do'pposlangan (“yoshlari va qoni, ko'mir changi bilan aralashgan bo'lib, yonog'larida qotib ketgan edi”), uni xotini, orqada bolasi bilan o'roq orqali ko'mirni sindirardi va boshqa tomonda oq ko'yakda va tilla zanjirli soati bilan, 2 qavatli villada yashovchi Kuang pudratchi ko'rsatilar edi. Bunday farqlashlari bilan romanning g'oyaviy yo'nalishini berkitilgan. Qiynoqxonada qahramon o'lган communist Tuanni va uni sevgan, dindor katolikdan ongli ravishda ishchi sinfining kurashchisiga aylangan ishchi qiz Minni obrazlari muvaffaqiyatli bo'lgan. Roman ishchilarni ish tashlash kurashi g'alabasi bilan yakunlanadi.

Nguyen Din Txi, Nguyen Van Bong va Vo Xyui Tam larning revolyutsiyadan keyingi romanlari yangi qahramon obrazlarining kiritilishi bilangina cheklanmasdi hamda ular kelajak yozuvchilarning mohoratini oldindan aytardi, bu esa yangi Vietnam adabiyotini yaratishga xizmat qildi.⁸¹

Ko'p yozuvchilarni “Qarshilik urushi”ning yillari Vietnamning tog'li va kam millatlar yashagan rayonlarga olib keladi. Bu bog'lanishlar vietnam adabiyotini yana bir minnatdorlik, yorqinlikka

⁸⁰ Рассказы вьетнамских писателей. Изд.Москва 1960. 130 с.

⁸¹ Литература Востока в новейшее время. М., изд.Московского университета 1977. С.516

to‘lgan o‘ziga xos ifodali mavzu bilan boyitdi. Revalyutsiyadan oldingi Vietnam sirli o‘rmonlari(djungli), tog‘ xalqlarining ajoyib urf-odatlari bir xil Vietnam yozuvchilarini o‘ziga tortadi. Lekin, tashqi ekzotikadan boshqa hech narsa topa olishmadi: na tog‘ aholisining tabiat bilan qat’iy kundalik kurashlari, na ularning ozodlik sevarligini va asoratga soluvchilarga nafratini, na ularni ajoyib qo‘sish va afsonalarini. To Xoay va Nguyen Xyui Tiong yozuvchilari vietnam adabiyotiga qayta o‘rmon va tog‘ mavzularini qaytarish masalasini muvofaaqiyat bilan amalga oshirishdi.

To Xoay (1920y) inqilobdan oldin yozilgan o‘zining dastlabki hikoyalarida haqqoniylig bilan Xanoy shahar oldi viloyatining hunarmand-tikuvchilari baxtsiz hayotini va fabrikalar raqobatiga sabr qila olmaganligi sababli talon-taroj bo‘lishlarini tasvirlab beradi. Uning “Chigirtka Men ning sarguzashtlari” (Ze men fieu liu ki, 1941) hikoyasi kichkina o‘quvchilar orasida katta mashhurlikka ega edi. “Qarshilik” urushi boshlanganida esa communist-yozuvchi To Xoay xalq qo‘sini bilan tog‘larga ketadi. Shimoliy-g‘arbiy tog‘larda, txay va meo larning yurtida, u o‘z kelajak asarlarining qahramonlarini uchratadi.

1953-yilda To Xoay ning “Shimoliy-g‘arb hikoyalari” (Chuyen Tey-Bak), uchta kitobdan iborat bo‘lgan yozish tsiklini tugatadi, ulardan eng muvaffaqiyatlisi “Miong Zion” hikoyasi deb tan olingan. Ayol obrazining oila istibdodidan, urf-odatlarining hukmronligidan va xurofatlaridan ozod bo‘lishi hikoyaning markazida turadi. Bu qiz jasur qiz bo‘lib, maxfiy tashkilotning a’zosi bo‘lib qoladi, qamoqxonaga tushganida esa u taylandlik o‘qchilarini “Xalq qo‘sini” tomoniga o‘tishga ko‘ndiradi; Mi, nafratlangan zolim eri bilan orani ochiq qiladi.

Nguyen Xyui Tiong ning “Kao-lang uchun jang” (Ki shi Kao-lang, 1951) ocherk kitobida “Qarshilik Urushi” paytida Vietnam millatlari orasida qarindoshlik munosabatlarini yuzaga kelishini

ko‘rsatib berdi. Hech narsa tog‘liklarni vodiyga tushishga majbur qilolmadi. Ularning rivoyatlariga ko‘ra, tog‘dan tushgan tog‘likni o‘lim kutadi. Lekin Kao-bang va Lang-shon urushlaridan oldin hammasi o‘zgardi, hatto, “Xalq Qo‘shin” askarlariga yordam uchun manlar ham vodiyga tushdi. Millatlarning buyuk ajralishiga bardosh berishdi – ularni bitta buyuk maqsad birlashtirdi.

Avgust inqilobi va “Qarshilik” urushi Vietnam yetakchi shoirlarning ijodiga asosiy ta’sir ko‘rsatdi. Urushning birinchi yillarida she’riyat quruq dabdabali gap (ritorika)ga iboralarni ulug‘lamoqqa tortildi. Bu tabiiy edi, hamma yoqda mardlik muhiti hukm surardi. Shoir Vo Liem Shon (1888-1949) shunday yozgan:

*Yetarli! G‘amgin qo‘shiqlarni qoldiring
Nafasga ehtiyyot bo‘ling, shunda ular balandroq qichqirsin:
"Hujumga!"*

Adabiyotchilar yangi kurash haqiqatini hali endi o‘rganishi, Min Xyue she’rlariga xos bo‘lgan haqiqat ohanglariga endi kelishi kerak edi:

*Askarlar kiyingan holda uxlashadi
Barglarda gilamchalar yo‘q
Yuqoridan yomg‘ir somon orqali uchib o‘tadi
Allaqachon tong otdi.
(A. Adalis tarjimasi)⁸²*

Janglar ajoyib askar mardliklarni ochib beradi va qaytarib bo‘lmas yo‘qotishlarni olib keladi. She’riyat esa buni sezgirlik bilan qayd etadi. Masalan Nguyen Din Txi ning “O‘ldirilgan askarga” (Ngioy ti shi, 1948) she’rida:

Dubulg‘ada tuman tomchilari yaltirab turibdi...

⁸² Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А.М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 652.

*Yuz sokin... shuning uchun siz uxlashingiz mumkin,
 Bir uyum qon. Ko'krak ostida yara bor;
 Biz seni kechirish uchun keldik*

*Biz bu yerda, o'rmonda ajralamiz. Bilmay,
 Qaytganimizda topamizmi,
 Qabringizni tomosha qiling ... o'sgan
 Yer o't. Yomg'irlar tepalikni yuvib ketadi.
 Biz miltiqlarni qo'llarimizga mahkam ushlaymiz.
 Fireworks o'chdi. Va biz yana yo'ldamiz.
 Olisda tongning qizg'ish chizig'i bor.*
Qushlar qo'shiq aytishni boshladilar. Kecha o'tishi kerak
(rus tiliga N. Razgovorova tarjimasi)⁸³

Shoir To Xiu ning “Vet Bak” (1955) she'riy to'plami, urush yillar ijodining yakunidir. Vietnam tanqidchisi yozishicha: - “Uni she'rlarini o'qiganidan keyin umrbot eslab qolasan. She'rlarda buloq suvining mazasi bo'lib, charchagan yo'lovchi uni to'xtamasdan ichishga tayyordir”⁸⁴. To'plamidagi she'rlar boy milliy lirika asosida qurilgan. Ular bu yerda yangi musiqaviy ohanglarga ega bo'ladi. Shoir “Yangi she'riyat” ta'siriga bardosh qiladi lekin lo'nda she'rlarning ifodali va jonli tili bilan chuqur va aniq maqsadlarini va ijodkor fikrni ochib beradi, buni u xalq qo'shiqlaridan oladi.

Xalq qo'shiqlari jonli ifodalanadi, masalan “Yo'li bo'zaylik” (“Fa diong”, 1948) she'rida:

*Oy ko'zlarim atrofida aylanadi
 Uzoq yo'lning tasmasi qora*

⁸³ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А.М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 646.

⁸⁴ Литература Востока в новейшее время. М., изд.Московского университета 1977. - С.387

*Ishga kiringlar, opalar, iltimos!
Yerga yuzlab belkurak! Bir marta!
Yerga yuzlab belkurak! Ikki!
Yo 'limizni buzaylik, do 'stona bo 'ling! -
Dushmanlar esa u yerdan o 'tolmaydi...*

(rus tiliga N Razgovorova tarjimasi)⁸⁵

To Xiu shoirning o‘zining qahramonini – oddiy insonning ichki dunyosiga kirishga intilishi, uni she’rlarining tuzilishida va ohangida ko‘rinib turadi: bu siyosiy rahbar ning jangchi bilan hayojonli suhbati va onalarning dushmanlar bilan urushga ketgan o‘g‘illarini eslagan uyqusiz tunlari, nihoyat bu inqilob beshigi va poytaxti bo‘lgan Vet-Bak bilan hayrlashishidir va dushman o‘qi bilan o‘ldirilgan kichkina aloqachi to‘g‘risidagi hikoya “Liom” (1949) she’rida ko‘ramiz:

*To ‘satdan qip-qizil porlash paydo bo ‘ldi!
Liom, tugadi, o ‘rtoq!
Kichkintoyim qon ketyapti
Ochiq yaradan nima qabariq.*

(rus tiliga A.Axmatova tarjimasi)⁸⁶

“Vet-Bak” she’riy to‘plamiga To Xiuning mashhur she’rlarning tarjimalari ham kirgan: Uni mohorati sababli vietnam she’riyatiga – K. Simonovning “Mani kut”, “Alesha, sani esingdami...” she’rlari kirib kelgan.

“Avgust maydoni” she’riy to‘plamning muallifi Chan Xiu Txung (1926) she’riyatini “Qarshilik” urushning yillarida katta bo‘lgan qishlog‘iga bag‘ishlaydi. Uning she’rlari xalq qo‘shiqlarga xos bo‘lgan oddiylik va aniqlik bilan ajralar edi, ular kelajakka samimiyl

⁸⁵ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 646.

⁸⁶ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А.М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 650.

sofdillikka, ishonchga va yoshlarga xos soflik va shijoatga to‘la bo‘lgan. Uning qalami ostida Vietnam tabiatini va oddiy dehqonning kundalik hayotini o‘rab turgan hamma narsa jonlanib ketadi: banan daraxtlorlari, bambuk butalari va apelsin daraxtining shoxlari - Chan Xiu Txung ning qahramonlarining ichki dunyosini ochib berishga yordam beradi. Uning she’riyati zamonaviy vietnam she’riyatiga xos ifodalilikni izlashlari bilan belgilanadi. Misol sifatida biz “Guruch dallasida” (“Txam lua”, 1950y) keltirishimiz mumkin, bu she’r askar erini kutayotgan ayol haqida:

*Yana bog ‘daman, bananlar mo ‘l,
Apelsinlar yana sarg ‘aydi...
Man bog ‘, dalalarimizga qaravoman,
San haqingda uylab jonim.*

(rus tiliga A. Svirinining tarjimasi.)⁸⁷

Chan Xiu Txungning she’rlarida qishloqning o‘zgarish yillaridagi agrar islohatlari haqida juda ko‘p gapiriladi. Uning, qishloqdagi 2 ta dushman to‘g‘risidagi “Yo‘lbars va amaldor” (“Kop va dia tyu”, 1953) she’rini oxiri jangavor chaqiriqday jaranglar edi:

*Ba ’zan yo ‘lbars cho ‘chqani o ‘ldiradi,
Ammo u qo ‘ng ‘iroq ovozidan qo ‘rqib ketadi.
Lekin ko ‘z yoshlari ham, tovush ham emas, gong ovozi ham emas
Qon so ‘ruvchi Viongning ruhi chalkashmaydi.
Jangga chiqish vaqtি keldi,
Keling, yo ‘lbarsni o ‘rmonning yovvoyi tabiatiga
chiqishga majbur qilaylik,
Biz yer egasini tiz cho ‘ktirishga majbur qilamiz*

⁸⁷ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А.М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 650.

Va keyin Selena yengil nafas oladi!

Chan Xiu Txungning har bir she'ri o'ziga xos kompazitsiyali xulosalariga, o'zining emotsiyal rangdorligiga ega bo'lib, har birida Vietnam qishlog'ining kelajagiga ishonch borligi seziladi. She'rlarning xususiyatlarini shoir oldindan bilishga harakat qiladi. Shoir o'tlanayotgan buyvol ustida o'tirgan bolaga qaratib gapiradi:

*Vaqt keladi va dala bo 'ylab yurib,
Sizni traktorda ko 'raman, uka.*

Vietnam «Qarshilik» davridagi lirkasi yangi obrazlar va tuyg'ular bilan boyitilishi, oddiy inson tomon qaratilishi, uning orzulari va qayg'ulari to'g'risida gapirishi boshladi.

Urush yillarida satirik she'riyat ham rivojlangan bo'lib, avval Tu Mo she'rlari bilan ifodalanadi, Tu Mo faqatgina urush yillarda professional adabiyotchi bo'ldi. Shoir eslaydi:

“1946-yil dekabr oyida men urush xaltamni yelkamga tashlab, “Qarshilik” urushiga ko‘tarilgan partiya va xalq orqasidan borganimda, mening ismim hali respublikaning moliya vazirligi ro‘yxatlarida bor edi”. Tu Mo o'zining she'rlarida Vietnam xalqi dushmanlarining karikatura-satirik obrazlarini yaratadi. U bunga kulguli voqealar va qattiq kinoyalarni mohirona ifodalash orqali erishadi.

“Ofitser himoyachi amaldor janoblarining pul qilishi” (“Kak kaun bao xo lam tien”) she'rida aytilishicha, “Buyuk Fransiyaning amaldor qo'shin boshliqlari” betartib o'q uzishlari bilan qishloqdan partizan otryadini haydasdi, ertalab esa qo'g'irchoq oqsoqollarga ketgan to'p o'qlariga pul to'lashni aytadilar, hamda iltifot bilan “otishmani o'ziga janoblar to'lashni talab qilmasligini bildiradilar”.

Shuningdek u davrsa kazao xalq qo'shig'i rivojiana boshlaydi. Unda yangi mavzular paydo bo'ladi, ulardan eng ajralib turadigan bu – inson kuchiga, xalq kuchiga ishonchdir:

*Oh, bu oson ko ‘tarilish emas:
Cho ‘qqi samoviy bo ‘shliqqa boradi.
Ammo biz cho ‘qqiga chiqamiz,
Keling, tog ‘lardan balandroq bo ‘laylik!*

Xalq qo‘shiqlarining doimiy dehqonlar mehnati haqidagi mavzulari yangicha tusda jaranglay boshlaydi – bu qo‘shiqlar endi dehqonlarning baxti va umidlarini bog‘lar edi:

*Guruch maydonida
Hammasi oltin
Past egilish,
Men o‘roq bilan kesib oldim
Moslashuvchan guruch poyasi
Va ulibayus
Sokin tabassum,
Yorqin tabassum,
Mag ‘rur tabassum!*

(*S. Bolotinning tarjimasi*)⁸⁸

Inqilobdan keyin kichik millatlarning adabiyoti ham birinchi qadamlarini bosishni boshlaydi. Avvallari Vietnam kichik millatlari (o‘sha yerda hammasi bo‘lib 60 ga yaqin millat va etnik gruppalar bor edi) o‘z yozuvlariga ega bo‘lmaganlar. Tai millatidan bo‘lgan shoir Nong Kuok Tyan “Qishloqqa qaytmoq” (“Zon ve lang”, 1950) she’ri uchun Berlinda bo‘lib o‘tgan yoshlar va talabalar festivalida mukofot olgan. Uning yaltirab turgan she’riyati vatandagi yangi hayot g‘alabasini tasdiqlab ko‘rsatadi:

*O ‘tlar endi yo ‘lni to ‘ldirmaydi,
Tigritsa yo ‘lbars bolalarini tug ‘ish uchun kelmaydi*

⁸⁸ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах /Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького.— М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. - 1994. - С.651.

*banan bog‘iga.
 Vaqt oldin etuklik tushadi
 daraxtlardan mevalar,
 Va biz sizni dalalarda ko‘rmaymiz
 qon hovuzlari.*

Qarshilik urushi paytidagi she’riyatni mashhurligi haqida tanqidchi Xoay Txan “Qarshilik she’riyati haqida suhbatlar” (“Noy tyuen txyo kxang ten”, 1951) kitobida yozadi: “She’rlarni hamma yozadi: albatta bu shoirlar ishi, lekin she’rlarda politruk va komandir, harbiylar va umumiy majburiy ta’lim o‘qituvchilari, aloqachilar va o‘t o‘chiruvchilar, ayollar va bolalar ham tug‘ilar edi. Yelkasi orqasida yo‘l qopi bilan Qarshilik urush yo‘llaridan va so‘qmoqlardan ketayotganlarning, deyarli hammasida yon daftarchasini bir joyida ko‘chirilgan she’rlar bor edi”.

Darhaqiqat, Vietnamda she’rlarni hamma yozgan deb aytish mumkin. O‘z samimiyligi va vatanga nisbatan ilk muhabbati bilan o‘ziga jalb qiluvchi, ko‘p bo‘lmagan she’rlar prezident Xo Shi Min qalamiga mansubdir:

*Iliq shamol poyalarni uradi,
 Nozik barglar bezovta qiladi,
 Atrofdagi hamma narsa uzoq vaqt uxbab qoldi -
 Mening yuragim uxbay olmaydi;
 Yurak o‘jarlik bilan uyg‘oq qoladi,
 Yurak Vietnam uchun uradi.*

(rus tiliga I.Karintseva va V.Mixaylovalar tarjimasi)⁸⁹

Keyinchalik “Prezident Xo Shi Min she’rlari” (Txyo Xo tyu tit, 1967) to‘plami katta rezonans (eshitilishlik, ta’sir) bo‘lgan.

⁸⁹ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А.М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 651.

Avgust inqilobidan keyin drumaturgiya va teatr oldiga - inqilobiy haqiqatni yoritish va ishchilarini inqilobiy tarbiyash kabi yangi hayot masalalarini qo‘ydi. Ushbu masalalar avval qoloq ahvolda bo‘lgan zamonaviy drama teatri imkoniyatlariga to‘liq javob berar edi. Qarshilik urush yillarda teatr janrlaridan asosiysi “so‘zlashuv” dramasi bo‘lgan: truppalarning aksaroyati bir aktli pyesani sahnalashtiradi, ularda butun xalq kurashning o‘zgaruvchan manzaralarini, yangi intilishlarini va voqealarning ko‘rinishlarini sezgirlik bilan tasvirlashadi. Tomoshobinlar tomonidan katta muvaffaqiyatga erishgan Nguyen Xyui Tiongning “Usha yerda qolganlar” (Ning ngioy o lay, 1948), Xauk Fining “Dehqon qiz Xoa” (“Ti Xoa”, 1953y) ko‘p aktilli pyesalari shular jumlasidandir⁹⁰.

Inqilobdan keyingi yillarda an’anaviy musiqa teatriga nisbatan salbiy munosabat bo‘lgan. Bunga sabab, an’anaviy sahna janrlarga “teskari” qarashlar edi. O‘sha paytlardagi bu fikr an’anaviy janrlarning zamonaviy tematikaga mos bo‘lmagani, qadimgi spektaklarda dabdabali liboslar kiyib chiqqan hukumdor va amaldorlarining yoqimsiz holati, tiong va teo larni muzeyga topshirishga aniq talablarni uyg‘atadi. Ayrim joylarda ananaviy teatr man etilgan edi. Truppalar tarqatilar, ijrochilar sahnani tark etar yoki “so‘zlashuv” drammaga o‘tib ketardi.⁹¹

Lekin tomoshobin an’anaviy teatrga nisbatan qandaydir bog‘lanishni saqlab qoladi. Shuning uchun unga zamonaviy mazmun kiritishga harakat qiladi. 1946-1947-yillarda “agitatsion” (jalb qiladigan) xaraktyorli spektakllar paydo bo‘ladi: Beshinchi zonada tiong janrda “Ozodlik bayrog‘i” (Kyo ziay faung) va bir necha qisqa pyesa sahnalashtiriladi. 1949 - yilda Vet Bakda tamoshobinlar tiong usullarini parodiya (foydalanuvchi) qiluvchi, Tu Mo ning “Bambukli

⁹⁰ Рассказы вьетнамских писателей. Изд.Москва 1960. 130 с.

⁹¹ Литература Востока в новейшее время. М., изд.Московского университета 1977. С.517

drakon suvda g‘oyib bo‘ldi” (Jong nan suong niok), Boa Dae to‘g‘risidagi spektaklni tomosha qiladilar.

Yangi hayotda o‘zining yashash qobiligini ko‘rsata olgan an’anaviy teatr, 50- yillar boshida fuqarolik huquqini oladi. Qiyinchiliklarga qaramasdan ko‘plab tionsg jamoalari tashkil topadi, ular tarixiy o‘tmishdagi syujetlar asosida yangi qahramon mazmunli pyesani sahnalashtirishadi: Mit Kuangni “Lam-shonga yul” (Diong ve Lam-Shon) – XV asrdagi xitoy bosqinchilariga qarshi Le Loy isyoni to‘g‘risida, Tong Fiok Foni “Shohonali Ching” (Ching ni viong) – opa-singil Ching isyoni to‘g‘risida, hamda qo‘srimchalar va o‘zgartirishlar kiritilgan an’anaviy pyesa sahnalashtiriladi.

Nguyen Layning Qarshilik urush haqida “Singil Ngo” (“Ti Ngo”) tionsning haqiqiy tantanasi (g‘alabasi), bu an’anaviy teatrga nisbatan inqilobning birinchi yillarda shoshib chiqarilgan hukmining asossizligini aniq ko‘rsatib bergen spektakl bo‘ladi. Tomoshobinlar – askarlar va dehqonlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri samimiy taassurotlari ba’zida juda antiqa edi: salbiy personajni o‘ynagan aktyorlarga zaldan toshlar otishardi, pardalar orqasida ularni urmoqchi bo‘lgan asabiy hayajonlangan tomoshobinlar kutardi, ularga, ba’zi paytlar, ovqat ham berishmasdi⁹². Bu hammasi spektakl katta muvaffaqiyatga erishganligidan dalolat beradi.

Tions rivojlanishining yangi bosqichida “o‘sish” va voqealikni tasvirlashda maishiy tafsilotlarni o‘ta bo‘rttirib ko‘rsatilgan: “Singil Ngo”da, sahnaga boshi chopilgan, qonga bo‘yalgan mulyajini olib chiqishgan.

Zamonaviy mavzuga asoslangan spektakllarda nasr dialoglarni keng qo‘llash natijasida “so‘zlashuv” dramaga o‘xshab ketadi. Tarixiy

⁹² Литература Востока в новейшее время. М., изд. Московского университета 1977. – С.254

o‘tmish to‘g‘risidagi pyesada o‘tgan davr mafkurasi zamonaviylashtirishga uchradi.

Vet Bakda 1950-yilda, teatr masalalar bo‘yicha yig‘ilgan majlisda teoga to‘g‘ri baho berish to‘g‘risida gapiriladi. 1952- yildan boshlab markaziy va shimoliy Vietnam provintsiyalada ko‘plab teo teatr jamoalari tashkil topadi, ular mamlakatdagi yangi oqimlar va katta o‘zgarishlarga g‘amxo‘rlik bilan javob berishadi. Ular ko‘plab, o‘sha davr uchun muhim bo‘lgan mazmunli pyesani sahnalashtirishadi. Mamlakatda o‘tkaziladigan agrar islohatlarga javoban Vet Zung va Tu Mo larning “Xomut” (“Tiek vay kay”) pyesasi chiqadi, mashhur yozuvchi Ngo Tat Toning “Udarnitsa Buy Txi Fak” (“Ni ten shi Buy Txi Fak”) mehnat qahramoni to‘g‘risidagi piesasi uchun 1952-yilda adabiyot mukofotini olgan. “Keu mehnat samaradorligini ko‘tarish uchun kurashadi” (“Keu tang za shan suat”), pyesaga o‘xhash ko‘plab klassik repertuarlarni parodiya qilgan pyesa paydo bo‘ldi, agitatsiya maqsadda ko‘ngilochar spektakllarda mashhur asarlardan va qahramonlaridan foydalanar edi.

Respublikaning barcha teatr jamoalari og‘ir urush sharoitlarida ishlar, shunda aktyorlar mehnati ba’zilarda askarlik jasoratiga aylanadi: “Truppalar joydan joyga ko‘chib turadi – Txan Nya 1960 - yilda “Adabiyot va san’at” (“Van nge”) jurnalida quyidagicha yozadi – “Aktyorlar, obkash va qoplarni ko‘tarib ketardi, ularda rekvizit, dekoratsiyalar, liboslar va grim bor edi, transport vositasi sifatida faqatgina o‘zining ikkala oyog‘i edi”⁹³. Spektakllar ochiq havoda, kerosin chiroqlarining xira yorug‘ligida o‘tar, ularni ko‘pincha bombardimon, o‘t ochilishi, yoki do‘shtan bostirib kelishi to‘xtatar edi. Bular hammasi, albatta, aktyorlar mahoratiga yomon ta’sir qilar

⁹³ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А.М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 652.

edi. Ular Txan Nya so‘zi bo‘yicha: “kechki spektakldan keyin, azonda o‘tinga, baliq oviga, guruch tozalashga, yeishli o‘tlarni terishga chiqishar edi (band bo‘lar edi), chunki o‘z ovqatini g‘amini o‘zlar chekishadi, shu ahvolda repetitsiyalarga vaqt qolmasdi”. Partiya va xalq hukumati teatrga yordam berishga urinishadi. Truppalarni ijodiy teatral yoshlar bilan to‘ldirmoqlik va ularning mahoratini ko‘tarmoqlik uchun, Vet Bak (junglida) o‘rmonlarida sahna san’atining maktabi ochiladi. Maktabga Txe Li rahbarlik qiladi.

Qarshilik urush davrida aqlga sig‘maydigan qiyinchiliklarga qaramasdan, adabiyot asarlari tarjima qilinadi va (junglida) o‘rmonda yashirilgan bosmoxonalarda chop etiladi. Ular asosan urush, musibat yillarda odamlarni qahramonliklari haqida hikoya qiladi: M.Sholoxovni “Ular Vatan uchun jang qilgan”, B.Polevoyni “Biz Sobiq Ittifoq odamlari”, A.Fadeevni “Yashirin obkom harakatda” (shu kitobni tarjimasini Xo Shi Min qilgan) va bir qator boshqalari tarjima qilingan. Shoir Xoang Chung Txong (1925) Mayakovskiyning she’riyatini tarjima qilishga 1-bo‘lib uringan shoir hisoblanadi. Tanqidchi Vet Xung yozishicha, “bu kitoblar bizning harbiylarimizning jangdagi do‘srtlari va ular bilan birga okoplarda bo‘lgan edi”.

Sotsialistik qurilish va AQSh boqinchiliklariga qarshi kurashish davrdagi she’riyat va proza

1954-yil iyul oyida Vietnamda otishmalar to‘xtatiladi. Jinevada o‘rnatilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi shunday boshlanadi. Avtomatlar otmas, bombalar portlamas, napalmlar tushmas edi. Odamlar kunduzi ko‘chalarga chiqishni boshlashadi. Endilikda ular osmondan o‘q yog‘dirishidan qo‘rmasligi mumkin edi. Xanoy qal’asining (tsitadel) tepasida 3 rangli mato o‘rniga qizil rangli va 1ta oltin yulduzli bayroq osildi. Tinchlik hayoti boshlanadi, bu hayot 2

urush orasidagi 10 yillik dam olish edi xolos. Ushbu davrda Shimoliy Vietnam yangi hayot, yangi sotsiolistik jamiyat qurishga imkoniyat oldi.

Vietnam adabiyotida oldindan tanish bo‘lgan urushdan qaytish mavzusi jaranglay boshladi. (Nguyen Chay XV asrning boshlarida yozgan edi: “Kamonni osdim, sovutni yuvdim, tinchlikni xursandchilik ohanglari bilan kutib olaman”).

Rivoyatlarga ko‘ra – imperator Le Loy g‘alabasidan so‘ng qilichini Xanoy markazidagi o‘sha “Qaytarilgan qilich ko‘li”ga qaytaradi. Bu haqida Nguyen Chay ko‘p yozadi. Endilikda esa yangi g‘olib Xalq qo‘shinining askari Nguyen Din Txi she’rining lirik qahramoni keladi. Tropik daraxtlar shoxlarining soyalari bilan qoplangan qadron Xanoy ko‘chalaridan, oq uylarning yonidan o‘tib borardi va oddiy kundalik narsalar unga boshqacha, odatiy bo‘limgandek tuyilar edi.

Xanoyda yomg‘ir yog‘moqda, ritmik, sokin yomg‘ir.

Biz uydamiz!

Ular g‘alaba qozonishdi va qaytib kelishdi.

Siz ko‘lga salom ayting

Eski pagodalar va tanish ko‘chalar orasida.

(rus tiliga E. Dolmatovskiyning tarjimasi.)

Shunday qilib Vietnam adabiyotchilari tinch hayotga qaytishdi.

Tinchlik o‘rnatishdan keyingi yillar Vietnam yozuvchilarining ijodiy va g‘oyaviy o‘sishi bilan belgilanadi. Bunga Respublikadagi sotsial o‘zgarishlar va hayotning hamma doiralaridagi sotsialistik qurilishning 1-muvaffaqiyatlari sabab bo‘ladi. Bu harakatlar Amerikaning bostirilishi tufayli to‘xtatiladi. 1965-yilda Vietnamga qarshi qaroqchilik havo urushi boshlanadi.

Lekin 1954-yilda san’atning masalasi va jamiyatdagi uning mohiyatini tushinish vaqt keladi. To Xiu “Vet-Bak” to‘plamiga muqaddima qilingan she’rida, san’at va xalq orasidagi bog‘lanishning buzilmasligini belgilar, san’atning partiyaviyligini va xalqchiliginini ta’kidlagan.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. “Vet-Bak” she’riy to‘plami kimga tegishli va ushbu to‘plamda asosan qanday mavzu ilgari surilgan?
2. Vietnam «Qarshilik» davridagi lirikasi haqida nimalarni bilasiz?
3. XX asrning 50-yillari Vietnamda ijtimoiy vaziyat haqida so‘zlab bering.
4. Nguyen Din Txi ijodi va u yaratgan asarlari haqida nimalarni bilasiz?

Vietnam adabiyotida yangi she’riyatining rivojlanish bosqichlari

Darsning maqsadi: Talabalarga yangi davr XX asr boshlarida Vietnam she’riyati, xususan, Ngo Suan Zieu qalamiga mansub bir nechta she’rlarning o‘ziga hos jihatlari va tahlili haqida amaliy tushuncha berish.

Tayanch so‘z va iboralar: Yangi she’riyat, paradigma, modernizatsiya, oq she’r, motiv, lirik, romantizm, tematika, tashxis.

XX asrning 30-yillar boshlarida Vietnam she’riyatida ko‘plab o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu davrning she’riyati keng tarzda “Yangi

she’riyat”ning ijobiylar bo‘lgan tajribasidan foydalandi. Jumladan, fransuz adabiyot ta’siri natijasida “Yangi she’riyat” tushunchasi paydo bo‘ldi va uning tarafdarlari mumtoz she’riyatidagi she’rning tuzilishi bilan shoirlarni bog‘lovchi qonunlarga qat’iy qarshi chiqdilar. XX asrning birinchi yarmida boshlangan inqilobiy adabiy harakatlar Vietnam she’riyatida paradigma o‘zgarishini aks ettirgan⁹⁴.

“Yangi she’riyat” asosan, XIX-XX asrning boshlarida G‘arbning adabiy va poetik rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Modernizatsiyaga intilgan Vietnam shoirlari eski mumtoz she’riy an’ana bilan aloqalarini uzishni boshlashadi⁹⁵. Bu isyonkor va keskin harakatni ko‘p asrlik an’anaviy she’riyat tarafdarlari bo‘lgan shoirlar qo‘llab-quvvatlamaydi va bir qancha vaqt mobaynida an’anaviy va zamonaviy shoirlar o‘rtasida shafqatsiz urush bo‘ladi. Bunday o‘zgarishlarning barchasi mashhur konfiitsant shoir Fan Xoyning “Tinh Gia” (“Asl muhabbat”) nomli kichik she’rida aks ettirilgan. Aslida, bu she’r majvud she’r tuzilish qoidalarini buzgan birinchi she’r emas edi. Boshqa shoirlar - Tan Da va Nguyen Van Vinh ko‘p yillar mobaynida bunday buzilishlarga yo‘l qo‘yib kelishgan. Ammo, Fan Xoyning 1932-yildagi she’ri ayni vaqtida ya’ni zamonaviy o‘qimishli yoshlar avlodi an’anaviylik muhitidan bo‘g‘ilib, toza havoga muhtoj bo‘lgan vaqtida yozilgan edi. Uning she’rlari yangi bo‘lib, unda omadsiz sevgi mavzusida va butkul yangicha shaklda - erkin (oq) she’rda yozilgan edi.

“Yangi she’riyat” mutloq yangi yo‘nalish bo‘lmagan, u Vietnam she’riyatida yaxshi o‘zlashtirilgan shakllarni va hajmlarni erkin foydalanish asosida rivojlangan edi. Bir vaqtning o‘zida ular fransuz she’riyatiga hos bo‘lgan erkin she’riy sintaksisini, uning

⁹⁴ Ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qitingan va birgalikda foydalanadigan va uning ko‘pchilik a’zolarini birlashtirgan fundamental ilmiy nuqtayi nazarla , tushunchalar va atamalar to‘plami.

⁹⁵ Vo Thu Tinh.The Modern Poetry Movement in Vietnam: The Revolution in Poetry at the beginning of the 20th Century. 2003.

ta'sirchanligini, she'rni yaratishdagi elementlarni qabul qilishgandi. Vietnam she'riyati Fransiya romantik maktabi rahbari Viktor Hugo, shuningdek "San'at san'at uchun" harakatining asoschisi Teofil Gotye, Alfred de Vinyi ta'siri ostida bo'lgan. She'rlarning maqomi ancha rang-barang bo'lib, tili soddalashtirilgan. Shuningdek, she'riyatga do'stlik suhbatlarining yurak sadolari kirib keladi. Lekin "Yangi she'riyat" kurashchilari, she'r tuzilishini o'zgartirish bilan cheklanishmadni. She'r tuzilish doirasidagi "Inqilob" eng avvalo, she'riyatni yangi bosqichining rijovlanishi uchun, shoirlarning shaxsiy ma'naviy rivojlanishidagi boy va nozik ichki dunyosi namoyon etish uchun hizmat qildi. Shoirlar Liu Chaung Li: "Bizning qariyalarimizga to'q-alvon rang yoqadi, bizga esa nafis zangorang yoqadi. Yosh chiroyli qizga qarash, ular gunoh deb hisoblashgan, biz uchun esa bu shunchalik yoqimlici, huddi ko'm-ko'k dalalarga qarab zavqlangandek. qariyalarimiz uchun muhabbat nikohga tenglashilgan bo'lsa, biz uchun esa yuz va ming ko'rinishlarida va o'n ming tovlanishlarida namoyon bo'lardi: ehtirosli va chuqur bo'limgan sevgi, yaqin odamiga va uzoqdagi ayolga bo'lgan tuyg'u, o'tkinchi va mingyllar ko'ziga teng sevgi "⁹⁶.- deb yozgan edi.

Aslida, "Yangi she'riyat" shoirlari hech qanday tahlilsiz, o'zlarining maqsadlari uchun qulay bo'lgan har qanday she'riy shakllar va metrlardan foydalanib, an'anaviy shaklda o'z ijod namunalarini yozishgan. Bu harakatning o'ziga hos tarafı shaxsiy fikr erkinligiga, uslubiy cheklovlar va eskirgan motivlarga to'sqinlik qilmaslik, samimiylis his-tuyg'ularning gullab-yashnashiga, shu jumladan tashvish va individuallikning kollektivdan ustuvorligiga alohida e'tibor qaratishdan iborat edi. XX asrning 20-30-yillaridan boshlab ushbu yangi shakllar sezilarli darajada eski urf odatlarning

⁹⁶Литература Востока в новейшее время. М., изд.Московского университета 1977. С.396.

o‘zgaruvchangligidan dalolat berardi.

Vietnam adabiyotida “Yangi she’riyat” tushunchasi 1930-yillarning boshida vujudga kela boshladi va bu davr “Yangi she’riyat” harakati deb nomlangan yangi davr nomi bilan yuritila boshladi. “Yangi she’riyat” harakatining rivoji paydo bo‘lganidan buyon uch xil davrga bo‘lingan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyat va yutuqlarga ega.

Uning nomi she’riyatda yangi yo‘nalish bo‘lib – nafaqat mazmun, shakl, qarash, balki tafakkur va yozuv uslubidagi yangilik – ochilishini ifodalaydi. Shoirlar bu davrda yangi she’riy shakl uchun kurash olib bordi. Yangi she’riy asarlar ko‘pincha har bir muallifning ijodiy ruhi, ichki kechinmalari va shaxsiy ifoda qobiliyatiga qaratilgan. “Yangi she’riyat” harakati zamonaviy g‘arb adabiyoti she’riyatining diksiya va qofiya qoidalarining ta’sirini o‘zida aks ettirib, an’anaviy she’riyatni modernizatsiya qilishda zaruriy ehtiyojlarni qondirish uchun tug‘ilgan hodisa hisoblanadi.

“Yangi she’riyat” ning tili sodda xalq tili edi. Unda hech qanday xitoy miflari, an’anaviy shakllar yo‘q. Ularning she’rlarida qalb g‘alabasi yangraydi va klassik cheklovlardan uzoqda. Yangi she’riyat she’riyat olamida til va shaklga yangicha yondoshuv bo‘libgina qolmay, balki ijodkorning his-tuyg‘ularini, g‘oyalarini erkin ifodalashda qulaylik yaratib, ijodning yangi eshiklarini ochadi. Betakror tildan tortib, yorqin va obrazlar yaratishgacha bo‘lgan yangi she’riyat mintaqadagi madaniy merosni boyitishga xizmat qiladi. Binobarin, u she’riy san’atdagi ijodiy yo‘nalish bo‘libgina qolmay, balki jamiyat va madaniyat taraqqiyotini zamonaviy sharoitda aks ettiradi. Yangi she’riyat an’anaviy she’riyat sohasida chinakam inqilob olib keldi, ritorik qoidalar va qat’iy qofiya sxemalari cheklovlaridan butunlay xalos bo‘ldi. Bu mualliflarning o‘z kayfiyati, fikr va g‘oyalarini o‘ziga xos tarzda ifodalashi uchun erkin ijodiy maydon yaratdi. Yangi she’riyat muallifni rasmiy cheklovlardan ozod

qildi, erkin ijod qilish imkoniyatini ochib berdi. Bo'sh she'r, erkin she'r va narvon tuzilmali she'r janrlari turli so'zlar, ohanglar va tuzilmalarning moslashuvchan qo'llanilishi orqali ifoda uslubiga aylangan. Shuningdek, jumlalar sonidagi erkinlik: an'anaviy she'riyatdan farqli o'laroq, jumlalar soni ko'pincha qat'iy qoidalarga muvofiq cheklanadi, yangi she'riyatda muallifni jumlalar sonida cheklamaydi. Bu mualliflarga g'oyalarni erkin rivojlantirishga va o'ziga xos tuzilgan asarlar yaratishga yordam beradi. Oddiy til va badiiy til: Yangi she'riyat uni badiiy yuksaklikka olib chiqish uchun hayotdan olingan kundalik tildan foydalanadi. She'riyatda umumiyligida foydalanish yaqinlik, haqiqiylikni keltirib chiqaradi va o'quvchini tushunib tahlil etishga undaydi. Ko'p qirrali va murakkab mazmun: Yangi she'riyat an'anaviy she'riyat kabi qat'iy mavzular bilan bog'lanmaydi, bu ko'plab ifoda imkoniyatlari va mavzular xilma-xillagini ochib beradi. Bu esa muallifga hayot va jamiyatning ko'p qirralarini aks ettirgan holda teran mulohazalarni ifodalash imkonini beradi.

Yangi she'riyat G'arb she'riyatidagi zamonaviy oqim va maktablar ta'siridan qochib qutula olmaydi. Simvolizm, romantika, estetika va impressionizm yangi she'riyatda ijodkorlik va rang-baranglikni targ'ib qildi. Yangi she'riyatning muhim jihat shundaki, u mualliflarning fikr va tuyg'ularni she'r orqali ifodalash uslubini o'zgartirgan muhim badiiy inqilobdir. Bu harakat shakl va mazmundagi erkinlik rang-barang va betakror she'riy asarlarni yaratdi, hayotga, odamlarga yangi va teran tushunchalar olib kirdi.

Vietnamni fransuz kaloniyasi bosib olgandan so'ng, adabiyotda yana bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi. Aynan "Yangi she'riyat"ni Vietnam shoirlarining fransuz adabiyotiga bo'lgan qiziqishi natijasida paydo bo'lgan degan farazlar ham mavjud. O'sha davrda yangi she'riyat va eski she'riyat tarafдорлари o'rtasidagi bahs va munozaralar uzoq vaqt qizg'in davom etdi. Bu davrda eng ko'zga ko'ringan

mualliflar qatoridan The Lu, Luu Trong Lu, Vu Dinh Lien, Huy Thong, Nguyen Nhuoc Phap o‘rin olgan. 1936-1939 - yillar “Yangi she’riyat”ning “Eski she’riyat” ustidan mutlaq ustunligini belgilab berdi. Bu bosqichdagi eng yetuk shoirlar qatorida Ngo Suan Zieu, Nguyen Bi bor edi. 1940-1945 - yillar “Yangi she’riyat” da turli yo‘nalishlarga ega bo‘lgan rang-baranglikni guvohi bo‘lishimiz mumkin.

“Yangi she’riyat” harakatining o‘ziga xos xususiyatlarini hamon saqlab qolgan bo‘lsa-da, bu davrda tanazzul belgilari namoyon bo‘la boshladi. Yangi she’riyat Vietnam she’riyati uchun yangi yo‘l ochdi. O‘rta asr she’riyati bilan taqqoslaganda, “Yangi she’r” quyidagi sezilarli farqlarga ega: Tarkib jihatidan o‘rta asrlar she’riyatida ko‘pincha rejimlar va ijtimoiy tabaqalar hukmronlik qilgan, mazmunni qirollik marosimlari doirasida cheklab qo‘ygan, ko‘pincha qirolga, mamlakatga nisbatan his-tuyg‘u va ruhni ifodalashga qaratilgan va ko‘pincha ibratli mohiyatni o‘zida mujassam etgan. “Yangi she’riyat” rang-barang, boy va cheksiz mazmunga ega. U shaxsiy egoni ifodalashi, inson qalbi va his-tuyg‘ularini chuqr o‘rganib ochib beradi. “Yangi she’riyat”ning o‘ziga xos muhim xususiyatlari bu shakl. Yangi she’riyat she’riy shakl haqidagi hech qanday qoidalar bilan bog‘lanmaydi.

“Yangi she’riyat”da eng keng ishlatilgan shakl yetti satrli va besh satrli she’rlar edi. Avvalgi she’riyatiga qaraganda erkin qoidalar asosida qofiyani rad etgan holda va tuslanmaydigan ohangda yozilgan she’rlar bo‘lgan. Yangi she’riyat mumtoz she’riyatdan til qo‘llanishi, ma’no ifodasi bilan ajralib turadi. Endi qofiya va shaklning ma’lum qoidalariga bog‘liq bo‘limgan yangi she’r ko‘pincha shakli erkinroq bo‘lib, muallifga o‘ziga xos tarzda ijodkorlikni ifodalash imkonini beradi.

U qattiq ritorik va qofiya qoidalaridan butunlay ozod qilingan. Erkin she’riyat, bo’sh she’riyat, ierarxik tuzilishga ega she’riyat kuchli

rivojlangan. Yangi she’riyatdagi til kundalik hayotga yaqinlashadi. Shoirlar boy she’riy uslublarni qo’llaganlar, obrazlilik va sezgirlik yaratganlar; ular ko‘pincha o‘xshatishlarni ifodalaydi va ishlatadi.

O‘ziga xos jihat shundaki, har bir yangi shoirning o‘ziga xos ijodiy uslubi, o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlari bor va har bir asari orqali o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qila oladi⁹⁷.

Shu bilan birga yangi she’riy shakllar va uslubiy vositalar, yangi ifoda yo‘llari yaratildi, yangi g‘oyalar va umuman yangi badiiy an’ana joriy etildi. An’anaviylikdan voz kechib, G‘arb g‘oyalari bilan to‘la bo‘lgan XX asrning dastlabki to‘rtta o‘n yilliklarida Vietnamlik shoirlar o‘z inqiloblarini shijoat va g‘ayrat bilan boshqardilar. Bu esa lirik asarlarning tematik jihatdan xilma-xilligiga sabab bo‘ldi. Ijodiy jarayonga romantik, pedagogik, madaniy, falsafiy, tarixiy va hatto siyosiy kabi turli hissiyotlar, g‘oyalar va fikrlar kiradi.

An’anaviylik tarafdorlari o’zlarining esse va ilmiy asarlarini “An Nam Tap Chi” (Annam jornali), “Van Hoc Tap Chi” (Adabiy jornal), “Cong Luan”(Jamoat fikri), “Tieng Dan”(Xalq ovozi), “Can Hoc Tuan San” (Adabiy haftalik), “Tin Ven” (Adabiy yangiliklar) kabi jumallarda nashr qilishgan. Tan Da bilan birga bir qatorda Van Bang, Dong Dinh, Thuong Son, Tung Lam, Vu Dinh Lien va boshqa ko‘pgina yuqori qatlamga ega bo‘lgan obro‘li odamlar bor edi. “Yangi she’riyat” vakillarining matbuot organlari hisoblangan “Phong Hoa”(Madaniyat), “Phu Nu Tan Van” (Zamonaviy adabiy ayollar), “Tieu Thuyet Thu Bay”(Shanbalik romani), “Loa” (Megafon) va “Ngay Nay”(Bugun) kabi jornal va gazetalarda Suan Zieu, Liu Tring Lieu, Xoay Txan, Fan Xoy, Lek Trang Kieu kabi shoirlar o‘z ijod namunalarini nashr etishgan.

“Yangi she’riyat” – bu eng avvalo nazm lirikasidur. U inson

⁹⁷<https://vanhoc.net/phong-trao-tho-moi/>

tuyg‘ularini juda keng ifodalabgina qolmay, o‘ziga xos hususiyatlarini ko‘rsatib, zamondoshlarini hayratlantirardi.

“Txe Li she’rlari, Li Chuang Lining orzuli she ‘rlari, Nguyen Niok Fanning ravshan, toza satrlari va Te lan Vienning ajablanarli va zavqli ijodi, Ngo Suan Zieuning ehtirosli, hayajonli, qaynab turuvchi satrlari kabi she’rlari- hali hech qachon bizda shunaqa keng ochiq qalbli she’riyat vujudga kelmagan edi⁹⁸. – deb Xoay Txan antologiyasining bosh so‘zida yozgan va bu kitobiga “Yangi she’riyat” vakillarining asarlari kirgan edi.

“Qofiya” (Mey Van Txe, 1935) she’riy to‘plamining muallifi Txe Li (1907) hamma narsadan yuqoriga go‘zallikni qo‘yadi: “Men faqatgina ehtiros yurtining sayyohiman, go‘zallikni o‘n ming ko‘rinishlarini va hillarini sevuvchiman”⁹⁹.

“Yangi she’riyat”ga u o‘zining adabiyotda qilgan ishlari bilan katta hissa qo‘shgan: “Junglini eslayman” (Nye Jing) she’rida muallif ezop (kinoya, ramzli) tilini ishlatadi, shoir qafas ichidagi arslon, o‘zini ozodlikdagi o‘tmishini sog‘inganini ifodalaydi, “oydin kechalari suv bo‘yida u o‘ljası bilan mast bo‘lib oy nurlarini ichib turgan paytlardir”¹⁰⁰. Bu she’rlar o’sha davrda vatanparvarlik ramzi sifatida qabul qilingan va bu keng Vietnam xalq doiralariga xos edi.

Birinchi marta Txe Li she’rlarida romantik obraz paydo bo‘ladi: “Uzoq yurishli urush” qahramoning harakati oydin bo‘limgan va maqsadi aniq emas, hayot lazzatlaridan voz kechadi, lekin vatanparvarlik ruhi bilan qorishgan va yaxshigina seziladigan o‘zgacha kayfiyatlar paydo bo‘ladi, bu kayfiyatlarda mustamlaka Vietnamning dim muhitidan qandaydir xayoliy dunyoga qochib ketishga intilishlar yaxshi sezilib turardi. Keng qamrab oladigan

⁹⁸Хоай Тханью. Антология вьетнамской поэзии и прозы. Ханой, 1988. - С. 14

⁹⁹O‘sha manba. - B. 15

¹⁰⁰O‘sha manba. - B. 16

melanxoliya Txe Li ga begona emasdi, ayniqsa uning lirikasida bu jihatlar o‘z aksini topgan.

O‘sha davrda eng katta muvaffaqiyatlarga erishgan muhabbat kuychisi nomi bilan tanilgan shoir Ngo Suan Zieu edi. Boshqa shoirlarga qaraganda muhabbat uning she’rlarida- dunyoviydir. “Uning she’riy qasri- dunyoviy tuyg‘ularning poydevoriga tayanadi”- deb Txe Li, Suan Zieuning “Tho tho” (“She’riyatning she’riyati”, 1938) she’riy to‘plami nashrdan chiqqanida aytgan edi. Ya’ngi she’riyat harakatidagi eng yetakchi shoirlaridan biri bu Shoir Suan Zieu “Yangi she’riyat” harakatiga shunday baho berib: “Yangi she’riyat xalq adabiy merosiga muhim hissa qo‘sghan adabiy hodisadir”. “Yangi she’riyat o‘zining eng yaxshi tomonida hayotga muhabbat, muhabbat ruhini o‘z ichiga oladi. Tabiat va yurt uchun, shuningdek, millatning betakror ovozi, muhabbat va qadrlash mavzulari uning asarlari markazida turar edi.

“Yangi she’riyat” harakati tufayli “Yangi shoirlarning barchasida vatanparvarlik tuyg‘ulari, Vietnam mamlakatiga muhabbat uyg‘onadi. Yangi she’riyat yurt va xalqning jonli va halol, boylik va yorqinlik bilan qayta tiklangan joyidir¹⁰¹.

“Yangi she’riyat” shoirlari boshchiligidagi yuqori darajadagi inqilob sifatida butun jamiyat bo‘ylab tarqalib borayotgan yangi avlod-o‘qimishli yoshlarning g‘am-tashvishlari va intilishlarini to‘liq ifoda etdi.

Ngo Suan Zieu

“Yangi she’riyat” ning ilk vakillaridan biri Suan Zieu bo‘lib, uning she’rlari orqali ajoyib va gullagan davrni guvohi bo‘lishimiz mumkin. Suan Zieu Vietnamda “sevgi she’riyati qiroli” sifatida

¹⁰¹The vietnamese new poetry in the east asian modernizing poetry movement. 2020 y.P 12

tanilgan va uni Xoay Txan “yangi shoirlar orasida eng yangi shoir” deb izohlaydi. “Sevgi bu yurakdagi ozgina o‘limdir. Sevgi qaytib kelishiga qanchalik tez-tez ishonish mumkin?” - ushbu misralar Suan Zieu qalamiga mansub. Vietnamda Suan Zieu juda mashhur shoir sanaladi, uning innovatsion yozuv uslubi va jamoaviy ijodi mamlakat adabiy manzarasida o‘chmas iz qoldirgan.

Xususan, Ngo Suan Zieuning vietnam adabiyotidagi ta’siri romantik she’riyat sohasida hukmronlik qiladi, shuning uchun u hanuzgacha “Sevgi she’riyati qiroli” yohud “Muhabbat kuychisi” deb nomlanadi. U yillar davomida yaqinlik, ehtiros va sog‘inish haqida son-sanoqsiz asarlar yaratgan.

Ngo Suan Zieu 1916-yil 2-fevralda o‘sha paytdagi Indochina hududi (hozirgi Vietnamda) tug‘ilgan. Aniqrog‘i, u onasining tug‘ilgan shahri, Bin Din provinsiyasi, Tuy Fuoc tumani, Fuok Hoa kommunasidagi Go Boi shahrida tug‘ilgan, ammo Vietnam an‘analariga ko‘ra, faqat otasining tug‘ilgan shahri bolaning ona shahri deb hisoblanadi. Natijada, Zieuning rasmiy tug‘ilgan shahri ko‘pincha uning otasining qishlog‘i Xa Tin viloyati, Kan Lok tumanidagi Chao Nya sifatida ro‘yxatga olingan. Aslida u o‘n bir yoshiga qadar Tuy Fuk tumanida yashagan va u Kuy Nyon shahrida o‘qishni davom ettirish uchun janubga sayohat qilgan.

Suan Zieu 1936 - yilda Xay Zin litseyiga o‘qishga kiradi va u yerda bir yil o‘tib bakalavr darajasini oladi. U yerda bo‘lganida, u hayotiga katta ta’sir ko‘rsatgan, uning umrboqiy do‘sti bo‘lgan yosh shoir Xyuy Kan bilan tanishadi. Suan Zieu taxallusi bilan tanilgan Ngo Suan Zieu Vietnam atoqli shoirlaridan biri bo‘lgan.

1938 - yildan 1940 - yilgacha Suan Zieu shoir va yaqin do‘sti Xui Kan bilan Xanoyda birga yashaydi. 1940-yil sentabrida Fransiyaga qarshi Yaponiya davlat to‘ntarishidan so‘ng Tu Luc Van Doanning ko‘p a’zolari butunlay siyosatga e’tibor qaratdilar, jumladan asoschisi Nxat Linh. 1940 - yil oxirida u My Thoga (hozirgi Tien

Giang) ofitser (bosh tijorat direktori) bo‘lib ishlash uchun ketadi. Khai Hung, Hoang Dao, Nguyen Gia Tri kabi ba’zi qolgan a’zolar fransuzlar tomonidan Son La qamoqxonasiga qamaladi, bu esa guruhning pasayishiga turtki bo‘ldi.

Ngo Suan Zieu 1942 - yilda Xanoyga qaytib keladi. U bilan birga ishlagan yozuvchilarning aksariyati yo alohida yo‘ldan ketishgan, yoki prezident Xo Shi Min boshchiligidagi fransuzlarga qarshi qarshilik urushiga qo‘shilgan edi. U Vyett-Min harakati safiga qo‘shilgunga qadar ikki yil yozish bilan yashadi. Qarshilik urushi paytida Ngo Suan Zieu Vet-Bak urushi zonasiga evakuatsiya qilindi va inqilobiy badiiy faoliyatda qatnashdi. Yozuvchi To Xo Ayning “Mushuk changi” xotirasida ayttilishicha, aynan shu davrda Suan Zieu bir necha marta jamoadoshlari bilan juda yaqin bo‘lgan, shu bois To Xo Ayning o‘zi ham qo‘mondon tomonidan tanbeh olgan.

1954 - yilda tinchlik o‘rnatildi, Ngo Suan Zieu Xanoyga qaytib, gazeta va she’rlar yozdi. 1956 - yilda u 27 yoshli ayol rejissyor Bax Dieppega uylandi, ammo munosabatlar uzoqqa cho‘zilmadi va ular tez orada ajralishdi.

1955 - yildan 1958 - yil iyunigacha Suan Zieu o‘sha paytdagi mashhur Nhan Van Gia Pham harakatida ishtirok etdi. Birinchi Indochina (Hindixitoy) urushi tugagach, yangi hukumatning ba’zi islohotlarini amalga oshirishda xatolar bor edi, ba’zi yozuvchilar orasida dissident ovozlar ko‘tarila boshladi, ular hukumatning xatolarini tanqid qilish uchun erkinlik talablarini e’lon qildilar.

Hukumat o‘z xatolarini tan olgan bo‘lsa-da, harakat tez orada hukumatning xatolarini tanqid qilishdan boshqa san’atkorlarga shaxsiy hujumlar va davlatga qarshi noroziliklarga chaqiruvlarga o‘tdi, bu hukumatparast yozuvchi rassomlar va Le Dat yoki Tran Dan kabi dissident shaxslar o‘rtasida bo‘linishga sabab bo‘ldi. Oxir-oqibat, Suan Zieu, Uy Kan va boshqalar hukumat tarafini tanladilar; 1958 - yil may oyida chop etilgan javobida u Le Dat va Chan Dan

kabi odamlarni siyosiy maqsadlarga erishish uchun badiiy ijodkorlikdan foydalanganlikda aybladi.

U zamonaviy vietnam adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ijodi davomida

450 ga yaqin she’rlar yozgan, ulardan ko‘pchiligi sevgi haqida she’rlar, bir nechta qisqa hikoyalar va ko‘plab maqolalar, esselar va tanqidiy maqolalar yozgan, ammo u tirikligida ko‘p asarlarini nashr etishga ulgurmagan.

Vietnam urushigacha, Suan Zieu siyosiy asarlar yozishni davom ettiradi, ayniqsa AQSh va Janubiy Vietnam kuchlariga qarshi kommunistik sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, u yozuvchi bilan bog‘liq boshqa loyihalarga ko‘proq moyil bo‘lib, turli xil xorijiy yozuvchilarining asarlarini, masalan, turk shoiri Nozim Hikmat, Kubalik shoir Nikolas Gillen va rus shoiri Aleksandr Pushkin asarlarini tarjima qilgan.

Suan Zieu 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshlarida o‘zining ilk adabiy tahliliy asarlarini nashr etdi. Unda u Nguyen Zu va Suan Xuong kabi klassik Vietnam shoirlarining madaniy ahamiyatini o‘rgandi. U 1938-yilda “Tho tho” va 1945-yilda “Shamolga tutatqi yuboring (Gửi hương cho gió)” nomli ikkita yirik she’riy to‘plamlarini chiqardi. Uning “Qarag‘ay gulchanglari (Phản thông)” nomli yagona nashr etilgan hikoyalar to‘plami 1939-yilda chop etildi. U Fransuz shoiri Sharl Bodler ijodidan kuchli ta’sirlanganligi uning she’riyati jihatlari ko‘pincha Anna de Noailles va Andre Gide kabi fransuz mualliflarining asarlari bilan taqqoslaganda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, Suan Zieu yozish uslubi romantizmdan ko‘p ilhom oladi va ko‘pincha ramziy tasvirlar va ko‘plab she’riy vositalardan foydalanadi. Suan Zieu asarlarida tez-tez uchraydigan mavzular sog‘inish, yolg‘izlik va ekzistensial qo‘rquvni o‘z ichiga oladi, uning she’rlarida ma’ruzachilar esa sevgiga nisbatan pessimistik qarashlarni, shuningdek, umidsizlikdan qo‘rqishni ifodalaydi.

U yaratgan she'rlari yorqin his-tuyg'ular bilan ifodalangan misralarida muhabbat, baxt va hayotning jo'shqinligi tarannum etilgan. Shuningdek, uning she'riyatida ishq mavzulari musiqiylik, kuchli obrazlilik, ba'zan esa o'tkir achchiqlik bilan ifodalangan.

Mashxur rus tanqidchisi V.G Belinskiy "Shoirning dunyosi butun olami, barcha ranglar, bo'yoqlar, ohanglar, tabiat va hayotning barcha shakllaridir, u bu narsalarning qay biri bilan oshno bo'lsa, uning mohiyatini ko'rsa qalbida ehtiroslar, tuyg'ular, orzular, fikrlar uyg'onadi va ular jilolanib "bashar hayotning tepib turgan yuragi" ga aylanadi, go'zalligi va bir butunligi bilan voqealikdan ko'ra hayotiyroq, boyroq, maftunkorroq bo'lib barchani o'ziga jalg qiladi¹⁰²-deb ta'riflagan. Ha, "she'r-yuksak san'at, yurakdan aytildigan so'z, yurak otashi, fikrning guli, nafasi yolqini"¹⁰³. Haqiqatdan ham lirkada voqealik inson harakterining ayrim holatlarini tasvirlash orqali aks etadi, shuningdek real voqealik insonga ta'sir qiladi, uning fikrini uyg'otadi, hislarini qo'zg'aydi. Hayotda son-sanoqsiz hodisalar, rang-barang voqealar ta'sirida inson qalbida shodlik yoki ma'yuslik, umid yoki tushkunlik, ishonch yoki iztirob ko'tarinkilik yoki loqaydlik kabi xilma-xil tug'ular, hislar paydo bo'ladi.

Garchi, Suan Zieu o'zining muhabbat mavzusidagi she'rlari bilan mashhur bo'lsada, shaxsiy hayotida bu borada omadi chopmagan. U xotini bilan atigi 6 oygina yashab, ajrashgan va shundan so'ng umrining oxirigacha so'qqabosh o'tgan. Shoir hech bir joyda qo'nim topmas edi. Doim bir uydan ikkinchi uyga, mehmonxonama mehmonxona ko'chib yurardi.

Suan Zieu uchun umumiyl qabul qilingan hayot me'yordi yo'q edi, go'yo. U istaganicha chegara chizig'ini bosib o'tib ketardi. Lekin u hammaga bir xil munosabatda bo'lar, odam tanlab muomala qilish, laganbardorlik, tilyog'lamalik tushunchalari unga mutlaqo yot edi.

¹⁰²Белинский В.Г.Танланганасарлар. УзДн.,1954. - Б. 184

¹⁰³O'sha manba. - B.184

Uni rus adabiyotshunosi Nikulin L.N. shunday tasvirlaydi: “Suan Zieu romantik, go‘zallikni sevuvchi, faol, o‘t-olov shoir edi”¹⁰⁴. Suan Zieu tez va oson she’r yoza oluvchi shoirlar sirasidan emasdi. U ba’zida umuman she’r yoza olmas edi. Ba’zi kunlari esa bir misradan uyog‘iga o‘ta olmasdi. Umuman olganda, Suan Zieu she’rlari bir maromda yozilmas edi.

Butun ijodi davomida, Suan Zieu “romantik shoir”, “yangi shoirlar o‘rtasidagi eng buyuk shoir”, “sevgi she’rlari qiroli” kabi nomlarga sazovor bo‘lgan. Suan Zieu she’riyati mutlaqo yangicha ko‘rinishda, an’anaviy she’r tuzilishidan farq qilardi. Eng mahsuldor davri 1938-1945 hamda 1948-1950-yillarga to‘g‘ri keladi. U bitta she’r ustida haftalab o‘ylab o‘tirar, yozaverib, o‘chiraverib eng ma’qul va mos so‘zlarni topmaguncha ko‘ngli joyiga tushmasdi. Buni uning qoralama nusxalari orqali guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Suan Zieu ijodida ikki tushuncha yetakchi o‘rin tutadi: hayotiy faollik, hayot kuchi bo‘lsa, ikkinchisi - go‘zallik tushunchalaridir. Suan Zieu go‘zallikni -muvozanat, hayotni harakatlantiruvchi sintez deb tasvirlaydi. Uning fikricha san’atda hayotiy faollik ko‘p lekin go‘zallik juda kam edi. U she’riyatda go‘zallik sari ko‘p intiladi.

Uning “Tho Tho” (“She’riyatning she’riyati ”, 1938), “Thôi Hoàng Chợ Giò” (“Ruhlar shamol bilan”, 1945) nomli she’riy asarlari uning ijodidagi shedevrlari hisoblanadi. Bu asarlar sevgini, hayotni, baxt va hayotga muhabbatni madh qiladi. Shu bilan birga Suan Zieu yoshlikni, bahorni va tabiatni sevgining beshigi deb tasvirlagan.

Suan Zieu nafaqat shoirlilik balki tarjimonlik ishlari bilan ham shug‘ullangan. U taniqli rus shoirlari A.S. Pushkin asarlarini, B. Mayakovskiy dostonlarini, S.Yesenin she’rlarini vietnam tiliga tarjima qilgan. Nikulin L.N. Suan Zieu haqida: “shunday haqiqiy shoir ediki, и shoirlilikni o‘ziga kasb qilgan yoki o‘ta jiddiy mashg‘ulot deb

¹⁰⁴Литература Востока в новейшее время. М., изд.Московского университета 1977. С.395, С. 516

qaraydigan shoirlardan emas edi. U shoirlikni tanlagan emas, и shoirlikka tanlangan, kuchli qobiliyat va iste'dod egasi edi”¹⁰⁵ deb yozadi.

“Yangi she’riyat” harakatida Suan Zieu o‘zining muloyim, teran, lekin undan kam bo‘lmagan ijodiy yozish uslubi tufayli tipik shoirdir. U zamonaviy vietnam she’riyatida hayotning yangi va qiziqarli tushunchalarini uchirib, hayotiylikka to‘la yangi shamol olib keldi.

Binobarin, Suan Zieu she’riyati g‘am-g‘ussa, yolg‘izlik va ishqiy tuyg‘ularga to‘la bo‘lsa-da, ba’zan muhabbatga bo‘lgan yonayotgan istak bilan to‘lib-toshgan.“Poeziya she’riyati”(1938), “Shamol aromati” (1945), “Vatan bayrog‘i” (1945), “Yulduz” (1956), “Shaxsiy va general” (1960), “Kamon burni”(1963). “Ikki to‘lqin”, “Men ikki ko‘z bilan ham boyman”, “Mening fikrlarim bosqichlari” va “Uch buyuk milliy shoir” (1959) nomli asarlari yozuvchiga ulkan shonshuhrat olib keldi. U hikoyalar, adabiy tanqidlar ustida sevib ijod qilgan. Uning sevgi haqidagi she’rlari, barqaror, inqilobiy mavzudagi she’rlari mashhur. U bir necha kasblarni bir vaqtida mohirona olib brogan.

Suan Zieu jurnalist, Bolgariya she’riyatining antologiyasini tuzuvchisi va tarjimoni sifatida faoliyat olib borgan. Suan Zieu nafaqat “Yangi she’riyat” harakatining yirik shoirlarida biri, balki o‘zining ocherklari, tanqidiy maqolalari , tarjimalari bilan ham mashurdir.

Asosiy she’riy to’plamlari “Yangi she’riyat” ning ilk bosqichida yozgan “She’riyatning she’riyati” (1938), ikkinchi bosqichda “Shamol xushbo‘y islar olib keldi” (1945), “Milliy bayroq”(1945), “Oltin yulduz ostida”(1949). Suan Zieuning she’riyatida muhabbat lirkasi ham o‘ziga xosligi, teranligi, tuyg‘ularning tabiiyligi, hayotiyligi, real

¹⁰⁵ Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой лит. им. А.М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994. — С. 653.

voqelikka monandligi bilan ajralib turadi. Sevgi haqidagi mavzu, mungli ohanglar har qanday oh-vohlar, o'ldim-kuydimlardan tamomila yiroq. Javobsiz muhabbat iztirobi, alami, chuqur insoniy kechinmalar, chinakam sevgi orzumandi bo'lgan katta qalb egasining dard-u dunyosi, hasratlari, yonish-o'rtanishlari, iztiroblari shoir muhabbat lirikasining mazmunini tashkil etadi.

Ngo Suan Zieu she'riyatida ham ommaviy mavzular: sevgi, go'zallik, tabiat va hayot haqidagi mavzular kuzatiladi. Shuningdek, uning she'rlari kuchli va chuqur falsafiy mushohadani ham talab etadi. Shoir she'riyatida eng birinchi o'rinda turadigan, yozgan she'rlarining eng ko'p miqdorini tashkil qiladigan mavzu - bu sevgi- muhabbat ruhidagi she'rlar edi.

Ngo Suan Zieuning hayotning turli achchiq nuqtalari, goh o'z-o'zidan nafratlanish, goh shafqatsiz urush yillari, goh sevgi iztiroblari, goh tabiat manzaralari, goh o'tmishtayoti aniq va tiniq bo'yoqlarda tasvirlab bergenini guvohi bo'lish mumkin.

Shoir she'rlarini bir marta o'qiganda, u she'r kimga murojaat qilinayotganini balki anglash mushkuldir. Shoir she'rlarida ko'pincha yetisha olinmagan, armonga aylangan muhabbatni kuylash bilan birga, bu mavzudagi she'rlarida ham pessimistik ruh va ba'zida umid uchqunlarini ifodalagan ruhlar yetakchilik qiladi.

Shoir she'ri romantik tasvirlarga juda boy, ammo oddiy, samimiy va tushunarli so'zlar bilan yozilgan. Ngo Suan Zieu sevgi mavzusidagi she'rlarida hijron, ayriliq, yolg'izlik, armon, alamzadalik kabi tug'yonlari kechinmalarini aks etadi.

Fikrlarimiz isboti sifatida sevgi ruhida yozilgan she'rlaridan birini keltirish mumkin:

TƯƠNG TỰ CHIỀU

Bữa nay lạnh, mặt trời đi ngủ sớm;
Anh nhớ em, em hỡi! Anh nhớ em.

Không gì buồn bãng những buổi chiều êm.
Mà ánh sáng đều hòa cùng bóng tối.
Gió lướt thướt kéo mình qua cỏ rối;
Vài miếng đêm u uất lẩn trong cành;
Mây theo chim về dãy núi xa xanh
Từng đoàn lớp nhịp nhàng và lặng lẽ
Không gian xám xưởng sắp tan thành lệ.

Thôi hết rồi! Còn chi nữa đâu em!
Thôi hết rồi, gió gác với trăng thèm.

Với sương lá rụng trên đầu gân gùi,
Thôi đã hết hòn ghen và giận tủi.
(Được giận hòn nhau! Sung sướng bao nhiêu!)
Anh một mình, nghe tất cả buổi chiều
Vào chậm chậm ở trong hòn hiu quạnh.

Anh nhớ tiếng. Anh nhớ hình. Anh nhớ ảnh.
Anh nhớ em, anh nhớ lầm! Em ơi!
Anh nhớ anh của ngày tháng xa khơi,
Nhớ đôi môi đang cười ở phương trời.
Nhớ đôi mắt đang nhìn anh đăm đắm!
Gió bao lần từng trận gió thương đi,
- Mà kỷ niệm, ôi, còn gọi ta chi...¹⁰⁶

Muhabbat iztirobi

Kun sovuq. Quyosh erta qo'yadi boshin.
Men seni sog'indim, sog'indim juda.

¹⁰⁶Ngó XuânDieu. The The. — Hanoi. 1938. -P.30

Hech narsa mahzunmas sokin oqshomdan,
Tun so‘nggi nur bilan qorishganida.
Maysa uzra sirpanadi ingragan shamol,
Shoxlarga berkingan tun parchasi aro.
Kulrang osmon sekin yoshga aylanar ekan,
Galalashib, sassiz, tog‘ tomon
Bulutlar boradi qushlar ortidan.
Endi bari tamom! Azizam,
nima ham qoldi?

Endi bari tamom! Na shamol bor, na ko‘kdagi oy,
Na bosh uzra yog‘ilgan shudringli yaproq.
Na qahr, na jahl, na bir rashk, hayhot!
(Telbalarcha sevish, bu qandayin baxt!)
Endi eshityapman men yolg‘izlikning
Yolg‘iz ruhim ichra sizib kirganin.
Sog‘indim ovozing, shakling, surating.
Oh, shunchalar sog‘indim, sog‘indim seni!
Olisda qolgan kunlar hamon yodimda,
Sog‘indim lablaring, jilmaygan xiyol,
Muhabbatga to‘la qora ko‘zingni.
Jonom, kel, yaqinroq! Qo‘llaringni ber!
O, shamol, sen keltirding xotiralami!
Xotiralar, nega ham yo‘qlading meni?

Mazkur she’rda, erisha olinmagan muhabbat va sog‘inch, qyynoqli xotiralar ifoda etilmoqda. Birinchi qatorda shuni kuzatishimiz mumkinki, shoir iztirobda, uni sovuq emas, sog‘inch qyynamoqda, chunki u sevgilisidan ayrilgan.

*Gió lướt thuốt kéo mình qua cỏ rói;
Vài miếng đêm u uất lẩn trong cảnh;*

*Mây theo chim vè dãy núi xa xanh
Từng đoàn lợp nhịp nhàng và lặng lẽ
Không gian xám tướng sáp tan thành lệ.*¹⁰⁷

Maysa uzra sirpanadi ingragan shamol,
Shoxlarga berkingan tun parchasi aro.
Kulrang osmon sekin yoshga aylanar ekan,
Galalashib, sassiz, tog‘ tomon
Bulutlar boradi qushlar ortidan.

Bu misralarda shoirning ayriliq dardiga tabiat ham hamohang ekanligini ko‘rish mumkin. Shoир bu yerda “*ingrangan shamol*” deb tashxis (jonlantirish) san’atini qo‘llaydi. Ya’ni shamolning g‘uvillagan ovozini shoир og‘riqdan ingragan yarador odamdek tasavvur qiladi va uni mana shunday chiroyli jonlantiradi. “*Shamol*”, “*kulrang osmon*”, “*bulutlar*” kabi so‘zlar esa yomg‘ir darakchilari hisoblanadi. Yomg‘ir esa oshiqning dardlarini yuvadigan malhamadir.

Lekin shoир bunday sevgidan norozi emas. Hatto bu sevgi unga azob bersa ham. Aksincha, telbalarcha sevishni u baxt deb ataydi. U bir tarafдан bu sevgidan mamnun bo‘lsa, bir tarafдан sevgilisining endi olisdaligidan iztirob chekadi. Aynan endi u yolg‘iz qolganida yolg‘izlikning qanchalar azobliligini teran his hilmoqda. Yolg‘iz qolganida yolg‘iz ruhining ovozini yanada yaxshi eshitishni boshladi.

*Anh nhớ tiếng. Anh nhớ hình. Anh nhớ ảnh.
Anh nhớ em, anh nhớ lầm! Em oi!
Anh nhớ anh của ngày tháng xa khơi,
Nhớ đôi môi đang cười ở phuong trời.
Nhớ đôi mắt đang nhìn anh đăm đắm!
Sog‘indim ovozing, shakling, surating.*

¹⁰⁷Ngó XuânDieu. The The. — Hanoi. 1938.- P.30

Oh, shunchalar sog‘indim, sog‘indim seni!
Olisda qolgan kunlar hamon yodimda,
Sog‘indim lablaring, jilmaygan xiyol,
Muhabbatga to‘la qora ko‘zingni.

Bu misralarda shoir hayolan sevgilisining suratini chizmoqda.
Uning chehrasini, ovozini, shaklini sog‘inmoqda.

*Gió bao lắn từng trận gió thương đi,
- Mà kỷ niệm, ôi, còn gọi ta chi*

O, shamol, sen keltirding xotiralarni!
Xotiralar, nega ham yo‘qlading meni?

Undan yolg‘iz xotiralar qolgan. Sovuq shamol bu xotiralami olibkeladi.

Kunduzlar o‘zini hayot tashvishlariga chalg‘itsa-da, kechalar yana uning yodi yurakka qaytadi va shu zahoti oshiq jism-u jonini zabt etadi. Aynan tunda odamlar, yolg‘iz qolganlarida qilgan hatolar-u, o‘tgan umrlari, ayrilgan odamlari va armonlari haqida uzundan uzoq hayol suradilar, azoblanadilar. Bu she’rda ham shoirning iztirobi mahzun tunga o‘xhatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Suan Zieu odamlarga kim hayotni qattiq sevsu u go‘za1 tabiatga befarq bo‘la olmaslik g‘oyasini ilgari surgan. Hayot shunchalik go‘za1 va ajoyibki, shoir uni nafaqat qo‘1ga kiritishni, balki unda butunlay singib ketishni istaydi. “Men hayotni shunday sevamanki, ayniqsa unda mazmunli hayot kechirishni istagi bilan yonaman”, - deydi shoirning o‘zi. Aytish mumkinki, bu Ngo Suan Zieu she’r1ariga hayotiy kuch va jozibadorlik baxsh etuvchi omillardan biridir.

Tarjima jarayonida shu narsaga amin bo‘ldikki, Ngo Suan Zieuda shoirlilikning asl mohiyati mujassam. Har bir shoir uchun mushtarak mezon bo‘lgulik ruhiy qiyofa, mahorat va san’at, shoirning burchi,

vazifasi va maqsadi mujassam. Shuningdek, Suan Zieu tabiat hodisalarini she'rlarida mohirona tarzda jlonlantira oladigan shoirlardan biridir.

Suan Zieu she'riyati haqiqiy muhabbat, sof tuyg'ular aks etgan she'riyatdir. Bu she'riyat oliyjanob sevgi, insoniy ezgu niyatlar, o'tkir aq1, qizg'in extiros, tafakkur tug'yoni, qalb samimiyati, bashariy falsafa va ozod shoirona ruh bilan nurlanib turadi. Bu she'riyat zulm, zo'ravon1ik,adolatsizlik, razolatdan, yovuzlikdan, kibru havo, g'iybat, tuhmat ryo kabi barcha illatlardan nafratlanadi. Hushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik va qo'rkoq1ikdan hazar qiladi. Qo'1iga qalam olganlar uchun Suan Ziue ijodida saboq bo'larli fazilatlar ko'p.

Ngo Suan Zieu she'riyatida nafaqat tematika yoki badiiy tasvirlar mavzulari, balki badiiy so'z san'at tasvirlari, uslubshunoslik va adabiyotning boshqa dolzarb mavzulari bo'yicha sermahsul tadqiqotlar amalga oshirish imkoniyatlari juda keng.

Suan Zieu o'z davrida fikrini ifoda etish, hissiyotlarni yetkazib berish, ijodkorlikka halal beruvchi omil va an'analardan yiroq holda she'rlar yozdi. U "Yangi she'riyat" ning asoschilaridan bo'lib, vietnam adabiyotiga yangilik bo'lgan romantizm unsurlarini she'riyatga olib kirdi, hamda qat'iyatlik bilan ijodi orqali vietnam tili qurilishiga hissa qo'sha oldi.

Suan Zieuning eng murakkab meroslaridan biri shundaki, uning bir qancha she'rlari, jumladan "Đây mùa thu tối" (Mana kuz keladi) va "Vội Vàng" (Shoshilinch) Vietnam o'rta maktablarida o'qitiladigan rasmiy adabiyot o'quv dasturlariga muntazam kiritilgan. Suan Zieu ko'p yillar davomida Vietnam yozuvchilar Uyushmasining doimiy a'zosi bo'lib, 1983-yilda Germaniya Demokratik Respublikasi Badiiy akademiyasi institutining a'zosi etib saylandi.

1985-yil 18-dekabrda Suan Zieu 69 yoshida to'satdan yurak xurujidan o'z uyida vafot etdi. Suan Zieuning noyob adabiy ovozi

ko‘proq maqtovlarga sazovor bo‘la boshladi va uning zamonaviy Vietnam adabiyotiga qo‘ygan sezilarli ta’siri yanada qadrlanadi. Misol uchun, 1996-yilda Suan Zieu vafotidan so‘ng Vietnam hukumati tomonidan madaniy yoki ilmiy yutuqlarni e’tirof etgani uchun berilgan sharaflı mukofot - “Hồ Chí Min” mukofoti bilan taqdirlandi.

2016-yilda mamlakatda Suan Zieu tavalludining 100 yilligini nishonlash uchun ommaviy marosim bo‘lib o‘tdi, bu tadbir Suan Zieuning eng mashhur she’rlaridan biri “Vội Vang” (Shoshilinch) ning o‘qilishi bilan nishonlandi. Shu bilan birga, uning qishlog‘ida Suan Zieuga bag‘ishlangan yodgorlik zali o‘rnatildi va hozirgi kunga qadar Vietnam bo‘ylab ko‘plab yo‘llar va ko‘chalar ham uning nomi bilan ataladi.

Xulosa o‘rnida “Yangi shoirlarning eng yangisi” deb hisoblangan “Muhabbat she’rlari qiroli Suan Zieu o‘zining muhabbatni tarannum etuvchi she’riy to‘plamlari bilan tanilgan bo‘lib, u G‘arb madaniyati, ayniqsa fransuz simvolizmi ta’siridagi aniq ovozni ifodalaydi. U birinchilardan bo‘lib Vietnam she’riyatida ko‘plab g‘arb she’riy uslublarini qo‘llagan, an’anaviy shakllarga amal qilgan. 1936-1944 - yillar davomida uning she’riyati pessimistik va umidsiz sevgi falsafasini ifodalagan, lekin ba’zida hayotiylik bilan porlab turgan asosiy impulsiga ega bo‘lgan. Shu tufayli Suan Zieu “Muhabbat she’riyati qiroli” sifatida ham tanilgan.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. XX asrning 30-yillar boshlarida vietnam she’riyatida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
2. XX asrning 40-yillarida vietnam adabiyotida qanday janrlar paydo bo‘ldi?
3. Ngo Suan Zieu she’riyatida asosiy mavzular qanday bo‘lgan?
4. Ngo Suan Zieu she’rlarida asosan qanday badiiy san’at turlari qo‘llanilgan?

XX asr boshlaridagi vietnam novellasidagi ma'rifatparvarlik g'oyalari (tendentsiyalar)

Darsning maqsadi: Talabalarga XX asr boshlarida Vietnam adabiyotida yangi yo'naliш va oqimlar vujudga kelishi va ushbu yo'naliшlarda ijod qilgan bir qator yozuvchilar qalamiga mansub bir nechta hikoyalarning o'ziga hos jihatlarihaqida amaliy tushuncha berish.

Tayanch so'z va iboralar: romantizm, realizm, roman, sentimentalizm, shakl, oqim, yo'naliш, lang man, tanqidiy realizm, proza, luk bat va song txat luk bat, xanvan (venyan), Ti nom,

Vietnamda asrimizning birinchi choragi – voqealarga boy jo'shqin vaqt edi.

Milliy ozodlik harakati o'sib borib, monarxiya g'oyalardan respublika g'oyalariга o'tardi. Burjuaziyaning o'zligini anglash milliy chegaralanish doirasidan chiqib ketishni va ma'rifatparvarlik harakati bilan hamohang bo'lishni nazarda tutgan.

O'sha yillarda Vietnamda Sokrat, Iflatun, Aristotel, Bekon, Dekart, Monteske, Volter, Russo, Darvin, Adam Smit, Spenserlarning nomlari ilk bor eshitildi. Tashqaridan kirib kelayotgan axborotning juda katta oqimi Vietnam jamiyatining dunyoqarashini kengaytirdi, barcha ijtimoiy sohalardagi o'zgarishlarga, yangilanishlarga intilishni uyg'otdi.

XX asr boshida Vietnamdagi ma'rifatparvarlikning keng harakati taniqli olim, adabiyotchi va entsiklopedist Le Kui Don (1726-1784)ning nomi bilan bog'liqdir. U "Shutszin" ("Tarix Kitobi") ning tarjimoni va sharhlovchisi, turli falsafiy, tarixiy va adabiy asarlar muallifi edi. Asarlarining orasida birinchi vietnam entsiklopediyasi va birinchi mualliflik asari bo'lmish "Turli so'zlarning eng baland

minorasi” alohida o‘rin tutgan (Le Kui Don davrdagi xitoy entsiklopediyalari asosan jamoa ijodi bo‘lgan edi).

Le Kui Donning ajoyib qobiliyati haqida afsonalar paydo bo‘lgan. Masalan, ma’lumki, u besh yoshida “Shitszin” (“Qo‘shiqlar Kitobi) ni o‘qib bo‘lgan, katta bo‘lganida ega o‘qimagan va unga ma’lum bo‘lidan bironta kitob yo‘q” ekan. Le Kui Dong o‘zining keng qamrovli faoliyati bilan “ma’rifat berish – aqliy, ilmiy va axloqiy nur sochish, haqiqat va ezgulikka o‘rgatish, aql va qalbni tarbiyalashdir” printsipini isbotladi.

“Eng baland minora” o‘ziga to‘qqizta faslni oladi: kosmogoniya, kosmografiya, geografiya, tizimlar va o‘rnatilgan narsalar, adabiyot va san’at, til va yozuv, kitoblar, xalqni boshqarish usuli, tabiat predmetlari va ijtimoiy hodisalar haqida. Ma’lumotlarning aksariyatini Le Kui Dong qadimgi va unga zamondosh bo‘lgan xitoy va vietnam manbalaridan olgan edi. Muallif jahon geografiyasi boshlang‘ich asosalari bilan tanishtirib turib, Min sulolasi davridagi Xitoyga safar qiladi katolik missioner Ferdinand Verbiestning “Erning geografik ta’rifi” kitobiga ishora qiladi.

Vietnamning madaniy hayotida XVII asrning o‘rtasida ma’rifatparvarlik g‘oyalari (tendentsiyalari)ni uchratish mumkin. Evropalik missionerlar sa’y-harakatlari bilan yaratilgan vietnam tilining yangi lotinlashtirilgan *kuok ngi* yozuvini tarqalishi bunga isbotdir. 1651 - yilda ular tomonidan yangi yozuvga asoslangan uch tildagi “Annamit lug‘ati” va “KATEXIZIS” chiqarilgan. Yangi yozuv hali takomillashgan bo‘lidanligi sababli faqat missionerlik mакtablarida tarqalgan. Ikki asr davomida uning qo’llanilishi faqat katolitsizmni tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lib kelgan.

Vietnamdagi adabiy tilning tarixi qo‘p qatlamliligi bilan o‘ziga xosdir. Xitoy ieroglifikasi milliy yozuvni – “*ti nom*” yaratish uchun

o‘zlashtirilgan edi. XVIII asrdan boshlab *xanvan* (*venyan*)ning¹⁰⁸ vietnamlashgan turi) dagi adabiyot va “*ti nom*” dagi adabiyot parallel tarzda rivojlanib kelgan. Milliy lotinlashtirilgan “*kuok ngi*” yozuvini oson o‘rganishda keng va tez sur’atda bilimlarni egallash garovi tushunilgan. Yangi yozuvni o‘zlashtirish esa ma’rifatparvarlik harakati bilan uzviy bog‘liq edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida iqtidorli tarixchi-olim, yozuvchi, tarjimon, sharhlovchi, lingvist Chiong Vin Ki (1837–1898) boshchiligidagi ma’rifatparvarlarning bir guruhi yangi yozuvni keng targ‘ib qila boshladilar. “*Kuok ngi*” yozuvining tatbiq etilishi kitobxon auditoriyani ancha demokratlashtirgan edi. “*Ti nom*” yozuviga qaraganda “*kuok ngi*” yozuvini o‘rganish oson edi. Ma’rifatparvarlar adabiyot va folklorning mashhur va ko‘zga ko‘rinar “*ti nom*”dagi namunalarini “*kuok ngi*”ga transliteratsiya qila boshladilar. Shu davrda yangi yozuvda vietnam va xitoy klassikasining asarlari nashr etilgan. (“To‘rt kitob”, “Kieu”, “Lyuk van Tien” va boshqalar). Chiong Vin Ki ilk bor vietnam kitobxonini g‘arb adabiyoti bilan tanishtirdi. 1856 - yilda u “Lafonten masallari”ni she’r qilib, 1887-yilda Fenelonning “Telemak sayohati”ni “*kuok ngi*”ga tarjima qildi. Chiong Vin Ki “Fransuz-Vietnam lug‘ati” (1884) va “Vietnam-fransuz lug‘ati” (1887) muallifi bo‘lgan; fransuz tilida ikki jildli (1875 va 1877) “Vietnam tarixi”ni yaratgan edi.

Vietnamda ma’rifatparvarlik harakati milliy ozodlik harakati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, undagi ishtirok etayotgan arboblarning aksariyati milliy chegaralanish doirasidan chiqib ketib, taniqli ma’rifatparvarlarga aylandi. 1904 - yilda birinchi bor Vietnamda “Vietnamning yangilanish jamiyati” (“Vietnam zui tan xoy”)ni ta’sis etgan Fan Boy Tyau (1868 – 1940)ning safdoshi bo‘lmish Fan Tyu Chin (1872–1926) xalqning ma’rifatida uning yashash darajasini

¹⁰⁸ Venyan – Xitoy adabiy tili

ko‘tarilishini ko‘rgan. Fan Boy Tyau yoshlarni Yaponiyaga o‘qishga borishini da’vat qilgan; keyinchalik bu da’vat “Dongzu” (“Sharqqa”) nomini olgan harakatga aylandi. Fan Tyu Chin o‘z mamlakatida ta’limning yangi yevropalik tizimini tatbiq etish kerakligini va o‘rgatish jarayonida milliy lotinlashtirilgan “kuok ngi” yozuviga asoslanishni ta’kidlagan. Shu maqsadda Vietnamning ko‘pgina viloyatlarida maktablar ochilgan, ayniqsa Kuang-name viloyatida. Bu maktablarda “kuok ngi”da tabiiy fanlar, arifmetika, tarix va adabiyot, hattoki jismoniy tarbiya ham o‘rgatilgan. Maktab dasturidan diniy kitoblarni o‘qib, yod olish va she’r yozish mashqlari chiqarib tashlangan. O‘quvchilar uzun kiyimlarda emas, balki evropalik kiyimlarda, sochlarni kalta qilib (kesib tashlab) kelishlari talab qilingan.

Ijtimoiy fikr tarixida Xanoydagi 9 oy davomida faoliyat ko‘rsatgan “Tonkin ijtimoiy maktabi” (“Dong kin ngia txuk”) ko‘zga ko‘rinar o‘rinni egallagan edi (1907 – 1908). “Tonkin ijtimoiy maktabi” “kuok ngi”da o‘z “Dang ko tung bao” (“Qadim zamon jurnali”) gazetasini nashr etgan. Maktabda ta’lim uch tilda – vietnam, xitoy va fransuz tillarida olib borilgan; geografiya, tarix, tabiiy fanlar o‘rgatilgan. O‘quvchilar soni ming kishidan ortiq; makabning asosiy maqsadlaridan biri – “kuok ngi”da darsliklarni tayyorlash va nashr etish bo‘lgan. “Tonkin ijtimoiy maktabi” faollariga mustamlakachilar va hoinlarga nisbatan murosasiz munosabat, o‘z vataniga sevgi-muhabbat va siyosiy, iqtisodiy va madaniy qaramlik (tobelik)dan ozod bo‘lishga inilish xos edi. Ular feodalizm illatlarini yo‘q qilishga, jahon tarixi va geografiya haqidagi bilimlarni tarqatishga, yevropalik mexanika yutuqlarini ishlab chiqarishda tatbiq etilishiga da’vat qilganlar. Ular “ekonomika”, “evolyutsiya”, “revolyutsiya” kabi g‘arb atamalarini muomalaga kiritib, tilning lug‘aviy tarkibiga bebahohissa qo‘shganlar. “Tonkin ijtimoiy maktabi” sodda, barchaga tushunarli,

yaqqol ko‘rinib turgan siyosiy mavzuga ega she’rlar, dostonlar, qo‘shiqlardan iborat katta adabiy merosni qoldirdi.

Asrimizning birinchi choragida publitsistikaning rivojlanishi ham ko‘zga ko‘rinar edi. O‘sha davrda adabiy hayotning markazlari hisoblanib, ikkita jurnal “Dong ziong” (“Hindxitoy”, 1913 – 1917) va “Nam faung” (“Janubiy shamol”, 1917 – 1934) faoliyat ko‘rsatgan. Bu jurnallar zamonaviy shoir va yozuvchilar, mahorat maktabi, zamonaviy vietnam adabiyotining tug‘ilish joyi minbari sifatida xizmat qilgan edi. Aynan mazkur jurnallarning ma’rifatparvarlik faoliyati bir yarim o‘n yillikdan keyin yangi milliy adabiyotning rivojlanishiga zamin yaratib bergen. Jurnallarning sahifalarida g‘arb adabiyotining ko‘plab tarjimalari nashr etildi: “Lafonten masallari”, “Perro ertaklari”, Molerning “Tartyuf” va “Dvoryanlikdagi meshchan” komediyalari, Lesajning “Dil Blaz”, A. Prevoning “Manon Lesko”, A. Dyumaning “Uch mushketyor”, Dj.Sviftning “Gulliverning sayohati”, O. Balzakning “Shagren terisi”, Paskalning “Fikrlar”i, Dekartning “Usul haqida mulohazalar”, shuningdek, xitoy klassikasidan tarjimalar – “Uch hokimiyat” va “G‘arbgaga sayohat”.

Ushbu davrga kelib an’anaviy klassika doirasi yangi ideallar uchun tor bo‘lib qolgan. Ijtimoiy hayotning shiddati badiiy idrok etish (anglash)ning yangi imkoniyatlarinii izlashga undagan. Vietnam yozuvchilarining nigohlari hamisha navqiron va so‘nmas manba – milliy shaklga qaratildi. “Tonkin ijtimoiy maktabi”da milliy an’analarga qaytish xitoy tan vaznini qabul qilmaslikda namoyon bo‘lgan. Masalan, mashhur shoir Tan Da (1888 – 1939) tan metrikasini ham, qadimgi she’r vaznini ham, *lyuk bat* va *song txat luk bat* vaznli xalq qo‘shiklarini ham qo‘llab ijld qilgan. Uning farqli tomoni shundaki, har qanday vaznda she’rning tili va ohangi xalq kuyi bilan bir xil edi. Tan Dagacha bironta shoir ham xalq she’ri va ohangi boyligini ishlatmas, she’riyatga oddiy, xalq tilini kiritmasdi. Tan Dani

“ikki asr” odami deb atashadi. U haqda “Yangi she’riyat”ga (30-yillar boshi) yo‘l ochib bergen shoir deb gapishtadi.

Ma’rifatparvarlik harakati jahon san’ati an’analari bilan milliy adabiyotning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatdi, ushbu an’anani churqur anglash va o‘rganishga yo‘l ochib berdi. Bu harakat nasrda novellaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Birinchi novellalar paydo bo‘lganidan 10 yildan keyin 1925-yilda birinchi zamonaviy roman vujudga keldi. Novellistik janr vietnam adabiyotida o‘zining qadimgi an’analariga ega edi. Vietnam novellasining ildizlari turli xil tarixiy, rasmiy va norasmiy hamda folklor asarlariga borib taqaladi. Ma’lumki, “Do Txienning norasmiy tarixiy tazkiralari” (XIII asr) asariga keyingi asrlarda rasmiy tarixnavislik tomonidan ko‘p marotaba murojaat qilinib, XIV asr boshidagi vietnam novellalari Li Te Syuyenning “Viet yerlarining ajoyibotu-g‘aroyibotlari to‘plami” sifatida bizgacha yetib kelgan. Le Kui Donning aytishicha, eng dastlabki bizgacha yetib kelmagan novellalar to‘plamlari – “Oliy taqdirlash haqida qissa” (XIII asr) va “Qirol bog‘lari va ibodatxonalaridagi ajoyib go‘zalliklar to‘plami” (XIV asr boshlari) turli xil tarixiy asarlarga asoslangan edi. Aksariyat hollarda novellalar matniga Do Txienning “Tazkiralari” dan alohida parchalar, voqealar haqida hikoyalar yoki tarixiy latifalar kiritilgan. Bunday “kiritilgan parchalar” “Tazkiralari” dan olingan matnlardan ko‘chirma gaplar hisobiga ancha keng bo‘lgan. Solnomalarning novellaga bo‘lgan ta’siri aniq sanalar qo‘yishda va kitobxonga qahramonning naslnasabini keltirishda namoyon bo‘ladi.

Novellalarning yana bir manbasi – bu ko‘pgina pagoda va ibodatxonalarda saqlanayotgan ibodatxona kitoblari edi. Bunday kitoblarda odatda ruhlar va ruhoniylar tomonidan ko‘rsatilgan mo‘jizalar va muhim voqealar yozilib borilgan. Vietnamda ibodatxona kitoblari mavjud bo‘lganligiga boshqa ishonchli tarixiy manbalar aniq

ishora qiladi. Shunday tahmin ham borki, Do Txien o‘z “Tazkiralari”ni tuzishda ibodatxona kitoblaridan foydalangan.

Ibodatxona kitoblaridan novella shakllanish jihatini olgan – stereotip (odatdagidek bir xil) yakunlanish, qahramon ko‘rsatgan mo‘jizalarning va o‘limidan keyin qirol tomonidan berilgan faxriy unvonlarning sanalib o‘tilishi. Novella va ibodatxona kitoblari o‘rtasida aloqa borligiga qiziq bir fakt (haqiqiy voqeа) dalolat beradi. 1572-yilda mahalliy ilohiyotlar haqida afsonalarni unifikatsiya (tartibga keltirish) borasida Le sulolasи reviziya (tekshiruv-taftish)ni olib borganda, rasm-rusum va marosimlar vazirligi yo‘qolgan (yoki umuman mavjud bo‘lmagan) “nasl-nasabi yo‘q” ruhlarning kitoblari uchun “rasmiy tarjima holni” Li Te Syuyenning to‘plamidan olishni buyurgan edi.

Folklor vietnam novellasiga ertaklar, afsonalar, va tarixiy rivoyatlar shaklida kirib kelgan. Birinchi novellalar juda qisqa va lo‘nda, shaklan sodda, ko‘pincha ajoyib tusga ega g‘ayrioddiy voqealar haqida qisqa yozuvlardan iborat bo‘lgan. Folklor negizlari Vu Kuin va Kieu Fularning “Linnam yerlarining ajoyib qissalari” (XV asr boshlari) novellalar to‘plamida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu to‘plam hozirgi vaqtgacha og‘zaki an’anada saqlanib kelayotgan rivoyatlar (qissalar)ni o‘z ichiga olgan bo‘lib, syujet nuqtai nazaridan folklor manbalariga butunlay tayanadi va ajoyib, g‘ayrioddiy voqealar haqida bayon qiladi.

Keyinchalik novellada solnoma an’anasidan uzoqlashish tendentsiyasi mustahkamlanadi, bayon (hikoya) qilish elementi (unsuri) kuchayadi, badiiy uydirma va pand-nasihat paydo bo‘ladi (“Le Txan Tong qiroli qoldirgan asarlar”, XV asr oxiri). Nguyen Zining (“Ajoyibotlar haqidagi hikoyalarni keng yozib olishdan”, XVI asrning birinchi yarmi) va Doan Txi Diemning (“Ajoyibotlar haqidagi hikoyalarning yangi yozuvlari”, XVIII asr) novellalari takomillashgan syujet, kompozitsion yakunlanganlik va obrazlar rivojlanganligi bilan

ajralib turib, vietnam klassik novellistikasining cho‘qqisi hisoblanadi. Bu novellalarda axloqiy didaktik an'analar yaqqol ko‘rinib turibdi; masalan, Nguyen Zining har bir novellasida kitobxonga yo‘llangan pand-nasihatni uchratishimiz mumkin.

Ushbu novellalar xususiyatlari (xaraktyori) haqida ularning nomlanishidan xulosa qilsa bo‘ladi: mo‘jizalar, sehrgarlar, ruhlar, ajoyib voqealar va aylanib qolishlar – osmon ahliga aylangan odamlar va odamlarga aylangan osmon ahli haqida o‘sha bir xil hikoyalar.

XX asr boshidagi novella an'anaviy novelladan ancha farq qila boshladi. To‘qib chiqish (uydirma) o‘rniga kundalik hayotga idrokli qarash, mo‘jiza va aylanib qolish o‘rniga haqiqiy voqealik kirib keladi. Endilikda novella haqiqatni (haqiqiy voqelikni) aks ettirishga ega bo‘la boshlaydi. Ilk bor u ijtimoiy mavzu va motivlarga murojaat qilib, inson uni ijtimoiy shasiyat sifatida qiziqtira boshlaydi.

Fam Zyui Ton

Yangi novellaning asoschisi o‘qimishli inson, fransuz madaniyatining o‘tkir bilimdoni, mohir tarjimon, iqtidorli jurnalist va publitsist Fam Zyui Ton (1883 – 1924) bo‘lgan. Ko‘p yillar davomida u eng yirik nashrlarda hamkorlik qilgan: “Dong ziong”, “Chungbak tanvan” (“Shimol va Markaz Yangiliklari”) jurnallarida, “Dayvet tanbao” (“Buyuk Vet Yangiliklari”) va “Txikniep zanbao” (“Shahar gazetasi”) gazetalarida. “Luktintanvan” (“Koxinxina”) ommabop jurnalning muharriri bo‘lgan. Fam Zyui Tonning novellalarini “tatyan”, ya’ni ular “aslga qarab yozilganlar” deb atashgan. Fam Zyui Ton vietnam yozuvchilari orasida birinchi bo‘lib ijtimoiy masalalarni ko‘tarib chiqdi va vatan adabiyoti rivojlanishining yangi davri asoschisi nomi bilan tarixda iz qoldirdi. Fam Zyui Ton adabiyotning bosh maqsadini odamlarning ma’rifatida ko‘radi; ko‘pgina ma’rifatparvarlar kabi ommalarni G‘arbiy Evropa va sharqiy (xitoy,

yapon) ijtimoiy fikr, madaniyat va ilm-fan yutuqlari bilan tanishtirishni zarur deb bilar edi. Fam Zyui Ton, Nguyen Van Vin, Fan Ke Bin, Nguyen Do Muk va boshqalar g‘arb va xitoy mualliflarining badiiy asarlari, tanqidiy esselari, ilmiy devonlarini vietnam tiliga tarjima qilganlar, shuningdek, klassik vietnam adabiyoti bo‘yicha turli xil tadqiqotlar olib borib, zamonaviy yozuvga uning asosiy asarlarini transliteratsiya qilganlar.

Fam Zyui Ton boshqa ma’rifatparvarlardan farqli ravishda vatan adabiyotining rivojlanishiga ko‘proq e’tibor berilishini ta’kidlar edi. Shu sababli u asosiy kuchini tarjima va esselarga emas, balki badiiy ijodga bag‘ishlar edi. Fam Zyui Ton bir qator tarjimalar muallifidir. Tarjimalar uchun u XVII asrning yirik axloqshunosi, stilisti va satirigi Jan de Labryuyer va XVIII asrning taniqli mutafakkiri Sharl Monteskening asarlarini tanlangan. Labryuyer va Monteskelsing ismlari bir biri bilan uzviy bog‘liqligi tadqiqotchilar tomonidan tan olinadi: Labryuyerning ta’siri Monteskening “Fors maktublari” asarida sezilib turadi. Aytib o‘tish kerakki, Fam Zyui Ton aynan Monteskening “Fors maktublari” asarini tarjima qilgan.

Ma’rifatparvarlarning ijodi vietnam yozuvchini o‘ziga tortadi. Fam Zyui Tonni Labryuyerning adabiyot, til va ijod haqidagi fikrlari qiziqtiradi. Tarjima uchun Fam Zyui Ton Labryuyerning “Inson idroki (aqli)ning ijodi haqida” asarini tanlab, uni “Dong ziong” jurnalida (1915, №75) “Nutq tabiiy bo‘lishi kerak” sarlavhasi ostida nashr qiladi. Labryuyer nomi nafaqat Monteske nomi bilan bog‘liq, balki keng ma’noda Ma’rifat davri bilan bog‘lashadi. Labryuyerning ta’siri ko‘pgina Yozuvchi va faylasuflarning ijodida seziladi: Didro (“Ramo jiyani”), nemis satirigi Rabener, rus satirigi Kantemir (“uchinchi satira”), Fonvizin (“Chala savod” /Nedorosl/). Buyuk o‘tmishdoshlar kabi Fam Zyui Ton Labryuyerning fikr, kuzatish va badiiy usullarini ijodiy yondoshuv bilan o‘zlashtirib boradi. Monteskening “Fors maktublari” asaridan Fam Zyui Ton illatlarga, shavqatsizlik va

ochko‘zlikka botib ketgan trogloditlar qabilasi haqidagi rivoyatni tarjima uchun tanlaydi (XI-xat – qarang jurn. “Dong ziong”, №76, 1915).

Ikki buyuk fransuzlarning keskin, zehnli satirasi, ijodlarining feodalizmga qarshi yo‘naltrilganligi, tilning aniqligi, ravshanligi va ravonligi, axloqiy haqiqat Fam Zyui Tonning diqqatini o‘ziga tortadi.

Sharq adabiyotlarida o‘ziga xos asar yaratilayotganda o‘zlashtirma syujetdan foydalanish qadimdan an’ana bo‘lib kelgan, biroq manba sifatida milliy adabiyot emas, balki xorijiy adabiyot xizmat qiladi. Fam Zyui Ton ham ushbu an’anaga rioya qilgan holda, A. Dodening “Dushanba kunlaridagi hikoyalar” to‘plamidan “Billiarddag‘i partiya” hikoyasiga murojaat qiladi. A. Dodening “Billiarddag‘i partiya” hikoyasida – “yomg‘ir tagida ivib, charchog‘idan toygan askarlar turibdi. Ular bosh qo‘mondon shtabidan hujum qilish to‘g‘risida buyruqni kutishmoqda. Lekin marshal billiard o‘ynayapti. “Marshal partiyani boshlagan bo‘lsa, osmon uzilib yerga tushmaydimi – hech kim unga partiyani tugatishga xalaqit berishga qodir emas”. Dushman o‘t ochib, askarlar halok bo‘layotgani haqida xabar bilan jo‘natilgan askar shtabga kelganda, marshal pinagini buzmay partiyasini o‘ynab tugatadi, so‘ng orqaga cheqkinish haqida buyruq berishga majbur bo‘ladi”.

Fam Zyui Tonning “Tirik bo‘lishadi yoki o‘lishadi – baribir” hikoyasida voqealar Vietnam qishlog‘ida bo‘lib o‘tadi: - “Daryo sathi ko‘tarilib ketib, to‘g‘onni buzishi mumkin. Kun bo‘yi qishloq aholisi yomg‘irdan ivib, holdan toyib, shavqasiz ofatga qarshilik ko‘rsatishga urinadilar. Tunda ham ular yer kavlashni davom ettitudilar. Shu vaqtning o‘zida tozalik va shinamlikda, issiq va yorug‘ uy (din)da suv toshqini bilan kurashish uchun yuborilgan bosh amaldor o‘tiribdi. “U qo‘l ostidagilari, mahalliy hokimiyat bilan qarta o‘ynamoqda. Uning o‘n tomonida – janob boshqaruvchi, yonida – qo‘riqlash boshlig‘i, keyin tarjimon, chap tomonida hurmat bilan ta’zim qilib turgan

mahalliy hokimiyaning boshlig‘i”. Xalq, suv toshqini, to‘g’onga hujum qilayotgan suv, yomg‘ir va shamolning shovqini uni qiziqtirmaydi. U berilib o‘ynamoqda. To‘g‘on yorilib, hamma yerni suv bosgani haqida xabar bilan yugurib kelgan dehqon uyga kirganda, amaldor uni haydab yuborishni amr qiladi. Odamlar halok bo‘ladi, ularni ochlik va qashshoqlikka mahrum etib, suv uylar va dalalarni qamrab oladi, biroq amaldor sovuqqonlik bilan o‘z o‘yinini davom etiraveradi”¹⁰⁹.

Shubhasiz, Fam Zyui Tonning hikoyasidagi syujet A.Dode novellasiga juda yaqin. Fransuz ma’rifatparvarlar g‘oyalari Fam Zyui Tonga ta’sir qilganiga ham shubha yo‘q. Vietnam yozuvchisining ijodida uchun g‘oyaviy yo‘nalishni aniq ko‘rish mumkin: muhimi “unga ochilgan haqiqatni aqlarni hayratda qoldiradigan darajada ko‘rsatmoq”. Fam Zyui Ton uchun bunday haqiqat odamlarning ijtimoiy mavqeい: feodallar va dehqonlar o‘rtasidagi kontrast (keskin farq) da ko‘rinadi. Muallif amaldor shaxs misolida befarqlik va manmanlikka qarshi qat’iy noroziligini bildiradi. Aytib o‘tish kerakki, Fam Zyui Tonning hikoyasi haq-huquqsizlikka va insonning mehnatidan qabih foydalanishga qarshi protest (norozilik) deb qabul qilindi. Muallif o‘z qahramonlarining xarakterlarini bizga ko‘rsatmagan, lekin hayotiy vaziyati, voqelikni o‘zi dehqonlarning achinarli, ayanchli holidan dalolat berib turar edi: “...yuzlab odamlar boshidan oyog‘igacha loyda, ularni shamol teshib o‘tar, bellarini yomg‘ir savalar edi; hashoratlar, qurtlar, chumolilar kabi ular to‘g‘onda g‘imirlar edilar...” Fam Zyui Ton dehqonlarning huquqlarini tan olish haqida aniq fikrlar bildirmaydi, biroq xalqning og‘ir ahvoli haqidagi fikr uning barcha asarlarida o‘z aksini topadi. Fam Zyui Tonning eng erta “Alam (xo‘rlik)” qissasi qahramoni baxtsiz keksa tanlangan, u halok bo‘lgan o‘g‘lining farzandlarini boqish uchun

¹⁰⁹ Рассказы вьетнамских писателей. Изд.Москва 1960г. - С.35

rikshalik qilishga majbur bo‘ladi. Xalq mavzusi Fam Zyui Tonda mehnat mavzusi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu mavzu qarama qarshi qo‘yish orqali ko‘rsatiladi: boylar tekinxo‘r, haromtomoq hayot kechirishadi, kambag‘allar esa charchoqni bilmay, tinmay ishlayverishadi. Fam Zyui Ton A.Dodening syujet qurilishi rejasiga aniq ergashadi. A. Dodedan farqli ravishda Fam Zyui Ton peyzaj (manzara) chizgilaridan foydalanilmaydi, manzara ko‘rinishlari u uchun ahamiyat kasb etmaydi. Muhimrog‘i – sodir bo‘layotgan voqealar ustidan ko‘zga ko‘rinmas muallifning nazorati (bu narsa A.Dode uchun mutlaqo xos bo‘lman). Gohida u to‘g‘rima-to‘g‘ri muallif baholarini beradi. Qissaning yakuniy qismida xalqning ayanchli holiga rahm qilish va befarq bo‘lgan va manmanlikka uchragan xalq “himoyachisi”ni g‘azab bilan fosh qilinishiga guvoh bo‘lamiz.

Fransianing eng yaxshi novellisti, kinoyaning yorqin ustasi Mopassan o‘zining lo‘ndaligi, kompozitsion tartibligi va eng muhimini saralab olish qobiliyati bilan Fam Zyui Tonning diqqatini tortdi. Mopassanning “Sarpo” hikoyasi syujeti asosida Fam Zyui Ton “Shokxan” qissasini yaratdi. Sho Kxan – Nguyen Zuning “Kieu” (XIX asr boshi) dostonining salbiy qahramoni. Evropalik “donjuan” kabi Vietnamda “shokxan” turdosh otga aylandi, bunday nomni yolg‘onchi va yo‘ldan uruvchi (ozdiruvchi) odam olar edi.

“Sarpo” – qallig‘ining pullari va qimmatbaho buyumlari bilan qochib ketgan uddaburon viloyatli notarius haqidagi qissa. Ushbu qissada Mopassan kinoya bilan burjuaziya jamiyatining vakillari birgina maqsad – boylik orttirish bilan ovoraligini fosh qiladi.

Fam Zyui Ton Mopassan novellalariga xos bo‘lgan klassik soddalik va aniq kompozitsiyaga taqlid qiladi. Mopassan kabi uning novellasi ham personajlarning tavsifi bilan boshlanadi, lekin shu bilan birga muallif o‘z qahramonlariga kinoyali munosabat bildiradi, oliyjanob qiyofa ortida pastkash, molparast va ichki dunyosi bo‘sh va

tor insonni tasvirlaydi. Fam Zyui Tonning kinoyali ohangi dabdabali va o‘ziga xos usuldagи stil orqali ifodalananadi. Muallif ataylab klassik she’riyatiga xos bo‘lgan arxaik so‘z va iboralarga, satrlarning vaznli shakllantirilishi va qofiyali bo‘lishiga murojaat qiladi. Bunday ochiq kinoyali ohang novellada ko‘p martda uchraydi, masalan, yangi oilaning baxti haqida gap ketayotganda: “Kecha-yu kunduz, deraza va eshiklarni zikh yopib, eri-xotin rohatlanar edi! Amir feniksni¹¹⁰ quchog‘iga oladi, feniks esa amirga muloyimlik bilan boqadi.

Qahramonlarning qiliq (harakat)lari tashqi ko‘rinishlari kabi lo‘nda va qisqa tasvirlangan. Fam Zyui Ton Mopassandek xronologik va mantiqiy ketma - ketlikka rioya qilgan holda eng muhim va eng zarurini tanlab olishga intiladi: - “Turmush qurib, er-xotin bir biriga to‘ymas edi. Ular viloyatda xotinining ota-onasi uyida yashaydilar. Bir oz vaqtdan keyin er Xanoyga sayohatga borishni taklif qiladi. Qaynotaning hamma pullar va qimmatbaho buyumlarni safarga olmaslik maslahatiga qaramay, er ularni barchasini portfelga, so‘ng ehtiyyot shartidan jomadonga joylashtiradi. Poyezdda sayohat qilib, shaharga kelishadi, rikshalarni yo‘llaydilar, qorong‘u va bo‘sh ko‘chalardan uzoq vaqt kezib yuradilar. Xotinni olib yurgan riksha berk ko‘chada adashib qolganda, eri pullar va qimmatbaho buyumlar bilan g‘oyib bo‘ladi, xotini esa bu tasodif deb o‘ylaydi va erini qaytishini kutadi. Rikshachi shunday deydi: “Jamodonlar bilan ketganning qaytishini boshqa orzu qilma (xayolingga keltirma). Bir narsada adashib, boshqasiga ehtiyyot bo‘lib qaraysan!””¹¹¹

Fam Zyui Ton ashaddiy ma’rifatparvar sifatida yangi adabiyot qoidalaridan chekinmagan holda fosh qilish natijasini kuchaytiradi. Xotin to‘rt kun befoyda kutishdan keyin eri haqida, u qanday inson ekanligini o‘z tanishlariga hikoya qiladi. “U obro‘li, vijdonli, insofli

¹¹⁰ Feniks –she’riyatda imperator rafiqasi yoki turmushdagi ayol ramzi..

¹¹¹ Рассказы вьетнамских писателей. Изд.Москва 1960. - С.48

inson edi, falakning himoyasi va boshliqlarning qayg‘usi tufayli u yaqinda katta mansab egasi bo‘lishi kerak edi... Kim o‘ylabdi-a, u boylikka tashlanishini va pullarga ko‘z olaytirishini! – deb aytadi tashlab ketilgan xotin. Muallif xotinning hikoyasi bilan kifoyalanmaydi, u o‘z nomidan kitobxonga murojaat qiladi: “Uch-to‘rt oy davom etgan to‘xtovsiz qidiruv va tekshiruv ishlaridan so‘ng barchasi ravshan bo‘ldi: bu Shokxan yengiltak bir qiz bilan til biriktirib, oldindan o‘z shafqatsiz rejasini tuzgan, pullarga ega bo‘lib olib, yosh, gullab turgan hayotni barbod etadi. O‘z ishini tugatib, bu juftlik Siamgami, yo Laosgami insofsizlik vaadolatsizlik yo‘li bilan mol-mulkni qo‘lga kiritib, erishgan ne’matlardan rohatlanishni orzu qilib, qochib ketadi. Barcha narsa o‘z joyini egallaydi – oldindan til biriktirish, shafqatsiz reja, insofsizlik vaadolatsizlik.

G‘arbda ta’lim olgan va “kuok ngi”da yozayotgan vietnam ma’rifatparvar yozuvchilarning ijodida adabiy tilining soddalashtirish, og‘zaki nutq bilan yaqinlashish, bayon stilida soddalik va ravshanlik tendentsiyasi sezilib turar edi. XX asrning birinchi choragida konfutsialik yozuvchilar ijodida boshqa tendentsiya (yo‘nalish) sezilar edi: nasriy tilda uzun va murakkab iboralarga, kitaizm va arxaizm, kam ishlatiladigan so‘zlarga to‘la kitobiy tilni qo‘llash, simmetriya va vaznli yozuvga ko‘proq moyillikni uchratish mumkin. O‘sha davrda nasriy bayonga *lyuk bat* – oxirdagi satrlarda qofiyali she’riy vaznda yozilgan parchalarni qo‘shish urf bo‘lgan. Fam Zyui Ton tildagi tabiiylik uchun kurashadi. Shuning uchun taniqli stilist Labryuyerning tajribasiga murojaat qilgani tushunarli holat. Labryuyerning fikrlari Fam Zyui Ton tomonidan ommalashtirilishi aslida vietnam yozuvchisining tutgan o‘rnini (yo‘lini) targ‘ib qilish deb tushuniladi.

Fam Zyui Tonning nasriy asarlarida uslubdagi va tildagi aniqlik hamda lo‘ndalik kuzatiladi. Og‘ir, murakkab konstruktsiyalar, tushunarsiz konfutsialik iborlardan, kitaizmlar (xitoy tilidan o‘zlashtirilgan) va arxaizm (eskirgan, muomaladan chiqib ketgan so‘z

)lardan qutilishga harakat qilib, yozuvchi aniq va ravshan nasrni yaratadi, tilning ma'rifatparvar kontseptsiyasini tatbiq qiladi. Fam Zyui Ton balandparvoz va murakkablashtirilgan iboralarni qo'llamaydi, so'zlarining ta'siri (kuchi) – soddalik va ravshanlikda mujassamlashtiradi.

Fam Zyui Ton ma'rifatparvarlikda xom xayollar (illyuziya) ga yo'l qo'y maydi. Ma'rifatparvarlar boshlab bergan fosh qilish (ochib tashlash) yo'nalishini davom ettirib, ijobiy qahramonni yaratishdan voz kechadi. Yevropadagi Ma'rifat davri uchun aynan shu muammo o'ta muhim bo'lib, markaziy o'rinni egallagan.

Fam Zyui Ton G'arbiy Yevropa ijtimoiy fikri va adabiyoti bilan juda yaxshi tanish edi. XVIII asrda ishlab chiqilgan ma'rifatparvar ideallari XX asrga kelib eskirib qolgani, zamon talablariga javob berolmasligi ma'lum bo'ladi. Shu bois Fam Zyui Tonga o'z ijodida tanqidiy realizm printsiplari (tamoyillari)ga asoslangan rassomlarning mavqelari (tutgan o'rni) va ideallari yaqinroq edi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Vietnamda ma'rifatparvarlik harakati qanday omillar bilan bog'liq edi?
2. Luk bat va song txat luk bat atamalari qanday ma'noni anglatadi?
3. Vietnam Yangi davr adabiyotida vujudga kelgan "Yangi she'riyat" yo'nalishini avvalgi she'riyatdan farqi nimalardan iborat edi?
4. Fam Zyui Ton hayoti va ijodi haqida so'zlab bering?

MAVZULAR YUZASIDAN TESTLAR

№ 1 - savol

Xalq qo'shiqlari (kazao) nechinchi asrda vujudga kelgan ?

Mil.av III asrdan milodiy III asrgacha

Mil.av II asrdan milodiy II asrgacha

Milodiy IV asrda

Miv.av I asrdan milodiy III asrgacha

№ 2 - savol

O'z asarlarida buddistlarning g'oyalarini tanqid ostiga olgan shoira kim ?

Xo Suan Hing

Fam Txay

Chin Huai Dik

To'gri javob yo'q

№ 3 - savol

Vietnam folkloridagi Afandi obrazi toping ?

Din

Kuin

Phu Dong

Txe

№ 4 Fan bobi- - savol

Vietnam adabiyotida ritual asarlar (vaute) rivojlanishi nechinchi asrlarni o'z ichiga oladi ?

XVII-XVIII asrlar

XVII –XIX asrlar

XVI-XV asrlar

№ 5 - savol

Kazao nechi qator bo'lishi mumkin ?

4-6 qator

2-4 qator

4 qator

6 qator

№ 6 - savol

Quyidagi qaysi qatorda qadimgi Vietnam folklorshunoslikidagi namunalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan .

B.J.T

Ajdaholar Lak haqida

Fe Dong qahramonligi haqida

Opa-singil Chinglar haqida

№ 7 - savol

Vietnam dastlabki yozma yodgorliklari nechanchi asrlarga borib tarqaladi?

X-XII asrlar

IX-XI asrlar

XI-XIII asrlar

VIII-XI asrlar

№ 8 - savol

O‘rta asr Vietnam novelisti Nguyen Zu ning “Ti Thik va Fea hikoyasida Ti Thik parilar oroliga qanday borib qolgan?

u ko‘l bo‘yida o‘tirib, mast holatida chiroyli joy ko‘rib , o‘z kemasida shu yerga borgan

u parilar oroliga bormagan

uni o‘zi qanday borib qolganini bilmagan

uni parilar ko‘ldan olib ketishgan

№ 9 - savol

Novellaning shakllanishida nimalar turtki bo‘lgan ?

ibodathonadagi yozuvlar

Buddist kitoblari

Monarxlarning say harakatlari

Jamiyatning nasrga qiziqishi

№ 10 - savol

XV-XVI asrlarda Vietnam she'riyatini rivojlantirishga hissa qo'shgan shoir?

Nguyen Chay

Ding Co

Nguyen Faung

Li Tho

№ 11 - savol

1380-1441 yillarda yashagan davlat arbobi gumanist?

Nguyen Chay

Ding Co

Nguyen Faung

Chin Taka

№ 12 - savol

XVIII asr Vietnam sheriyatidagi asosiy mavzu ?

podsholar hayoti

sevgi

Konfutsiy talimoti

xalq turmushi

№ 13 - savol

Vietnam adabiyotida folklor xalq qo'shiqlarining paydo bo'lishi nechinchi asrlarga to'g'ri keladi ?

XVII asr

XVI asr

XVIII asr

XV asr

№ 14 - savol

1755 –yilda tug‘ilgan hikoyashunos olimni belgilang ?

Vu Fung De

Nguyen Zi

Le Txan Tong

Nguyan Ti

№ 15 - savol

XVII asrda Vietnam adabiyotida qo‘shiq kuylovchi shaxslar nima deb berilgan?

Keve

Xatsami

Kazao

Chuen

№ 16 - savol

Vietnam tilidagi she’riy dostonni ifodalovchi termini toping?

Chuen

Kazao

Keve

Kxuk

№ 17 - savol

Chuen janri nechinchi asrda vujudga kelgan ?

XVI asrda

XVII asrda

XV asrda

XV asrda 2 yarmida

№ 18 - savol

Vietnam xalq og‘zaki ijodiyoti qadimki Xitoyning qaysi kitobida jamlangan ?

Qo‘shiqlar kitobida

Folklor kitobida

Xalq qo'shiqlari kitobida
Shinczin kitobida

№ 19 - savol

Qaysi konfutsions "Men o'ta aqli konfutsions bo'lsamda, qo'shiqlar kiyotbini o'zgartirib Xonlik qo'shiqlari deb atagan bo'lar edim" deb yozadi ?

Ngu Dao
Nguyen Zi
Ngu Fan
Suan Din Bao

№ 20 - savol

Kazao bu - ?
Barcha javoblar to'g'ri
Er.avv III va eramizning III asri
Lirik xalq qo'shiqlari
Bu termin Xitoydan kelib chiqqan

№ 21 - savol

Vietnam mashhur folklorchisi Ngu Fan kazao haqida qanday fikr bildirgan?
Barcha javoblar to'g'ri
Urf –odatlarni ko'rsatuvchi qo'shiq
Yakka holda kuyladigan qo'shiq
Lirik qo'shiq

№ 22 - savol

Xitoy tilidagi chjuan asosida kelib chiqqan janrni belgilang ?
Chuen
Kazao
Chuan

Kxuk

№ 23 - savol

“Viong Tiong” she’riy dostonining muallifini aniqlang ?

no‘malum

Nguyen Zi

Ngang Nhanh

Fan Du

№ 24 - savol

“O‘rmon va ariqlar o‘rtasidagi ajoyib uchrashuv” she’riy dostoni nechinchi asrga tegishli?

XVII asr

XVI asr

XV asr

XVI asr o‘rtasi

№ 25 - savol

Muallifi aniqlanmagan asarni aniqlang ?

“Knyaz To elchixona xizmatida”

“Xoa Ven va Kao Txi”

“Van Tianning hikoyasi”

To‘g‘ri javob yo‘q

№ 26 - savol

Vietnam adabiyotidagi qahramonlik obrazi (Alpomish) kim ?

Fu Dong

Ngo Shi

Xunga

Fan Dang

№ 27 - savol

“Biz ko‘rishimiz mumkinki, “ Janub osmon kitobi” XVII asr oxiridagi xalq eposini tarixiy yozma ko‘rinishini qayta dunyoga keltirdi”- deb kim taa’rif bergan ?

Kao Xyui Ding

Ngoa

Xo Kuy Li

Ti Dao Xan

№ 28 - savol

Vietnam adabiyotida falsafiy lirik va sarguzasht poema janrining eng buyuk adibi qaysi qatorda keltirilgan ?

Nguyen Zu

Nguyen Chai

Nguyen Txi

Nguyen Tay

№ 29 - savol

Fun Kxak Kxoan ning yashab ijod qilgan yillarini toping ?

1528-1613

1500-1587

1560-1613

1590-1634

№ 30 - savol

“Yangi she’riyat” ning xaraktyor tendinsiyalari ?

murakkab klassik sheriyat

lirik qahramonlarning yashirin yakkaligi

didaktik tendensiya

inqilobiy motiv

№ 31 - savol

“Jarohatlangan qalb”poemasi Vietnamda XVIII-XIX asrlarda yashagan qaysi klassik adabiyotchi qalamiga mansub?

Nguen Zu

Nguen Chay

Li Txeong

Xo Suan

№ 32 - savol

Vietnam adabiyotida XV-XVII asrlarda taraqqiy etgan “Ona tilidagi she’rlar “to‘plami kimga tegishli?

Nguen Chay

Nguen Zu

Li Txeong

Xo Suan

№ 33 - savol

Vietnamda novella janriga turtki bo‘lgan narsa nima?

Folklor va yilnomalar ta’siri

O‘scha davrdagi adabiyot ta’siri

Ijtimoiy turmush

Barcha javoblar to‘g‘ri

№ 34 - savol

Li Txiong Kuet she’rlarida qanday g‘oyalar aks ettirilgan .

Varanparvarlik

Sevgi

Qarshilik

O‘scha davr haqiqati ochib berilgan

№ 35 - savol

Vietnam adabiyotida qachon falsafiy-lirik , sarguzasht poemalar janri paydo bo‘ldi.

XVI asrning II yarmida

XVI asrda

XVII asrning II yarmida

XVII asrda

№ 36 - savol

XX asr yangi novellaning asoschisi
Nguyen Zu
Doan Txi Diem
Fam Zui Ton
Nam Kao

№ 37 - savol

Qaysi shoir o‘zining she’rlarida Vietnam haqiqatini ochib bergen.
Xo Suan
Li Txeong
Nguen Chay
Nguen Zu

№ 38 - savol

“Von daraxti “she’ri muallifi?
Xo Suan
Li Txeong
Nguen Chay
Nguen Zu

№ 39 - savol

Xo Suan Xuonning ijodida qanday mavzu e’tiborli o‘rin tutadi?
Peyzaj lirikasi
sevgi
vatanparvarlik
xalq qahramonlari

№ 40 - savol

Vetnamda anonim adabiyotni yuzaga kelishiga turtki bo‘lgan sabablardan biri?

Folklorchilik

O‘sha davrdagi adabiyot ta’siri

Ijtimoiy turmush

cenzura

№ 41 - savol

Qaysi shoir “Eski adabiyotga xos bo‘lgan so‘z va aqlni yangi yo‘l bilan ko‘rsatishga harakat qiling” deb yozadi?

Le Kuy Don

Li Txeong

Nguen Chay

Nguen Zu

№ 42 - savol

”Yozish bu faqatgina bir san’atdir”quyidagi misralar qaysi Vietnam yozuvchisiga tegishli ?

Nguen Zu

Nguen Chay

Li Txeong

Xo Suan

№ 43 - savol

Vyetnmada vatanparvarlik mavzusini yetakchi o‘rinda tutgan shoirlarni ko‘rsating?

Nguen Din Txi, Nguen Xlueng,Tu Snong

Nguen Xlueng,Nguen Zu,Xoshi MinNguen Din Txi, Nguen Xlueng,Nguen Zu

Nguen Xlueng,Nguen Zu,Xoshi Min

Nguen Zu,Xoshi Min, Nguen Tlay

№ 44 - savol

Vietnmada Milliy adabiyot qachon paydo bo‘ldi?

XX asrning 20 yillari

XX asrning 30 yillari

XX asrning oxiri

№ 45 - savol

Xo Shi Minning komedik asari keltirilgan qatorni toping.

“Bambukli ajdarxo”

“Qamoq kundaligi”

“Jarohatlangan qalb nolalari”

“Shallaqi xotin”

№ 46 - savol

Vietnam adabiyotini eng yaxshi romanini ko‘rsating?

“Xiloron”

“O‘t ichida”

“Front”

“Shallaqi xotin”

№ 47 - savol

To Xiu o‘zining poemalarida qaysi mavzuni kengroq yoritib bergen?

Dehqonlar mavzusi

Boylar mavzusi

Ayolar mavzusi

Ishchilar mavzusi

№ 48 - savol

Nguen Longning tetralogiya asari keltirilgan qatorjni belgilang?

“Dengiz darvozaolari”

“O‘tda “

“Bulutlar yo‘li”

“Quyosh”

№ 49 - savol

”Janubiy vietnmada yangi xarbiy jinoyat asari “

Ilmiy asar

Publistik asar

Badiiy asar

Daton

№ 50 - savol

Vatanparvarlik o‘bazi yetakchi mavzu bo‘lgan asarlarni ko‘rsating?

“O‘tda” ,”Orolcha”

”Orolcha” ,”Shaltirlar”

”Shaltirlar”,”Bulut”

”Bulut”,”olov”

GLOSSARY

Avtobiografiya- kishining o‘zi tomonidan yozilgan tarjimai holi. kechinmalarini, uni qurshab turgan ijtimoiy hayot va tabiatni butun murakkabligi bilan ifodalash imkoniyatiga egadir.

Adabiyot nazariyasi- so‘z san’atining ijodiy tajribalariga tayangan holda ish ko‘radi, o‘z nazariy xulosalarini turli davrlarda yaratilgan eng sara badiiy javohirlar tahlilidan, tarixiy-adabiy jarayonni o‘rganishdan keltirib chiqaradi.

Adabiyot tarixi - biror xalqning adabiyoti, uning yuzaga kelishi, taraqqiyot bosqichlari, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi.

Adabiyotshunoslik- badiiy adabiyot va uning mazmun mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, paydo bo‘lish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy vazifalari, ijodiy jarayon qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir.

Adabiy aloqa- turli xalqlarning adabiy uyushmalari, ijodkorlari orasidagi adabiy-ijodiy munosabat.

Adabiy an’ana- dunyoni badiiy idrok etish va ifodalash sohasida davrdan-davrga, avloddan-avlodga o‘tib kelgan tajribalar yig‘indisi – estetik qarashlar, tildagi obrazlilik, emotsionallik va uslubdagi rang-baranglik.

Adabiy asar- boshqa og‘zaki yoki yozma bitiklardan o‘zida muallifning badiiy mahorati belgilarini jamlagani bilan ajralib turuvchi ko‘rkam adabiyot mahsuloti.

Adabiy yodgorlik- biror xalqning muayyan davrdagi hayoti, tili va madaniyati, urf-odatlari, haqida ma’lumot beruvchi og‘zaki va yozma adabiyot na’munasi.

Adabiy maktab- biror bir buyuk so‘z san’atkori ijodining boshqa ijodkorlar uchun badiiy mahorat maktabi vazifasini o‘tashi.

Adabiy muhit- muayyan zamon va makonda yuzaga kelgan, yirik shoir va adiblar ta'sirida shakllangan, o'ziga xos an'analarga ega bo'lган ijodiy muhit.

Adabiy tanqid- (arabcha دیقند – naqd) adabiyotshunoslikning mustaqil bir sohasi bo'lib, u adabiy jarayonni, shu jarayonda yaratilayotgan asarlarning badiiy-estetik qimmatini, adabiyot maydonidagi o'rnini, muvaffaqiyat va cheklanishlarini, adabiy jarayonning yo'nalishini aniqlab, baholab boradi.

Adabiy qahramon- adabiy asar voqealari qatnashchisi. Badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxslarga nisbatan ishlataladigan umumiyl atama.

Adib- adabiyotchi, yozuvchi, shoir. Adib istilohi umuman so'z san'atkoriga nisbatan qo'llaniladi, yozuvchi, prozaik, nosir, shoir, dramaturg so'zlariga nisbatan keng ma'noli atama.

Asotir- mif, qadimgi kishilarning koinot va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi, mohiyati haqidagi tushunchalari asosida yaratilgan xayoliy asarlar.

Badiiy asar tili- badiiy adabiyot tili. Badiiy asar mazmunini ro'yobga chiqaruvchi, muallifning g'oyaviy-badiiy maqsadini kitobxonga yetkazuvchi birdan-bir vosita.

Dramatizm- badiylik modusi. Dratiklik modul sifatida idilliya, iligiya bilan bir guruhni tashkil etadi.

Dramatik tur- so'z san'atining asosiy ko'rinishlaridan biri. Sahnada qo'yilish uchun mo'ljallab yozilgan asarlarni o'z qamroviga olgan, teatr, rassomchilik va dizayn san'ati bilan bevosita aloqador bo'lган adabiy tur.

Janr (fransuzcha *genre* – tur, jins so'zidan olingan). Mavjud *adabiy turlardagi* badiiy asarlar hayotiy qamrovi, uni aks ettirishning shakl va usullari jihatdan yana ham kichik xillarga bo'linadi.

Idioma- faqat biror tilga hos bo‘lib, boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo‘lmaydigan ibora.

Improvizatsiya- hozirjavoblik.

Kompozitsiya- (lotincha *compositio* – tuzilish, tartib) badiiy asardagi qismlar, obrazlar va tasvir vositalarining muayyan g‘oyaviy maqsadga xizmat qiladigan darajada joylashishi, ularning tasvirdagi mezoni va muvofiqligi.

Kulminatsiya- badiiy asarda voqealar rivojining eng yuksak nuqtasi.

Laureat- xalqqa manzur bo‘lgan yozuvchi va san’atkorga beriladigan faxriy unvon, mukofot.

Leytmotiv- butun asar bo‘ylab avtor tomonidan ilgari surilgan, qayta-qayta uqtirilgan asosiy g‘oya, yetakchi fikr.

Maqola- gazeta va jurnallar uchun kundalik muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy va adabiy hayot masalalari to‘g‘risida yozilgan publitsistik asar.

Memuarlar- yozuvchining o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan yoki o‘zi qatnashgan o‘tmish voqealar to‘g‘risida yozgan xotira, esdalik, yodnomalari.

Mehnat qo‘sиг‘и- bevosita mehnat jarayonini aks ettirib, mehnat turi, zavqi va samaralarini kuylagan qo‘shiqlar.

Modernizm- eng yangi, zamonaviy.

Monografiya- muayyan bir muammo yoki biror yozuvchi ijodiga bag‘ishlangan ilmiy asar taddiqot.

Nazm- poeziya.

Nasr- proza.

Novella- kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma’lum bir voqeа tasvirlanadi va shu voqeaga qadar bo‘lgan yoki undan keyin ro‘y bergen voqealarni batafsil bayon etmaydi.

Obraz- san’at va adabiyotda turmushni o‘ziga hos badiiy shaklda aks ettiruvchi yorqin manzara va xaraktyorlar.

Ocherk- voqealari hodisalarini, turmush faktlarini va aniq kishilar faoliyatini aynan tasvirlash.

Povest- qissa.

Poetika- badiiy adabiyot haqidagi ilm, adabiyot nazariyasi, adabiyot qoidalari.

Publitsistika- ijtimoiy siyosiy xayot masalalarini yoritadigan barcha turdag'i asarlar.

Pyesa- xilma-xil sahna asarlarining umumiy nomi.

Postmodernizm - ijtimoiy-gumanitar sohalarda kuzatila boshlagan oqim.

Ramz- simvol, ko'chim turlaridan biri.

Risola- kitobcha, maktub, bular mavzu jihatidan xilma-xil bo'lishi mumkin.

Realizm- mavjud, haqiqiy.

Roman- murakkab turmush jarayonini, keng hayotiy hodisalar doirasini qamrab oladi va buni o'sish o'zgarishda tasvirlaydi.

Ssenariy- dramatik asarning rejasi.

Syujet- epik, lirik yoki dramatik asarning bevosita mazmunini tashkil etgan, o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi hayotiy voqealar.

Tendensiya- yozuvchi asarda hayot manzaralari va xaraktyorlarini tasvirlash bilan o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan g'oya, xulosa.

Uslugub- ifoda usuli.

Utopiya- yozuvchining fantaziyasini, amalga osholmaydigan hayolni hayotda mavjud qilib tasvirlovchi asar.

Fantaziya- ijodiy tasavvur, hayol.

Hikoya – badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Jahon adabiyotida hikoya qadim an'analarga ega. O'tmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon

unsuri bo‘lib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan.

Xaraktyoristika- ma’lum bir hodisa, kishi yo predmetga hos xususiyat va sifatlarni belgilash, aniqlash.

Xronika- voqealarning hayotda ro‘y berganidek izchilligini saqlab, ularni xronologik tartibda aks ettirgan hikoyaviy yoki dramatik asar.

Epizod- doston, qissa, roman, dramalar syujetida o‘zaro bog‘lanib kelgan va ma’lum darajada mustaqil ahamiyatga ega bo‘lgan voqea.

Epifora- xotima.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari ro‘yxati:

- 1.1.** Mirziyoyev.Sh.M Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliyishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent, 2021.
- 1.2.** Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. Toshkent , 2020.

II.O‘zbek tilidagi adabiyotlar

- 2.1.** Adabiy turlar va janrlar. - T.: Fan. 1991. 1-jild.-383 b., 2-jild.1992.
- 2.2.** N.Jabborov.Yangi zamon she’riyati tamoyillari. Sharq yulduzi., 2014.
- 2.3.** O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2000.
- 2.4.** Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2002. - 558b.
- 2.5.** Nosirov O‘.N. Obrazlarda uslub jilolari. –T.: Fan, 1991. –196 b.
- 2.6.** Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. – T.: O‘zbekiston, 1997. -415 b.
- 2.7.** Umirov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 262 b.
- 2.8.** Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Iqtisod-moliya. 2007. – 304 b.
- 2.9.** Boltaboyev H. Nasr va uslub: Uslub muammosiga nazariy nigoh va hozirgi o‘zbek nasrida uslubiy izlanishlar. –T.: Fan, 1992. –105 b.
- 2.10.** Sultonova M. Peyzaj san’ati. –T.: Fan, 1983. – 87 b.
- 2.11.** Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. 2 jildli. – T.: Fan, 1979.
- 2.12.** Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so‘z. – T.: Fan, 1993. – 132 b.

2.13. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Iqtisod-moliya. 2007. – 304 b.

III. Rus va ingliz tilidagi adabiyotlar

- 3.1.** Кнорозова Е. Ю. Духовная культура Вьетнама. Традиционные религиозно-мифологические воззрения вьетнамцев / Отв. ред. Н. В. Колпакова. СПб.: БАН, 2020.
- 3.2.** Резник М.В. Вьетнам: история, культура, литература –Т. И. Матвеева Красноярск, 2018.
- 3.3.** Филимонова Т.Н. Очерк вьетнамской литературы XX века - Языки народов мира Москва, 2017 .
- 3.4.** Мифология Вьетнама. (сравнительный анализ).- Изд-во ТашГИВ, 2007.
- 3.5.** Крупчанова Л.М. Введение в литературоведение. – М.: ОНИКС, 2005. – 415 с.
- 3.6.** Пустовойт П.Г. Слово и стиль в создании образности //Вестник Московского университета. Серия 9 – филология. М.: 2002. -№ 3
- 3.7.** Е.Ю. Кнорозова. “Мифы и предания Вьетнама”, пер. с вьетнамского и ханвания - СПб.: “Петербургское Востоковедение”, 2000.
- 3.8.** Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: “Высшая школа”, 2000 – 374 с.
- 3.9.** История всемирной литературы.. М.,Наука, 1989.
- 3.10.** Никулин И.Н., Вьетнамская литература. М.: Наука, 1971.
- 3.11.** Рассказы вьетнамских писателей. Изд.Москва 1960. 130 с.
- 3.12.** Никулин Н.И. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени. X-XIX вв М.,Наука, 1989.
- 3.13.** Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков] // История всемирной литературы: В 8 томах / Ин-т мировой

- лит. им. А. М. Горького. — М.: Наука, 1983—1994. — На титл. л. изд.: История всемирной литературы: в 9 т. Т. 8. — 1994.
- 3.14.** Избранные произведения писателей Юго-Восточной Азии. М., Худ.лит.» 1981.
- 3.15.** Литература Востока в новейшее время. М., МГУ, 1977.
- 3.16.** Нгуен Зы., Пространние записи рассказов об удивителном., М., 1974.
- 3.17.** Просветительство в литературах Востока. Москва, 1973.
- 3.18.** Зимонина И. П. О просветительских тенденциях во вьетнамской новелле начала XXв – В кн.: Просветительство в литературах Востока. М., «Наука», 1973.
- 3.19.** Литература и фольклор народов Востока. – М.: Наука, 1967.
- 3.20.** John Balaban. Ca Dao Vietnam: Vietnamese Folk Poetry(Kagean Book), Copper Canyon Press, Washington, 2003.
- 3.21.** Linh Dinh, Night, Again: Contemporary Fiction from Vietnam, Seven Stories Press, New York, 2006.
- 3.22.** Sanh Huynh.An Anthology of Vietnamese Poems: From the 11th to 20th centuries.Yale University Press, London, 2001.

IV. Vietnam tilidagi adabiyotlar

- 4.1.** Giáo Trình Văn Học Trung Đại Việt Nam Tập 2 (NXB Giáo Dục 2016) - Lã Nhâm Thìn
- 4.2.** Tong tap van hoc viet nam, hoa hoc xa hoi – Ha noi, 2000.
- 4.3.** Bao Thanh Nien. Tu tran o tuoi (Ngo Suan Dieu). Vietnam, 2005.
- 4.4.** Tho van Nguyen Khuyen – Ha noi, 1971.
- 4.5.** Văn học dân gian các dân tộc – Ha noi, 1959.
- 4.6.** Ngó Xuán Dieu. Cui Huong Cho Gio. (Ruhlar shamol bilan). Hanoi. 1945.
- 4.7.** Ngó Xuán Dieu. Tho Tho.— Hanoi. 1938.

V. Lug‘atlar va ensiklopediyalar

- 5.1.** Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: Akademnashr, 2010 – 304 b.
- 5.2.** O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. A. Madvaliyev tahriri ostida. — T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008
- 5.3.** Русско – вьетнамский словарь. М.: «Русский язык», 1992.
- 5.4.** Abdurahmonov R. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. M., 1954
- 5.5.** Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary. Oxford University Press, 2002.

VI. Internet manbalari

- 6.1.** www.google.com/vietnamliterature
- 6.2.** www.philosophy.ru
- 6.3.** www.google.com/wikipedia/interlude
- 6.4.** www.vietnamise.com
- 6.5.** www.wattped.com
- 6.6.** www.vietnamise.com
- 6.7.** www.facebook.com
- 6.8.** www.thegioi.vn